

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VAO‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

UDK (-----)

Magistratura bo‘limi

“Tarix o‘qitish metodikasi”

Qurbonov Nodirjonning

**O‘rta maxsus ta‘lim tizimida “O‘zbekistonning - Rossiya bilan ijtimoiy-
iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini o‘rganishning metodik asoslari ” (1991-
2010 yy) mavzusidagi magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYASI

5A-110601 (Tarix o‘qitish metodikasi)

DAKda himoya qilishga ruxsat berilgan

Magistratura bo‘limi boshlig‘i

tfn_____M.Esanov

«___» _____ 2014 yil

«Tarix va ijtimoiy fanlarni o‘qitish

metodikasi » kafedrası mudiri

dots._____G.S.Fuzailova

Ilmiy rahbar: -

t.f.n., dots _____V.T.Ishquvatov

«___» _____ 2014 yil

Toshkent – 2014yil

MUNDARIJA

Kirish.....

I bob. O‘zbekiston - Rossiya manfaatli hamkorlik massalalarining o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘qitiishning metodik asoslari.

I.1. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tizimida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik omillarini o‘rganish.....

I.2. Davlatlarimizning demokratik taraqqiyot sharoitida savdo – iqtisodiy hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi (1991 - 2010).....

II bob. Strategik sheriklar – ittifoqchilik yo‘lida mavzusining o‘rganishning metodik asoslari.

II.1. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi “Strategik sheriklik to‘g‘risida” gi bitimdan keyingi savdo – iqtisodiy hamkorlik aloqalarini o‘qitish.....

II.2. Davlatlararo ijtimoiy, madaniy va harbiy – texnikaviy hamkorlikning yangi tizimi.....

III bob. Eksperimental ishni o‘tkazish va natijalarini tahlil qilish

3.1. Eksperimental ishni o‘tkazish metodikasi.....

3.2. Olingan natijalar tahlili va uslubiy tavsiyalar.....

3.3. Mavzu bo‘yicha bir soatlik dars ishlanma.

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyot

Ilovalar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng o‘tgan qisqa tarixiy davr mobaynida dunyoda o‘zining munosib o‘rnini egalladi. Hozirgi kunda biz XXI asrda oldimizda turgan muammolar yechimlari, yorqin istiqbolga yetish, yo‘llarida turibmiz.

Bunda xalqimizning o‘z taqdirini o‘zi belgilash imkoniyatiga egaligi juda muhim omildir.

O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatini xalqaro hamjamiyatning to‘laqonli subyekti sifatida amalga oshirishi uchun real imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Yurtimiz qisqa davr ichida mustaqil davlat sifatida mustaqil tashqi siyosat olib bora olishini isbotlab kelmoqda. Bu jahon siyosatida davlatning nufuzini belgilovchi muhim mezondir. Prezident I.Karomov tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda O‘zbekiston: o‘z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq asosiy tamoyillarni ishlab chiqqanligi va amal qilishini ko‘rsatib o‘tgan edi¹.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar mamlakat manfaatlariga, yangidan shakllanayotgan xalqaro munosabatlar tizimi va iqtisodiyoti bilan uyg‘unlashib bormoqda.

Iqtisodiy islohatlar xalqaro iqtisodiy jarayonlarni zamonaviy talablari asosida olib borilmoqda.

Xalq manfaatlariga javob beruvchi mustahkam iqtisodiy siyosat O‘zbekistonni mustaqil rivojlantirishning ajralmas shartidir² - deb ta’kidlagan edi I.Karimov o‘z asarida.

Iqtisodiy islohatlarni zamonaviy talablar asosida olib borish, o‘z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bir qatorda, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarini jahon bozorigaolib chiqish, raqobatga kirishish muayyan yutuqlarga erishimizga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini milliy – madaniy merosga asoslangan va jahon madaniy taraqqiyotining ilg‘or yutuqlari bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirmoqda. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida e’tirof etilishida ma’naviy merosimiz ham muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikni mustahkamlash, tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lida talay ishlar amalga oshirilmoqda. Tashqi siyosatda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar va davlatlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish ana shunday muhim ishlardan hisoblanadi.

O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosiy, savdo – iqtisodiy faoliyatida MDH davlatlari shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi bilan ko‘p tomonlama manfaatli hamkorlik olib borilmoqda.

¹ И.Каримов “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида...” Т.Ўзбекистон 1997 й. 296 – 297 бетларга қаранг.

² И.Каримов “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли” Т.Ўзбекистон 1992 й. 41 бет

O‘zbekiston – Rossiya: bular bir – biri bilan madaniy - ma’naviy – iqtisodiy jihatdan tarixan bog‘langan “eski” qadrdonlardir. Davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar rivojlanishi ancha uzoq tarixga borib taqaladi. Temuriylar, Shayboniylar davrida, XVIII – XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi xonliklar davrida ikki o‘rtada din va savdo – iqtisodiy munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan edi³⁻⁴.

Mustaqillik davrida bu hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Hozirgi kunda esa ma’lumki ittifoqchilik darajasidadir. I.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq:

- “Bugungi vaziyatda Rossiyadagi ahvolni puxta tahlil etib, uning dunyodagi buyuk davlatlardan biri ekani va bunga ko‘p tomonlama yaqin ekanligini aslo unutmasligimiz lozim. Rossiya O‘zbekistonning tashqi siyosatida doimo e’tiborli o‘rin tutadi” – degan edi⁵.

Albatta, birinchi o‘rinda mustaqilligimizni mustahkamlash, yurtimiz uchun tinchlik, barqarorlikni ta’minlash, fuqorolarimizga erkin – farovon turmushni yaratib berishda O‘zbekistonga Rossiya bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash muhim omildir. Bu masalada prezident I.Karimov:

- “Xonodonimizni avaylab – asrash, mavjud chegaralarni saqlab qolish uchun qudratli potensialga ega bo‘lgan Rossiya tomonidan madad zarur” – deb ta’kidlagan edi⁶.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Ushbu mavzu shu kungacha tarixiy - ilmiy va metodik jihatdan o‘rganilmagan. Bu borada ilmiy risola yaratilmagan.

Hamkorlikning muhim tomonlarini prezident I.Karimov o‘zining bir qator asarlarida yoritib o‘tgan. Bir qator tadqiqotchilar J.Qosimov, R.Muqimjonova, G.Mochinlar O‘zbekiston – Rossiyaning siyosiy - iqtisodiy munosabatlariga doir ilmiy maqolalar chop etilgan.

N.Jo‘rayevning “O‘zbekiston tarixi” darsligida, “O‘zbekiston tarixi” III jildida va bir qator limiy risolalarda davlatlarimiz hamkorligi qisqa satrlarda yoritilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ushbu ilmiy ishning maqsadi o‘rta maxsus ta’lim tizimida O‘zbekiston – Rossiya davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlanishi, chuqurlashuvi va istiqbollarni ochib berish hamda mavzuni o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘qitilishini o‘rganishdan iborat. Ikki tomonlama hamkorlikni o‘rnatilishining omillari, sabablari, maqsadlari va vazifalarini nazariy yoritib, qiyosiy tahlil qilish orqali, ishning mohiyatini ko‘rsatishdan iboratdir.

³ У.Мавлонов “Маданий алоқалар ва савдо йўллари” Т.Академия 2004 й. 23-25 бетлар

⁴ “Ўзбек дипломатияси тарихидан” Т.ЖИДУ 2004 й 207 бет

⁵ И.Каримов “Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик” Т.Ўзбекистон 15 бет

⁶ И.Каримов “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли” Т.Ўзбекистон 1992 й. 31 бет

О‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarning strategik sheriklik va keyinchalik ittifoqchilik munosabatlari darajasida mustahkamlanishiga, obyektiv yondashgan holda baho berish va tahlil qilish nazarda tutiladi. Tomonlararo hamkorlikning bevosita, ko‘p sohalarda o‘rnatilishi va rivojlanib borishi O‘zbekiston uchun geosiyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy – madaniy jixatdan manfaatli ekanligi ko‘rsatib beriladi.

Tadqiqotning davriy chegarasi 1991–2010 yillarni qamrab oladi. Mustaqillikning 19 yili davomida O‘zbekistonda keng qamrovli tub islohotlar amalga oshirilishi bilan bir qatorda huquqiy-demokratik davlat qurish yo‘lida dastlabki qadamlar qoyildi. O‘zbekiston –Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligining yangi bosqichlarga ko‘tarilishi boshladi. Ayni shu davrda O‘zbekiston Respublikasi jaxon hamjamiyatining teng huquqli a‘zosi sifatida turli xalqoro tashkilotlar bilan xususan Rossiya bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatganligi hamda amalga oshirilganligi bilan xarakterlanadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rta maxsus ta’lim tizimida O‘zbekistonning-Rossiya bilan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar anchagina bo‘lishiga qaramay, O‘zbekistonning-Rossiya bilan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni o‘qitilish masalasi tarix fanida xususan metodika sohasida hamon eng kam o‘rganilgan sohalardan bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonning-Rossiya bilan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni ularning siyosiy tizimdagi tutgan o‘rnining ayrim jihatlarini A. Jalolov, R. Jumayev, S. Jo‘rayev, Q. Jo‘rayev, T. Rahmatullayev, J. Toshqulov, I. Ergashev, A. Qodirov kabi qator olimlar o‘rganganlar⁷.

N. Jo‘rayevning⁸ ilmiy ishlarida mustaqillik yillarida siyosiy partiyalarning jamiyatda tutgan o‘rni, faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Dissertatsiyaning maqsadi – O‘zbekiston-Rossiya munosabatlarning keng ko‘lamda davom etayotganligini tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarishdan iborat.

⁷ Джураев С. Время повышать активность // Народное слово. – 2002. – 20 декабрь; Жалолов А. Халк билан ҳамнафас партия // Мустақиллик масъулияти (фалсафий-сиёсий қирралар). – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 7–12; Жумаев Р. З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Ташкент: Фан, 1996. – 207 с.; Жўраев С., Ташкулов Ж. Многопартийность в структуре политической системы Республики Узбекистан // Правовое государство – независимость, нация, экономика, идеология, политика. – Ташкент: Адолат, 1994. – С. 116–153; Жўраев Қ. А. Ривожланган давлатларда кўппартиявийликнинг шаклланиши – демократик тараққиётнинг муҳим омили сифатида (Франция сиёсий тажрибаси мисолида). – Тошкент: ЖИДУ, 1999. – 25 б.; Раҳматуллаев Т. Сиёсий партия ва демократик таъомиллар. – Самарқанд: Зарафшон, 1989. – 80 б.; Эргашев И. Сиёсий партиялар ва ижтимоий қатламлар // Фидокор. – Тошкент, 2000. – 3 май; Қодиров А. Ўзбекистонда кўппартиявийлик тизимини шакллантиришнинг концептуал муаммолари // Ҳуқуқ–Право–Law. – Тошкент, 2002. – № 4. – Б. 51–53.

⁸ Жўраев Н. Демократияни янада чуқурлаштириш. Кўппартиявийлик // Ўзбекистоннинг янги тарихи. – Тошкент: Шарқ, – 2000. – Б. 150–188.

Koʻzlangan ushbu umumiy maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilandi:

- Oʻzbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida jaxon hamjamiyati tomonidan tan olinishi jarayonlarni oʻqitilishini oʻrganish;
- Oʻzbekiston Respublikasining tashqiy siyosiy strategiyasi va tamoillari asosida Rossiya bilan hamkorlik aloqalari belgilanganligini oʻrganilishini asoslab berish;
- Oʻzbekiston Respublikasi va Rossiya bilan ikki tomonlama oʻzora maʼnfaatli hamkorlikning shakillanish jarayonlarini yoritilishi va oʻqitilishini tahlil qilish;
- Oʻzbekiston Respublikasi bilan Rossiya davlatlari oʻrtasidagi hamkorlikning amaliy natijalarini oʻrganish;
- Oʻzbekiston Respublikasi va Rossiya mamlakatlari oʻrtasida fan, taʼlim va madaniy sohalardagi hamkorlik jarayonlarini koʻrib chiqib, tahlil qilish;
- Oʻzbekiston Respublikasi va Rossiya oʻrtasidagi oʻzoro ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamkorlikni tahlil qilish asosida tegishli xulosalar chiqarish va kelgusi aloqalarni yanada jadallashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Dissertatsiyada ishi ustida ishlash jarayonida turli manbalardan olingan katta hajmdagi hujjatlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbaini mustaqillik yillarida ikki mamlakat oʻrtasidagi oʻzoro manfaatli aloqalar va miyeyyoriy xujjatlar joriy arxivlaridan olingan hujjatli materiallar, DTS nizom va dasturlari tashkil etdi.

Tadqiqotning obyektini Oʻzbekiston-Rossiya oʻrtasidagi oʻzoro ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy oloqalari oʻrta maxsus taʼlim tizimli oʻrganiladi.

Oʻzbekiston-Rossiya davlatlari oʻrtasidagi munosabatlar tizimi tarixi va uni oʻqitish metodikasi **tadqiqotning predmetini** tashkil etadi.

Dissertatsiyaning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqotni yozish, oʻrganilgan masalalarni baholash, ilmiy xulosalarga kelish, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari, nutq va suhbatlarida Oʻzbekiston-Rossiya davlatlari oʻrtasidagi munosabatlarning yanada takomillashtirishga oid fikr-mulohazalari, konseptual gʻoyalari, amaliy xulosalari metodologik asos boʻlib xizmat qildi.

Mavzuni yoritish jarayonida magistrant tomonidan ijtimoiy voqelikni bilish va oʻrganishning dialektik metodi, uning ilmiylik, xolislik, tarixiylik, tizimlilik va rivojlanish tamoyillariga tayanildi.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi. O‘zbekistonning –Rossiya bilan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarining davlat boshqaruvida tutgan o‘rni o‘rganishning metodik asoslari mustaqil tadqiqot sifatida kompleks va tarixiylik nuqtai nazaridan ilk bor o‘rganiladi, uni o‘qitish metodikasi ishlab chiqiladi va tegishli ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar tayyorlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishida tarix fani va mavzuning o‘qitish oldida turgan dolzarb vazifalardan sanalgan O‘zbekistonning eng yangi tarixini yaratish borasidagi ilmiy izlanishlardan biridir. Uning natijalaridan kelgusida ikki mustaqil davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning rivojida hamda ularning faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish masalalarini ijobiy hal qilishga qaratilgan amaliy tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya ishida xulosalari “O‘zbekiston tarixi”, “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti”, “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar”, “Siyosatshunoslik” fanlaridan ma’ruzalar tayyorlashda va amaliy mashg‘ulotlar o‘tishda qo‘llanishi mumkin.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 83 betni tashkil etadi.

Tajriba–sinov maydonchasi

Kasb – hunar kolleji.

I bob. O‘zbekiston - Rossiya manfaatli hamkorlik massalalarining o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘qitishning metodik asoslari.

I.1. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tizimida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik omillarini o‘rganish.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach juda keng imkoniyatlarga ega bo‘ldi. Yangi davr, ulkan o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi taqdirida tub burilishlarni amalga oshirdi. Dunyoviy muammolar, urush – tinchlik masalalari turli salbiy holatlarni keskin rad etish, ularni yuksak madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan siyosatni qaror toptirish yo‘li bilan bartaraf etish – O‘zbekiston xalqaro siyosatining bosh yo‘lidir. U ijtimoiy tuzimi, g‘oyasi va taraqqiyot yo‘lidan qat’iy nazar, tinch - totuv yashash, o‘zaro manfaatli hamkorlik tarafdoridir.

Ma’lumki XX asrning so‘ngi yillari jahon taraqqiyotida keskin burilish yasadi. Bu mavjud ikki siyosiy tizim o‘rtasidagi raqobatning yo‘qolishi, yangicha ijtimoiy - siyosiy jarayonlarning vujudga kelishi bilan bevosita bog‘lik. Xalqaro huquqiy meyorlar va boshqa bir qator qonun - qoidalarini qaytadan ko‘rib chiqish, yangicha qarashlar va yangicha tafakkur asosida umumjahon tartibotini ishlab chiqish, umumjahon ijtimoiy - siyosiy jarayonlar yo‘nalishini o‘zgartirish davri kelgan edi. XXI asr umuman o‘zgacha bo‘lishini, XXI asrda O‘zbekistonning dunyoga yuz tutishini yangicha yondashuvlar asosida bo‘lishini O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov aniq – ravshan ko‘rsatib berdi:

- “Butun dunyo yaxlit va bir - biriga bog‘liq tizim bo‘lib bormoqda, unda o‘z – o‘zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o‘rin yo‘q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda xalqaro tuzilmalar bilan o‘zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo‘ymoqda. XXI asr, shubxasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asr bo‘ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayoni faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalar ko‘lamida ham, shuningdek, umuman butun sayyoramiz ko‘lamida ham sobitqadamlik, barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur.”⁹

O‘zbekiston o‘z mustaqilligining tarixan qisqa davrda jahon siyosatiga salmoqli ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Jahon siyosati yo‘nalishlarida uning o‘ziga xos tamoyillari, yondashish uslubi, ijtimoiy - siyosiy jarayonlar borishini yo‘naltirib turishidagi uslubi mavjud:

1. ...O‘zbekistonda aql – idrokka, og‘ir vazminlikka, andishalikka asoslangan sharqona demokratiya tartib – qoidalariga amal qilindi. Xalq va mamlakat

⁹ И.Каримов. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. Т.Ўзбекистон. 1997 й. 298 бет

manfaatlariga zid bo'lgan har qanday "o'yin"larga, tadbirbozlik va ortiqcha shov – shuylarga qarshi turildi.

2. Bir qator yosh mustaqil davlatlarda iqtisodiy tanglikdan talvasaga tushish hollari yuz berdi. Ular natijada har qanday yo'l bilan bo'lmasin, "qorin to'yg'azish" tashvishiga tushib, kundalik yumushlar girdobida qolib ketishdi. O'zbekistonda esa aholi umumiy ma'naviy - ruhiy etiyojlaridan kelib chiqib, har tomonlama tub islohatlarga yo'l ochib berildi.

3. O'zbekiston turli mustaqil davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy jixatdan manfaatdorligini nazarda tutib, yangicha sharoitlarda yangicha shakl va mazmundagi hamkorlikni vujudga keltirish tashabbusi bilan chiqdi. Bu MDH, Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorligi singari ko'p tomonlama ijtimoiy - iqtisodiy manfaatlar asosida qurilgan tashkilotlar sifatida o'rta tashlandi.

Albatta, jahon hamjamiyati bilan hamkorlik yo'llari murakkab jarayon, uni o'z qonun qoidalarini bor¹⁰.

- "Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma - xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya yo'llari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart - sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda - dunyo miqyosida va mintaqalarida - integratsiya jarayonlarida qatnashsada, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga, boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi.

... Biz mamlakatimiz iqtisodiy jixatdan rivojlangan bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlat haqidagi hozirgi zamon tushunchalariga mos kelgan taqdirdagina jahon hamjamiyatiga kirishimiz mumkinligiga asoslanamiz" - deb yozgan edi I.Karimov¹¹.

Ma'lumki, hayot o'zbekistonning xalqaro munosabatlar tizimining, u ishlab chiqqan rivojlanish tamoyillarning asosli ekanligini ko'rsatdi. Jahon siyosatdonlari va jamoat arboblari uning yangicha qarashlariga yuksak baho bermoqdalar va o'z vaqtida qo'llab – quvvatlamodalar.

Mamlakatimiz prezidenti I.Karimovning mamlakatimizda amalga oshirayotgan islohatlarga bo'lgani kabi xalqaro siyosat masalasida ham o'ziga xos yondashuvi bor. Jumladan u:

1. Davlat siyosatini har bir oila, har bir shaxs tinchligidan tatabutun mamlakat, mintaqalararo va qit'alararo munosabatlarni g'oyat insonparvarlik va butun Yer shari tinchligiga barcha - barchasini yaxlit bir butun holda xis

¹⁰ Н.Жўраев. "Агар огоҳ сен...". Т.Ўзувчи. 1998 й. 190 бет

¹¹ И.Каримов. "Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари". Т.Ўзбекистон. 1997 й. 299 бет

qiladi. Eng insonparvar siyosatni eng tinchliksevar siyosat bilan uyg'un holda tushunadi va ana shu mushtarak tushunchalarning tantanasi uchun kurashadi.

2. Jahon siyosatining eng ilg'or tajribalari o'z vaqtida o'rganadi, ijtimoiy – siyosiy jarayonlarning borishini to'g'ri kuzatadi, to'g'ri tushunadi va to'g'ri baholaydi, ularni tahlil etishda adashmaydi. Shuning uchun dunyo siyosatchilari uni e'tibor bilan tinglashadi., har bir taklifning yangiligiga va o'ziga xosligiga qiziqish bilan qarashadi hamda yuksak baholashadi.

3. Vaqt o'tgan sari odamlar ruhiyati yangilanib boradi. Bunda ma'naviy - ruhiy o'zgarishlar bevosita jahon siyosatini ham yangicha shakl va mazmun bilan boyitadi. Bu tabiiy hodisadir. Ana shu holatlarni o'z vaqtida anglab, zamonaviy muloxaza yuritish asosida davlat boshqaruvi va jahon siyosati yo'nalishlarini isloh qilib borish, ularni yangi o'zanga burish, yangicha shakl va mazmun bilan boyitish fazilati siyosatchi uchun noyob iste'doddir.

Prezident I.Karimov o'zining ana shu xislatlari bilan jahon siyosatdonlari orasida alohida mavqega ega bo'lmoqda¹².

Hozirgi davrda hech mubolag'asiz, bemalol aytish mumkinki, shu paytgacha o'tgan tarixan qisqa davr mobaynida O'zbekiston dunyo hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallab bo'ldi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng, avvalo o'z tashqi siyosatini xalqaro hamjamiyatning to'laqonli subyekti sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ldi. Shu bilan birga, mustaqil davlat sifatida mustaqil tashqi siyosat olib bora olishini amalda isbotladi. Bu jahon siyosatida davlatning nufuzini belgilovchi muhim mezondir.

- “Mustaqillik yillarida tashqi siyosatimizni yo'lga qo'yishning asosiy tamoyilari ishlab chiqildi va izchil amalga oshirildi. Bu tamoyillar avvalo O'zbekistonning o'z tashqi siyosatini teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik negizida qurishga intilayotganimizdan kelib chiqadi. Biz biron yuir davlatning ta'sir doirasiga kirmaymiz degan qoidaga qat'iy amal qilib kelmoqdamiz va bundan bo'yon ham o'z milliy – davlat manfaatlarimizga asoslanib, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar, dunyoning barcha mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarni mustaqil belgilayverishga ahd qilganmiz” - deb yozadi Islom Karimov¹³.

O'zbekiston jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olishga intilmoqda. Eshiklarimiz dunyo uchun ochiq va dunyo eshiklari ham biz uchun ochiq bo'lishga harakat qilyapmiz¹⁴.

Hozirgi kunda O'zbekiston xalqaro munosabatlar tizimiga kirib borish va unda o'z o'rnini egallashi xalqaro siyosatning o'ta chigallashgan davriga to'g'ri

¹² Н.Жўраев. “Агар огоҳ сен...”. Т.Ўзувчи. 1998 й. 196-197 бетлар

¹³ И.Каримов. “Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.Ўзбекистон. 1995 й. 104 бет

¹⁴ Ўша асар, 119 бет

keldi. Bir tomondan xalqaro tartibot o'zgarib, xalqaro siyosatning yangi o'yin qoidalari shakllanayotgan, xalqaro munosabatlarning globallashuvi kengayib, uning ijobiy jixatlari bilan bir qatorda, salbiy oqibatlari ham kuchayib borayotgan sharoitda, ikkinchi tomondan esa ichki siyosatni uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolarni o'zaro bog'liqligi holatida tashqi siyosatni aniqlab olish va amalga oshirishni har qanday davlat ham uddasidan chiqa olmaydi.

O'zbekiston ana shunday vazifani bajara oldi va jahon hamjamiyatining xurmatiga sazovor bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston o'zining tashqi siyosatini milliy - madaniy merosga asoslangan va jahon madaniy taraqqiyotining ilg'or yutuqlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirmoqda. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida qaytadan e'tirof etilishida ma'naviy merosimiz katta rol o'ynamoqda. Qaysi xalq o'z mamlakatini e'zozlasa, uni jahon hamjamiyatiga olib chiqsa, uning nufuzi shunchalik ortadi.

Har bir davlat o'zining tashqi siyosatini amalga oshirishda aniq metodologiya, nazariyaga, milliy mafkuraga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati metodologiyasi nazariyasi prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan.

Jamiyat va davlatlar tarixi shuni ko'rsatadiki, biron – bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erishgan emas. Sharq va G'arb mamlakatlarini bir – biriga bog'lagan Buyuk Ipak Yo'lini markazida joylashgan O'zbekiston bir necha asrdan buyon dinlar, millatlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida dunyodagi yirik davlatlar Samarqand bilan o'z aloqalarini o'rnatganlar. Amir Temurning Fransiya, Angliya, Ispaniya qirollari, o'nlab qo'shni davlatlarning hukmronlari bilan yozishmalari o'sha davrdagi jo'shqin siyosiy – madaniy va savdo – sotiq aloqalaridan guvohlik beradi¹⁵.

Davlatlarning obro' - e'tiborlari ham bugungi kunda jahon hamjamiyatida iqtisodiy, harbiy qudrat bilan birgalikda, mamlakatdagi demokratik jarayonlarning xarakteri bilan belgilanmoqda. Shu jixatdan olganda, O'zbekistonda bosqichma - bosqich amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar jahon hamjamiyatida mustaqil o'rin egallashga va milliy manfaatlarimiz asosida tashqi siyosat yuritishga imkoniyat yaratmoqda.

XX asrning oxirida inqiloblar yuz yilligi jahon sahnasida sotsialistik tuzumning yemirilishi bilan yakun topdi. Sobiq "qizil imperiya" hududida xalqaro munosabatlar va xalqaro huquqning to'laqonli subyektlari - yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi.

¹⁵ "Ўзбекистонда жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида". Т.Академия. 2005 й. 268 бет

Shular qatori uzoq davlatchilik tarixiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi ham o'z milliy taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri hisoblangan yurtimiz yana jahon hamjamiyatining ajralmas qismiga aylandi. Milliy davlatchiligimizning bir qator sohalari sobiq sho'rolar tuzumi davrida inqirozga yuz tutgan edi. o'ta markazlashgan totalitar tuzum sharoitida ittifoqdosh respublikalar amalda o'z mustaqilligini yo'qotgan edilar.

O'zbekiston Respublikasining tashqi aloqalari ham markaz orqali, uning ko'rsatmasi va nazorati ostida amalga oshirilardi. Istiqloldan so'ng davlatimiz oldida tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yish va shu maqsadda yangi davlat tuzilmalarini tashkil etish masalasi ko'ndalang turardi. chunki busiz xalqaro hamjamiyatga kirib borish mumkin emas. Zero O'zbekiston faol tashqi siyosat yuritish bilan xalqaro huquqning teng huquqli a'zosi sifatida o'z davlatchiligini qurishi, mustaqillikni mustahkamlashi, dunyoda o'zining munosib o'rnini egallashi lozim edi. "O'zbekiston yo'li – jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'li" shiori ilgari surildi.

Mustahkam xavfsizlik, izchil iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay shart – sharoitlar yaratish, aholi turmush darajasini ko'tarish, konstitutsion tuzum asoslarini mustahkamlash, millatlar ahilligi, xalqlar do'stligi, fuqarolar erkinligi va haq - huquqlarini muxofaza qilish tashqi siyosatning asosiy maqsadlaridir. Ana shu maqsadlarni ro'yobga chiqarish, jahon hamjamiyati bilan tabiiy aloqalarni yo'lga qo'yish istagida tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyatning milliy mexanizmlari yaratildi.

1944 yil iyulida O'zbekistonda, Respublika hukumati xuzuridagi Ittifoq tashqi savdo muxtor vazirligi tashkil etildi¹⁶. Ushbu organ turli tashkilotlar va muassasalarni eksport masalasini hal etishga qaratilgan edi.

1992 yilda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil topdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida diplomatiya, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashning davlat tizimi yaratildi. Tashqi aloqalar sohasi uchun milliy kadrlar tayyorlash maqsadida 1992 yilda O'zbekiston Respublikasi prezidenti farmoni bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi tashkil topdi¹⁷.

1998 yil 30 aprelda prezidentimiz tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Uning asosiy maqsadlari:

1. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyasini jalb etgan holda iqtisodiy taraqqiyotga erishish;

¹⁶ Э.Нуриддинов. "Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы". Т. Чўлпон. 2002 й. 9 бет

¹⁷ "Ўзбекистонда жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида". Т.Академия. 2005 й. 274 бет

2. Xorijiy intellektual, moliyaviy, moddiy resurslar va xorijiy boshqaruv sistemasi va texnologiyasini jalb etish va qo‘llash edi¹⁸.

2 chaqiriq Oliy Majlis 2 sessiyasida (2000 yil may oyi) O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi¹⁹.

Bundan tashqari, 1996 yilda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida (1995 yil) va boshqa shu kabi muhim xujjatlar qabul qilindi. Mana shunday nazariy va amaliy qoidalar natijasi o‘laroq, bugungi kunda davlatimiz mustaqilligini 170 ga yaqin mamlakat tan oldi. Ularning 120 nafari bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan. O‘zbekistonda 43 davlat va 70 ta yirik xalqaro tashkilotlarning missiyalari akkredetatsiya qilingan. O‘z navbatida, O‘zbekiston 40 dan ortiq yirik tashkilotlar hamda 500 dan ortiq xalqaro huquq subyektlari bilan hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston fuqarolari tomonidan xorijiy davlatlarda 180 ta korxona va vakolatxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston 34 ta davlat bilan “Investitsiyalarni himoyalash va rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi shartnomani imzolagan.

Shunday qilib, hozirgi kunda O‘zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egalladi va Markaziy Osiyodagi yetakchi davlat sifatida e‘tirof etilmoqda. Bunday obro‘ – e‘tibor tarixiy davlatchiligimiz, ma‘naviyatimiz va oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizga hamohangdir. O‘zbekistont o‘zining tinchliksevar, barqarorlikka asoslangan tashqi siyosatini izchil davom ettiraveradi. Buning uchun yetarli siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy imkoniyatlari mavjud.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq, prezident I.Karimovrahbarligida tashqi siyosatning ustivor yo‘nalishlari va asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Mafkuraviy qarashlardan qat’iy nazarhamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
2. Davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini xurmat qilish;
3. Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
4. Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
5. Inson huquqlari va erkinligini xurmatlash;
6. Ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umume‘tirof etgan qoidalari va normalarining ustivorligi;
7. Davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlikning ustunligi;

¹⁸ Э.Нуриддинов. “Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы”. Т. Чўлпон. 2002 й. 39 бет

¹⁹ Ўша асар, 40 бет

8. Tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

9. Tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlanish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik kabilardir.

Bu tamoyillarga O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida 17 moddasida belgilangan qoidalar asos qilib olingan²⁰.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ma'no - mazmuni va maqsadi bitta – u ham bo'lsa, O'zbekiston manfaatidir. Va prezident I.Karimov “o'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” nomli asarida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining konsepsiyasi to'g'risida, tashqi siyosatning huquqiy negizi va uni amalga oshirish vositalari haqida to'xtalib o'tgan²¹.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining strategik yo'nalishiga asos qilib olingan qoidalar, uning ustivor maqsadlari va mintaqaviy yo'nalishlari, xususiyatlari negizida respublikaning milliy manfaatlari o'z ifodasini topgan.

Tashqi siyosiy faoliyat uchun huquqiy negiz yaratish ustivor vazifa hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Xalqaro munosabatlarni o'rnatish tartibini belgilovchi yangi huquqiy xujjatlar ishlab chiqildi;
2. Sobiq Ittifoq ishtirokchi bo'lgan xalqaro huquqiy xujjatlar muammosi respublika manfaatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi;
3. O'zbekistonning milliy manfaatlarga mos tushadigan xujjatlar ratifikatsiya qilindi²².

Davlat manfaatlari uning tashqi siyosiy faoliyatini belgilaydi. Shu jixatdan O'zbekistonning tashqi siyosiy manfaatlari xalqaro aloqalarni rivojlantirayotgan, uning tuzilmalari va faoliyatini belgilab berayotgan kuchdir. Barcha davlat va xalqaro tashkilotlar bilan aloqa qilishda davlatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqiladi. Tabiiyki, bunda sheriklarimiz manfaatlari, ular olib borayotgan tashqi siyosatning ustivor yo'nalishlari hisobga olinishi zarur. Zero, busiz tashqi siyosatni tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekistonni xalqaro tashkilotlar va davlatlararo uyushmalar faoliyatidagi ishtiroki respublika tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu tashkilotlar jahon hamjamiyatiga kirish, xo'jalik aloqalarini o'rganish, ekologik muammolarni hal etish, ilmiy - texnikaviy hamkorlikni rivojlantirishda katta yordam bermoqdalar.

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida, uning ichki va tashqi siyosatining rivojlanishida albatta, MDH va unga kiruvchi davlatlar bilan hamkorlik muhimdir.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, 17 модда

²¹ И.Каримов. “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли”. Т.Ўзбекистон. 1992 й. 22 бет

²² “Ўзбекистонда жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилиш йўлида”. Т.Академия. 2005 й. 278 бет

- “Davlatlararo munosabatlar asosiy shakllaridan bu, alohida mintaqalardagi birlashgan davlatlar guruhi yoki mintaqada o‘zidan ma’lum bir hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan mintaqaviy tashkilotlararo ittifoqlar majmui hisoblanadi. Ularga MDH, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy hamdo‘stligi misoldir”²³.

Mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishi ma’lum bir davlat uchun alohida o‘rin tutadi. Bunga juda ko‘plab misollar keltirish mumkin. MDH ham O‘zbekiston uchun muhim mintaqaviy hamkorlikni vujudga keltiruvchi hamdo‘stlik edi.

- “Mintaqaviy barqarorlik, mintaq ko‘lamida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini hal etishda ilgari sovet ittifoqi tarkibiga kirgan mamlakatlar o‘rtasida vujudga kelayotgan munosabatlar alohida o‘rin tutadi”²⁴.

... Hamdo‘stlik mamlakatlarining hududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog‘langanligigina emas, balki chuqur tarixiy ildizlar, madaniy ma’naviy aloqalar katta tarixiy davr mobaynida xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo‘lmoqda. Mamlakatlarimiz xalqlarining yaqinlashuvi tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik sovet ittifoqi mavjud bo‘lganligidan qat’iy nazar hamma vaqt bo‘lib kelgan. Bu xalq bo‘lib, sun’iy ravishda jorimy etiladigan siyosiy integratsiyadan farqli o‘laroq, haqiqiy integratsiyadir.

... Biz uchun masalaning mohiyati mustaqillik yoki integratsiyani tanlash emas, balki bu ikki yo‘nalishni uyg‘unlashtirishdan iborat. Biz MDHni haqiqiy mustaqil suveren davlatlar integratsiyasi sifatida ko‘rishni istar edik²⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov MDH doirasida hamkorlik faqat tomonlarning teng huquqli hamkorligiga qurilishi, o‘rnatilishi lozimligini ko‘p bora ta’kidlab o‘tgan edi.

MDH – sobiq SSSRning ayrim respublikalari tomonidan tuzilgan. 1991 yil 8 dekabrda Minskda Belorussiya, Rossiya va Ukraina tomonidan MDHni tuzish to‘g‘risida bitim imzolanadi. 1991 yil 21 dekabrda Almata kengashida bitimga, bayon va deklaratsiya imzolanadi. Unda sobiq SSSRning 12 mamlakati ishtiroki kuzatildi. Iqtisodiy integratsiyaning asosiy maqsadi - MDH a‘zolarining umumiy strategik manfaatlarini uyg‘unlashtirishdan iborat edi²⁶.

Oliy darajadagshi manfaatlarga mos, suveren va bozor munosabatlariga asoslangan integratsiyani chuqurlashtirish masalalariga quyidagilar asos bo‘ldi:

- 1993 yil 22 yanvarda MDH davlatlarining Oliy kengashi tomonidan qabul qilingan, tashkiliy va amaliy asoslarini belgilovchi hamdo‘stlik nizomi;
- Erkin savdo makoni tashkil etish to‘g‘risidagi kelishuv;

²³ А.Касимов, И.Васькин. “Основные направления внешней политики Республики Узбекистан”. Т.Ўзбекистон. 1994 й. 30 бет

²⁴ И.Каримов. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. Т.Ўзбекистон. 1997 й. 311 бет

²⁵ Ўша асар, 312 бет

²⁶ С.В.Фомышин. “Международные экономические отношения”. М.Юркнига. 2004 й. 108 бет

- Ishlab chiqaruvchi, tijorat, kredit - moliyaviy, sug'urta va transmilliy birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirishdagi hamkorlik haqidagi kelishuv;
- Kelishilgan, monopoliyalarga qarshi siyosat olib borish haqidagi shartnoma;
- Investitsion faoliyat va boshqa sohalardagi hamkorlik haqidagi kelishuv;
- 1994 yil dekabrda MDH davlatlari xo'jalik munosabatlarini yo'nalishini kuchaytirish maqsadida tashkil etilgan davlatlararo iqtisodiy qo'mita.²⁷

Almata shahridagi bayonotda, ishtirokchi davlatlar, munosabatlar, tashqi siyosatni umume'tirof etgan xalqaro huquq normalariga muvofiq yo'lga qo'yishni kelishib olgan edilar. Shu tufayli ham O'zbekiston ushbu hamdo'stlik g'oyasini qo'llab – quvvatlab, ta'sischi qatoridan joy oldi.

Hamdo'stlik ta'sischi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda, qurollanish va qurolli kuchlarni qisqartirish masalalarida o'zaro hamkorlik qilish to'g'risida bayonot berdilar. Tomonlar, o'zlarini BMT tamoyillari va Xelsinki xujjatlariga sodiqliklarini ta'kidladilar²⁸.

Davlatlararo iqtisodiy qo'mita ma'lumotlariga qaraganda, MDH davlatlarining sanoat salohiyati jahon mamlakatlari salohiyatining 10%ni, tabiiy resurslar zaxiralarining 25%ni, eksport salohiyati esa 45%ni tashkil etadi. MDH davlatlarining fan – texnika salohiyati 1999 yilda 500 milliard dollarni tashkil etdi²⁹.

Tan olish kerakki, MDH boshqa iqtisodiy guruhlar qatorida o'ziga xos taraqqiyot yo'liga ega degan xulosaga kelinsa xato bo'lmaydi.

MDHning asosiy organlari	
Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi	Ma'lum bir davrda
Davlat boshliqlari kengashi	Tashqi ishlar vazirlari kengashi
Hukumat rahbarlari kengashi	Kollektiv xavfsizlik kengashi
Iqtisodiy ittifoq xalqaro iqtisodiy qo'mitasi	Mudofaa vazirlari kengashi
Ijrochi kotibiyat	
Parlamentlararo assambleya	
“Mir” davlatlararo teleradiokompaniyasi	
Boshqa organlar	

O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatida nafaqat mintaqaviy integratsiyalashuv yo'lidan, balki ikki tomonlama o'zaro hamkorlikni amalga

²⁷ Ўша асар, 109 бет

²⁸ А.Касимов, И.Васькин. “Основные направления внешней политики Республики Узбекистан”. Т.Ўзбекистон. 1994 й. 31-32 бетлар

²⁹ Ўша асар, 110 бет

oshiradi. Xalqaro munosabatlarning bu shakli, mamlakatimiz tashqi siyosatida muhim o‘rin tutadi. Manfaatli hamkorlikni kuchaytirish, har tomonlama chuqurlashtirish taraqqiyotning muhim omillaridandir. Shu tufayli MDH davlatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda Rossiya Federatsiyasi bilan ko‘p tomonlama va teng huquqli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish muhimdir³⁰.

- “O‘zbekistonning MDH davlatlari bilan o‘zaro munosabatlaridagi eng muhim masala suveren Rossiya bilan teng huquqli aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash hamda uning potensialiga tayanishdir. O‘zimizning ichki va tashqi siyosatimizni belgilar ekanmiz, shuni hisobga olmaslik mumkin emaski, 70 yildan ko‘proq vaqt mobaynida O‘zbekiston va Rossiya sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lib, hayotning barcha sohalarida iqtisodiyot va madaniyat sohalarida bir – biri bilan chambarchas bog‘langan. Bu aloqalarning ildizlari yana ham olisroq o‘tmishga borib taqaladi. Rossiyaning O‘zbekiston hayotiga, uning taqdiri va kelajagiga real ta’sirini e’tiborga olgan holda hamkorligimizning ahamiyati yetarli darajada katta ekanligini xolisona e’tirof etish kerak”³¹.

O‘zbekiston va Rossiyani hayotning turli sohalarida o‘zaro manfaatlar uyg‘unligi bog‘lab turadi. Ikki o‘rtadagi aloqalar ikki tomonlama va MDH doirasida rivojlanmoqda. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlik jarayonlarini o‘zaro bog‘liqligi dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa masalalarni hal etishda muhim o‘rin tutadi.

Munosabatlarimizning muhim tomonlaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni saqlashdir. Bu omil o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ma’lumki, Afg‘onistonda bir necha yil davom etgan fuqarolar urushi mintaqamiz mamlakatlariga tahdid solmasdan qolmasdi.

- “O‘zbekiston o‘zining Afg‘oniston bilan chegaradosh hududlari xavfsizligini ta’minlashda zarur imkoniyatlarga ega (165 km). Shu bilan birga, Tojikiston bilan chegaradosh bo‘lganligi sababli, Rossiya tomonidan qo‘riqlanadigan Tojik – Afg‘on chegarasi masalasi ham O‘zbekiston uchun muhim ahamiyati bor. Shu tariqa Rossiya va O‘zbekistonda MDHning janubiy sarhadlarini qo‘riqlashda o‘zaro obyektiv asoslar mavjuddir”³².

Mamlakatlarning o‘zaro hamkorligi ko‘p qirralidir. Rossiya va O‘zbekiston iqtisodiy sohada ayniqsa bir – biri bilan manfaatli hamkorlik tarafdoridir. O‘zbekiston MDH doirasida Rossiya bilan savdo munosabatlarida 4 – o‘rinni egallaydi (Ukraina, Qozog‘iston va Belorussiyadan so‘ng).

³⁰ А.Касимов, И.Васькин. “Основные направления внешней политики Республики Узбекистан”. Т.Ўзбекистон. 1994 й. 65 бет

³¹ И.Каримов. “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли”. Т.Ўзбекистон. 1992 й. 30 – 31 бетлар

³² Р.Мукимджанова. “Россия и Узбекистан: некоторые аспекты и перспективы взаимоотношений”. «Россия и мусульманский мир».1999 й. №7 78 бет

Lekin iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish doim muhim masala bo'lib kelgan.

- "O'zbekiston iqtisodiyotida Rossiyaning ishtiroki ochiq - oydin ko'rinib turidiki, yetarli emas.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning turli sohalarida 193 ta qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan. Rossiya kapitalining yirik masshtabda Respublika iqtisodiyotidagi ishtiroki "Logovaz" kompaniyasini Andijondagi "UzDEUAvto" zavodi qurilishiga ajratgan 60 million dollar miqdoridagi kapitalidir. (Loyihani 11%). Bunda ushbu korxona avtomobillarini Rossiya bozoridagi reklama, texnik xizmat ko'rsatish va savdosini amalga oshirish huquqini olish ko'zda tutilgan"³³.

Bundan ko'rinadiki, Rossiyaning manfaatlari ham O'zbekiston iqtisodiyotiga qiziqishi doim kuzatilgan. Albatta, bu omil mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishiga o'ziga xos turtki beradi.

- "... Markaziy Osiyoda Rossiya nafaqat ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, balki MDH doirasida ham ko'p tomonlama hamkorlikni saqlashga harakat qilmoqda. Bundan tashqari, xalqaro umume'tirof etilgan tamoyillarga asoslangan holda, yirik masshtabli erkin savdomakonini shakllantirishni tugallashni ko'zda tutadi

... Integratsiya jarayonlaridan faqat Turkmaniston, (shunday bo'lsada u tuzilajak YevroOsiyo gaz konsorsiumiga kiradi) O'zbekiston va Ozarbayjon chetda qolmoqda. Kelajakda so'nggi ikki davlat YANMga qo'shilishlari mumkin"³⁴.

Rossiya Federatsiyasi Markaziy Osiyo davlatlari va shu jumladan O'zbekistonga ham o'zining manfaatli qiziqishi ko'p sohalarda ko'rinadi. Albatta, har bir davlat o'z tashqi siyosati va o'zaro munosabatlarini avvalo o'zining manfaatlaridan kelib chiqib amalga oshiradi. Albatta, bunda har bir mamlakat xalqaro huquq normalari asosida ish ko'radi.

Rossiyaning Markaziy Osiyo respublikalari va O'zbekistonga qiziqishini quyidagi jabhalarda ko'rishimiz mumkin:

- Mintaqa respublikalariga ijtimoiy va texnikaviy yordam ko'rsatish. Misol uchun, O'zbekiston o'z GRESlarini va sho'rolar davrida barpo etilgan (rossiyalik mutaxassislar tomonidan) xalq xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilishga ehtiyoji bor. Bularni hal etish nafaqat Markaziy Osiyo aholisini ish bilan ta'minlash, balki Rossiya korxonalari ishlab chiqarish quvvatini oshirishga, Rossiyaning, o'zbek korxonalari hissadorlik jamiyatlaridagi ishtiroki, ularning rentabelligini oshirishga xizmat qiladi³⁵.

³³ С.Бирюков. "Политика России в отношении Узбекистана". «Восток». М.2001 й. №1 94 бет

³⁴ Центральная Азия и Кавказ. 2005 й. №2 131 бет

³⁵ Ўша жой, 132 бет

- Rossiyani Markaziy Osiyo respublikalari bilan ijtimoiy va madaniyat sohasidagi munosabatlarining faollashuvi o‘zaro hamfikrlilikka asos bo‘lishi, o‘z navbatida ushbu davlatlarning iqtisodiy - siyosiy aloqalarini kuchayishiga zamin yaratadi³⁶.

O‘zbekiston Respublikasi Rossiya Federatsiyasi bilan iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy – texnikaviy munosabatlarining aniq sistemasiga ega. O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosati yo‘nalishi uning Markaziy Osiyodagi qulay geografik holati bilan bog‘liqdir. YA’ni rivojlanayotgan iqtisodiyoti, yirik tabiiy resurslar mavjudligi, avtomobilsozlik, elektronika, informatika va biotexnologiya kabi yangi sohalarning o‘sishi va boshqalar³⁷.

Umuman olganda, har ikki davlatning turli sohalarda o‘zaro manfaatdorligi aniq – ravshan ko‘rinib turibdi. O‘zbekiston uchun Rossiya yagona yog‘och va yog‘och mahsulotlarini yetkazib beruvchi hamkordir. Respublikada Rossiyada ishlab chiqarilgan mashinalar va texnikaning katta miqdori mavjud. Ularni ish holatida saqlash o‘z navbatida Rossiya bilan aloqalarni uzmaslikni talab etadi³⁸.

Markaziy Osiyo davlatlarini 2000 yildagi Rossiya bilan tovar aylanmasi 7 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Bu jami Rossiya tashqi savdosining 5%ni tashkil etdi. O‘zbekiston Rossiya korxonalari uchun paxta yetkazib beruvchi asosiy hamkor bo‘lib qolmoqda. Ularning 90% ehtiyojini O‘zbekiston qondiradi.

Albatta Rossiyadagi 1998 yilgi iqtisodiy inqiroz tomonlararo savdo – iqtisodiy aloqalarga ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekiston importiga bo‘lgan talabning tushib ketishi, tovarlarning boshqa xorij davlatlariga eksport qilinishiga olib keldi. Inqiroz, O‘zbekistondan mahsulot yetkazib berish narxlarini 16,4% arzonlashishiga olib keldi. Inqiroz natijasida O‘zbekiston eksport daromadlari 150 – 160 million AQSH dollariga kam bo‘ldi.

2001 yilda Rossiyaning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari yaxshilandi. YAIM 5,2% ga o‘sd. O‘rtadagi tovar aylanmasi 1999 – 2001 yillarda 38% ga oshdi***.

Ikki o‘rtada yangi yo‘nalishli aloqalar rivojlanmoqda. Yangi qo‘shma korxonalar, xoldinglar, moliyaviy guruhlar paydo bo‘lmoqda. Rossiya va O‘zbekiston samalyotsozlik sohasidagi hamkorlikni kuchaytirmoqdalar. Kelajakda esa bu kabi istiqbolli munosabatlar yanada rivojlantiriladi. Rossiya va O‘zbekiston munosabatlarini istiqboldagi taraqqiyotida ko‘p muhim omillar mavjud.

1. Har ikki mamlakat biron – bir hududiy yoki mintaqaviy kelishmovchilik va raqobatdan xolidir.

³⁶ Ўша жой, 132 бет

³⁷ А.Куртов. “Россия – Узбекистан: тернистый путь к согласию”. «Россия и мусульманский мир». 1999 й. №9 90 бет

³⁸ Р.Мукимджанова. “Россия и Узбекистан: некоторые аспекты и перспективы взаимоотношений”. «Россия и мусульманский мир». 1999 й. №7 80 бет

2. Tashqi savdoda, mintaqaviy bozorlarda turli tovarlar bo'yicha keskin raqobat kuzatilmaydi.
3. Xom – ashyo masalalari bo'yicha ikki tomon o'zaro bir - biriga bog'langan.
4. Har ikki davlat MDH va 2006 yil fevralidan YervoOsiyo iqtisodiy hamjamiyati a'zosi. Bu hol ularni ikki tomonlama hamkorligiga yanada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatlarimizning aloqalarining rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarilib bormoqda. Bunda o'zaro xurmat, hamfikrlilik, yakdillilik a'loiy o'rinni egallaydi. Turli sohalardagi manfaatli hamkorligimiz o'z navbatida xalqlarimizning do'stligi, birdamligiga uyg'unlashadi va mamlakatlarimizning har tomonlama taraqqiyotiga xissa qo'shadi.

I.2. Davlatlarimizning demokratik taraqqiyot sharoitida savdo – iqtisodiy hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishining o‘qitilishi. (1991 – 2010yy.)

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalaridagi faoliyatini, munosabatlarini va xalqaro maydondagi maqomini mustahkamlash uni oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Shuning uchun ham O‘zbekiston MDH va uning doirasida Rossiya Federatsiyasi bilan bevosita, ko‘p tomonlama munosabatlarini mukammallashtirish yo‘lidan bormoqda. O‘zbekiston hamdo‘stlik g‘oyasini qo‘llab – quvvatladi, uni ta’sischilaridan biri bo‘ldi. O‘zbekiston hamdo‘stlik muassasalari – Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita, Davlatlararo bank va boshqa organlarni shakllantirish va rivojlantirishda faol ishtirok etdi. MDH doirasida Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy savdo iqtisodiy va boshqa shartnoma hamda bitimlar imzolangan. Bu imzolangan hujjatlar o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkam negizini vujudga keltiradi. O‘z navbatida Rossiya Federatsiyasini manfaatli aloqlar o‘rnatishga bo‘lgan ehtiyojiga salmoqli xissa qo‘shadi.

Tashqi siyosatimizning asosiy strategik yo‘nalishlarda biri ham Rossiya Federatsiyasi bilan aloqalarni kengaytirish hisoblanadi.

“Beshinchidan, bizning mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatida Rossiya Federatsiyasi bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlash va chuqurlashtirishni rivojlantirishga katta e’tibor bermoqda. O‘zbekiston va Rossiya – umumiy tarixiy, madaniy, iqtisodiy manfaatlar birlashtiradigan strategik hamkorlardir. Ikki o‘rtadagi o‘zaro aloqalar yangi jabhalarda kengaymoqda. Sheriklik asosida iqtisodiy sohadagi munosabatlar rivojlanmoqda. Asosiy o‘rinni jinoyatchilik, xalqaro terrorizm va narkosavdoga qarshi kurashish masalasi turadi”³⁹.

Oyoqqa mustahkam turib olish, iqtisodiyotga jo‘shqin tus berish, xalqimiz va o‘lkamizdagi mavjud imkoniyatlardan to‘la – to‘kis foydalanish uchun, ijtimoiy - siyosiy barqarorlik, chegaralarning xavfsizligini ta’minlash zarur. Respublika ichkarisida kuch – qudratimiz ishonchli va mustahkam bo‘lishi kerak. Xonadonimizni avaylab asrash, mavjud chegaralarni saqlab qolish uchun qudratli potensialga ega bo‘lgan Rossiya tomonidan madad zarur⁴⁰.

Iqtisodiy muammolarni hal etishda, tanglikdan chiqish yo‘llarini belgilashda ham o‘zaro ta’sir g‘oyat katta. O‘zbekistonning iqtisodiyotini sog‘lomlashtirish uchun Rossiyadan respublikaga hayotiy muhim resurslar – metall, neft, yog‘och va taxta, transport vositalari, texnologiya uskunalari va boshqa mollar uzluksiz yetkazib berilishi alohida ahamiyatga ega. Ayni paytda O‘zbekiston Rossiyaga

³⁹ Э.Нуриддинов. “Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Европы”. Т. Чўлпон. 2002 й. 46 бет

⁴⁰ И.Каримов. “Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли”. Т.Ўзбекистон. 1992 й. 31 бет

paxta tolasi, kunjara, xom ipak, meva – sabzavot mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni yetkazib berayotgan asosiy respublikadir. O‘zbekiston respublikasi prezidenti I.Karimov mustaqillikni dastlabki kunlaridanoq Rossiya bilan hamkorlik bizning oldimizda turgan muammolarni yechadigan omillardan biri ekanligini anglagan va o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tgan edi. mana shunday dolzarb omillar natijasida O‘zbekiston Respublikasi qudratli va katta salohiyatga ega bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va uni rivojlantirish yo‘lidan bordi.

Davlatlarimiz oldida turgan murakkab masalalarni yechish, muammolarni hal qilish yuqorida ta’kidlaganimizdek ikki tomonlama hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni talab etadi. Davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan davrayoq yo‘lga qo‘yilgan edi. tomonlar hamkorlikni nafaqat davlat miqiyosida, balki alohida mintaqalararo shaklda ham yo‘lga qo‘yishdi.

1989 – yil 11 – dekabrda O‘zbekiston va Rossiyaning Leningrad va Leningrad oblastlari o‘rtasida iqtisodiy, ilmiy texnikaviy va madaniy hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida bitim imzolanadi. Bu bitim 1990 yil yanvaridan kuchga kirdi⁴¹.

Ushbu bitimda konkret iqtisodiy masalalarni hal etish uchun manfaatli aloqalarni yo‘lga qo‘yish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, xalq iste’mol tovarlarini ishlab chiqarishni ko‘paytirish, ilmiy va madaniy sohalardagi xizmatlarni kengaytirish va rivojlantirish, turizm sohasini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash sistemasini takomillashtirish masalalari ko‘zda tutilgan edi. O‘zbekiston Ministrlar Sovetining 1990 yil 10 yanvardagi yig‘ilishida ta’kidlangan ediki ushbu bitim nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy, balki siyosiy ahamiyatga egadir.

Ushbu bitim xalq xo‘jaligini boshqaruvini rivojlantirishda sanoat qurilishida xalq ta’limi va madaniy sohasida, agrosanoat kompleksini va hududiy hamkorlik sohalarida faoliyat ko‘rsatishi ko‘zda tutildi⁴².

Mamlakatlarimizning elektronika sohasida faoliyat ko‘rsatadigan ikkita birlashmasi Toshkentning “Foton” va Leningradning “Svetlana” korxonalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi olimlari tomonidan ishlab chiqilgan oyna va plyonka yordamida yorug‘lik bilan elektr tokini hosil qilishtexnologiyasi istiqbolda foydalanish yuzasidan amaliy ishlar olib borishni kelishib oldilar. “Foton” fotoelementlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. “Svetlana” mikrosxemalar bo‘yicha ish olib bora boshladi. Ikki o‘rtadagi hamkorlik natijasida har bir tomon tez suratlar va muddatlarda kalkulyatorlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutildi. Bu borada shuni ta’kidlash joizki, Neva shaharlaridagi 20 dan ortiq

⁴¹ Г.В.Мачин, Г.Н.Назаралиева. “Равноправное сотрудничество Узбекистана с Россией”. ОНУ №2 1993 й. 8

бет

⁴² Ўша асар, 9 бет

korxona sheriklari “Foton” markasini yaxshi biladilar va hamkor sifatida xurmat qiladilar⁴³.

Ushbu bitimga ko‘ra 1990 yil fevral oyida “Leningrad metal zavodi” birlashmasi Yangi Angren GRESining oltinchi bloki uchun trubinalar yetkazib berdi. Tolimarjon GRESi birinchi bloki uchun 800 ming kvt quvvatiga ega bo‘lgan xuddi shunday trubina barpo etish rejalashtirildi⁴⁴. Rossiyaning 12 korxonasi (Kirov zavodi, Avrora, Ijorsk, Baltika va boshqalar) Toshkent viloyatining ikki jamoa xo‘jaligida issiqxonalar qurish va ularni maxsus issiqlik generatorlari bilan jixozlashga yordam berish majburiyatini olishdi⁴⁵. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng dastlabki oylardanoq bu kabi hududiy o‘lkalar bilan munosabatlarini rivojlantirish yo‘lidan bordi. Toshkent shahrida 1991 yil 7 oktabrida O‘zbekiston Respublikasi va Sankt Peterburg shahri o‘rtasida imzolangan “Savdo – iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish to‘g‘risida”gi shartnoma o‘zaro aloqalarni keyingi rivoji uchun muhim omil bo‘ldi. Muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston prezidenti I.Karimov va Sankt Peterburg meri A.Sobchaklar, tomonlar munosabatlarini o‘zaro teng manfaatlar va yaxshi qo‘shnichilik asosida olib borishni ta’kidladilar⁴⁶.

Prezident I.Karimov va A.Sobchaklar O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Sankt Peterburg ma’muriyati o‘rtasidagi muzokaralar to‘g‘risidagi imzolangan qo‘shma axborotni 13 oktabrda e’lon qilishdi⁴⁷.

1991 yil 26 oktabrida Moskva shahrida O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi tomonlarning savdo – iqtisodiy hamkorlikning tamoyillari haqidagi kelishuv muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlat rahbarlari I.A.Karimov va B.N.Yelsin ikki davlatlarni tarixan bog‘langan ko‘p tomonlama hamkorligini rivojlantirish zarurligini ta’kidladilar. Rossiya prezidenti B.Yelsin bitim haqida gapirar ekan xalqlarimizning qayerda bo‘lmasin teng huquqligini ta’kidlab o‘tdi. Bundan tashqari, u Rossiya eksportining O‘zbekistonga kamligi haqida to‘xtaldi. Eksport hajmini oshirish hujjatlarda o‘z aksini topganligini qayd qildi. Prezident I.A.Karimov “Iqtisodiyotimiz istiqbolini Rossiyasiz, uning yordamisiz va tabiiy boyliklarsiz ko‘rmasligini, xalqlarimiz o‘rtasiga raxna soluvchi, do‘stligimizga putur yetkazuvchi hech qanday kuch yo‘q” - deb aytib o‘tgan edi⁴⁸.

Munosabatlarning bunday rivojlanishi xalqimizning manfaatlariga to‘liq mos kelishini prezidentimiz I.Karimov ta’kidlab o‘tgan edi.

⁴³ Ўша асар, 9 бет

⁴⁴ Г.В.Мачин, Г.Н.Назаралиева “Равноправное сотрудничество Узбекистана с Россией” ОНУ №2 1993 й. 9 бет

⁴⁵ Ўша жой, 9 бет

⁴⁶ Правда Востока. 1991 й. 9 октябрь

⁴⁷ В.Тюриков, Р.Шогуломов. “Мустақил Ўзбекистон Республикаси”. Т.Ўзбекистон. 1998 й. 7 бет

⁴⁸ Правда Востока. 1991 й. 29 октябрь

“O‘zbekiston aholisining ko‘pchiligi Rossiya bilan do‘stlikni saqlab qolishni istayotganligini hisobga olish zarur. Sobiq Markaz bilan emas, balki Rossiya bilan do‘stlikni saqlab qolishni hohlashmoqda”⁴⁹. Shu maqsadda ikki o‘rtada munosabatlar rivojlanishi keng ahamiyat kasb etmoqda.

1992 yil 20 mart kuni Kiyev shahrida O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish to‘g‘risida protokol imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi munosabatlar uzoq muddatli strategik ahamiyatga egadir. Ikki mamlakat rahbarlari o‘rtasidagi doimiy ochiq muloqatlar va bir – biriga ishonchli munosabatlar qo‘llab - quvvatlanadi⁵⁰. Ikki o‘rtadagi o‘rnatilgan diplomatik munosabatlar hozirgi kunga qadar bir necha yuqori bosqichlarni bosib o‘tdi. Munosabatlarni rivojlantirish xalqaro huquq normalari va ikki o‘rtada imzolangan shartnoma huquq asoslari zaminida yo‘lga qo‘yiladi. Ular quyidagilar:

- 1991 yildan hozirgi kunga qadar 158 ta xalqaro shartnomalar va 40 dan ortiq boshqa xujjatlar (mintaqalararo hamkorlik to‘g‘risidagi xujjatlarni ham hisobga olganda) imzolangan.

- 1992 yilning 30 mayida imzolangan O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi Davlatlararo munosabatlar, do‘stlik va hamkorlik asoslari haqidagi shartnoma va 1998 yil 12 oktabridagi imzolangan va O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida 1998 – 2007 yillardagi iqtisodiy hamkorligini mustahkamlash haqidagi bitim ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy xujjatlar hisoblanadi.

- ikki mamlakat o‘rtasida iqtisodiy sohada 40 yaqin, ijtimoiy va ilmiy - texnikaviy hamkorlik sohasidagi masalalar bo‘yicha 10 ta, harbiy hamkorlik masalalar bo‘yicha 10 ta, soliq, qonun ishlab chiqarish organlari va huquqiy munosabatlar sohasi yuzasidan 10 dan ortiq xujjatlar imzolandi.

- Hozirgi kunda ikki davlat o‘rtasida 50 ga yaqin xujjatlar o‘rganilib chiqilmoqda.

- O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiya doirasida ikki tomonlama xujjatlarni inventarizatsiya qilish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda⁵¹.

Ushbu shartnoma huquq asoslari ikk tomon o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy asoslarini belgilab beradi. Yo‘lga qo‘yiladigan va rivojlantirish muhim bo‘lgan savdo – iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalardagi hamkorlikning istiqboli uchun zamin yaratadi.

⁴⁹ И.Каримов. “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли”. Т.Ўзбекистон. 1992 й. 32 бет

⁵⁰ Ўзбекистон – Россия муносабатлари. <http://www.lmfa.uz>

⁵¹ Ўзбекистон – Россия муносабатлари. <http://www.lmfa.uz>

1992 yil 30 maydagi Moskvada imzolangan “Do‘stlik, hamkorlik va davlatlararo hamkorlik asoslari to‘g‘risida”gi bitim ham munosabatlarimizni mustahkamlovchi poydevor bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi davlat rahbarlari ushbu imzolangan bitimdan so‘ng ta’kidladilarki:

“Asosiy masala xalqlarimiz kelajagini belgilash, manfaatli va mustahkam asosda o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va bu davlatlararo hamkorlik yaqin orada o‘z natijalarini beradi”⁵².

Ushbu bitimdan so‘ng O‘zbekiston Rossiyaga paxta xom – ashyosini yetkazib bera boshladi (Ivanovo oblastiga). Bunday oldi – berdi munosabatlari albatta har ikki tomonni o‘z ehtiyojlarini samarali qondirishi shubhasiz edi. bizga ma’lumki, Rossiya paxta xom – ashyosiga juda katta ehtiyoj sezadi. Uni xorij mamlakatlaridan import qilish uning uchun O‘zbekiston paxtasini olishdan foydaliroq deb aytib bo‘lmaydi.

Ushbu shartnomada har ikki davlat fan, ta’lim va texnika sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish ham ko‘zda tutilgan edi. Bunda ilmiy tekshirish institutlari, ta’lim muassasalarini aloqasini yo‘lga qo‘yish, kadrlar tayyorlashda hamkorlik qilish va boshqa masalalar ham nazarda tutildi⁵³.

Prezident Islom Karimov Pravda gazetasi muxbiriga bergan intervyusida: “O‘zbekiston Rossiya bilan hamkorliksiz o‘z kelajagi va istiqbolini ko‘rmaydi. Rossiya biz uchun – chegaralarimiz daxlsizligi, mintaqadagi barqarorlik va tinchlikning kafolatidir” – deb ta’kidlab o‘tgan edi⁵⁴.

Ushbu bitimda hukumatlararo delegatsiyalarning muntazam ravishdagi uchrashuvlari va ular tomonidan hal etilishi kerak bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqish ham ko‘zda tutilgan edi.

Hukumatlararo uchrashuvlarning boshlanishi 1992 yil 22 iyulda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadi. Rossiya Federatsiyasi bosh vazirining o‘rinbosari A.Shoxin boshchiligidagi Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi hukumat delegatsiyalarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Muzokaralar yakuniga ko‘ra O‘zbekiston – Rossiya aloqalarini rivojlantirishga tegishli bo‘lgan qo‘shma axborot imzolanadi. Shu kuni delegatsiya a’zolarini respublikamiz prezidenti I.Karimov qabul qildi⁵⁵. Har ikki tomon, imzolangan xujjatlar yuzasidan ekspertlar guruhini tuzish zaruriyati mavjudligi va uni zudlik bilan tuzish kerak degan xulosaga keldilar. Tomonlar Toshkent shahrida Rossiya Federatsiyasi elchixonasini ochish haqida kelishib oldilar.

⁵² Ўзбекистон овози. 1992 й. 22 июль

⁵³ Г.В.Мачин, Г.Н.Назаралиева. “Равноправное сотрудничество Узбекистана с Россией”. ОНУ №2 1993 й. 11 бет

⁵⁴ Ўша жой, 11 бет

⁵⁵ В.Тюриков, Р.Шогуломов. “Мустақил Ўзбекистон Республикаси”. Т.Ўзбекистон. 1998 й. 48 бет

O'zbekiston Respublikasini Rossiya Federatsiyasidagi birinchi favqulodda va muxtor elchisi etib Y.A.Abdullayev tayinlandi.

Hukumatlararo delegatsiya a'zolarining diqqat markazida iqtisodiy hamkorlik masalalarini rivojlantirish va mustahkamlash bo'ldi. Iqtisodiy islohatlarning keyingi yo'nalishi turli tovarlarni o'zaro yetkazish haqidagi kelishuv nazorati haqida ham bir bitimga kelindi⁵⁶.

Masalalarni ko'rib chiqish chog'ida tomonlar O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida yagona pul krediti siyosati haqidagi to'xtamga kelindi. Davlatlar o'rtasidagi ayriboshlanadigan mahsulotlarning tannarxi masalasi ko'rib chiqildi va shu bilan birga 1993 yilgi savdo – iqtisodiy hamkorlik haqidagi shartnomani tayyorlashni tezlashtirishga kelishib olindi. Muzokaralar chog'ida Orol muammosiga ham to'xtalindi. U yerdagi suv resurslaridan oqilona foydalanish tizimi haqidagi fikrlar olg'a surildi.

Tomonlar hukumatlararo delegatsiyalarning uchrashuvlarini tashkil etish, o'tkazish, davlatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega deb ta'kidlab o'tdilar.

1992 yil 13 noyabrda Moskva shahrida hukumatlarimiz o'rtasida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida 1993 yildagi savdo – iqtisodiy munosabatlarni nazarda tutgan bitim imzolanadi. Ushbu bitimga ko'ra O'zbekiston Rossiyaga 544 ming tonna paxta tolasini yetkazib berish majburiyatini oldi. Rossiyadan O'zbekistonga 4 million tonna neft, 150 ming tonna benzin yoqilg'isi, 71 ming tonna dizel yoqilg'isi, 800 ming tonna mazut keltirilishi kerak edi⁵⁷.

1993 yil 18 mart kuni Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri V.Chernomirdin Toshkent shahrida respublikamiz hukumati bilan ikki tomonlama savdo – iqtisodiy munosabatlar va O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi imzolangan hukumatlararo bitimlardagi masalalarni bajarilishi yuzasidan muzokaralar olib bordi⁵⁸.

19 mart kuni esa O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov va V.Chernomirdinni qabul qildi. Ikki tomon moliya, kredit, madaniyat, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot almashish, geodeziya va kartografiya, avtotransport sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish haqidagi bitimni imzolashdi⁵⁹.

Har ikki tomonning amaliy uchrashuvlari va ularning natijalarining samarali bo'lishida davlatlarimizda faoliyat ko'rsatayotgan ishbilarmonlar o'rtasidagi aloqalarning rivoji muhim rol o'ynaydi.

1992 yil 25 – 29 sentabr kunlari Toshkent shahridagi seminar kengashda O'zbekiston tadbirkorlar uyushmasi, O'zbekiston davlat va mulk qo'mitasi,

⁵⁶ Правда Востока. 1992 й. 25 июль

⁵⁷ Правда Востока. 1992 й. 19 ноябрь

⁵⁸ Правда Востока. 1993 й. 20 март

⁵⁹ В.Тюриков, Р.Шогуломов. "Мустақил Ўзбекистон Республикаси". Т.Ўзбекистон. 1998 й. 86 бет

Rossiya ishbiarmonlar ittifoqi, Qo'shma korxonalar Moskva assotsiatsiyasi, O'zbekiston va Rossiya prezidenti devonlarining yetakchi mutaxassislari, bosh vazir o'rinbosarlari qatnashdilar. Ular birgalikda kelgusida olib boriladigan faoliyatlarining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishdi. Mamlakatimiz tadbirkorlari ushbu faoliyat turlarini rivojlantirish, investitsiya kirgizishdagi kafolatlar, investitsiyaga oid qonunchilik masalalari, xususiylashtirish, qimmatbaho qog'ozlar bozori, bozor munosabatlari holati, savdo – sotiq, buxgalteriya hisobi va boshqa masalalarni ko'rib chiqishdi. Bir – birlarining tajribalarini o'rganishga ham alohida e'tibor qilindi. Bundan tashqari, aholiga xizmat ko'rsatish, turli sohalarda ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalari bo'yicha ham fikr almashinildi⁶⁰.

Bunday tajriba almashishlar va amaliy uchrashuvlar tadbirkorlik subyektlariga:

Birinchidan, ularning ishining samarasini oshiradi;

Ikkinchidan, davlatlarning o'rtasidagi munosabatlar rivojini mustahkamlaydi.

Hamkorlikning rivojlanishining yangi bosqichlarida davlatlarimizning alohida viloyatlari bilan munosabatlari, lokal shartnomalar asosida rivojlanib bordi.

Misol uchun, 1991 yil oktabr oyida Toshkent viloyati, Rossiyaning Kemerovo oblasti va Oltoy o'lkasi bilan bitimlar tuzadi. Bunga ko'ra, Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga go'sht, un, turli sabzavotlar, kimyoviy o'g'itlar olib kelinishi mo'ljallangan. Shu yilning o'zidayoq Bekobod shahriga 50 tonna go'sht, 400 tonna kartoshka va boshqa iste'mol tovarlari yetkazib berildi⁶¹.

Muzokarlarda Oltoy o'lkasi kengashi raisi V.Konovalov: "Biz hamkorlikni endi boshlaganimiz yo'q. Bizda bu borada tajriba bor. Sizning o'lkangizga gazlamalar, shinalar, stanoklar yetkazib beramiz. O'zbekistondagi "Kompressor" zavodi bizning yoqilg'ida ishlamoqda. Paxta esa biz uchun kerakli tovar bo'lishi bilan birga 20 ming odamni ish bilan ta'minlash degani" – degan so'zlarni aytib o'tdi⁶².

Toshkent viloyati rahbariyati Oltoy o'lkasidan har yili 15 ming tonna go'sht mahsulotlari, 2,5 ming tonna kartoshka va qoramollar olishga tayyorligini bildirdi. Shu bilan birga Rossiyadagi sheriklarga 10 ming tonnadan ortiq paxta tolasi va boshqa mahsulotlar yetkazib berish aytib o'tildi⁶³.

Ikki o'rtada Oltoy traktor zavodini rivojlantirish va kelajakda u yerdan traktorlar va ehtiyot qismlar keltirish masalasi, buning uchun kerakli investitsiyalarni jalb etish to'g'risida kelishib olindi. Istiqboldagi rejalarni amalga

⁶⁰ Халқ сўзи. 1992 й. 29 сентябрь

⁶¹ Ўзбекистон овози. 1991 й. 17 октябрь

⁶² Ўша жой

⁶³ Ўша жой

o'shish uchun Toshkentda Oltoy o'lkasining vakolatxonasi, Barnaulda Toshkent viloyatining vakolatxonasini ochishga qaror qilindi.

Bunday hamkorlik aloqalari Toshkent viloyati va Rossiyaning Kemerovo oblasti misolida ham ko'rish mumkin. Toshkent va Kemerovoda savdo tashkilotlari o'z vakolatxonalarini ochdilar. Qibray sovxози, G'azalkent konserva zavodlari bilan "Ogonyok" xo'jaligi o'rtasida bevosita munosabatlar o'rnatildi. Toshkent viloyatiga yog'och, metal, ko'mir va boshqa xalq iste'moli buyumlari, radioapparatura yetkazib berila boshladi. Kemerovoliklar meva – sabzavotlar, konserva mahsulotlari olishni mo'ljallashdi. Kemerovo delegatsiyasining rahbari O.Tuleyev: "Toshkent viloyatini biz ishonchli hamkor sifatida ko'ramiz" - deb ta'kidlab o'tdi⁶⁴.

1991 yil oxirida Toshkent viloyati va Omsk, Ivanovo oblastlari o'rtasida imzolangan shartnomalar ham tomonlararo hamkorlikka ijobiy xissa qo'shdi.

1992 yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasining Farg'ona viloyati va Rossiya Federatsiyasining Kostroma oblastlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy hamkorlik to'g'risidagi 2002 yilgacha mo'ljallangan shartnoma imzolandi⁶⁵.

Bitimga ko'ra, vodiyliliklar o'z sheriklariga paxta tolasi, meva va sabzavotlar yetkazib berish majburiyatini oldilar. Rossiya Federatsiyasidan esa turli to'qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari va texnikasi va boshqa mahsulotlarni keltirish ko'zda tutildi. Tomonlar xalqlarimiz do'stligini mustahkamlashga xizmat qiladigan ijtimoiy muammolarni yechishda yordam beradigan madaniy aloqalarni o'rnatishni va mustahkamlashni kelishib oldilar.

Kostroma oblasti delegatsiyasi a'zolari Farg'ona viloyatidan so'ng Namangan viloyatiga tashrif buyurdilar. Bu tashrifdan ko'zlangan maqsad, ikki o'rtada uzoq muddatga mo'ljallangan manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish edi. Namangan viloyati hokimi B.Rafiqaliyev Kostroma oblasti rahbari bilan muzokaralar olib bordi. Rossiyalik mehmon V.Arbutov o'z so'zida Kostroma o'lkasi va uning kuchli iqtisodiy salohiyati haqida gapirib o'tdi. Albatta, Namangan viloyati bilan yo'lga qo'yilajak hamkorlik, foydadan holi bo'lmasligini ta'kidladi. Ular Namangan viloyatidan birinchi navbatda paxta xom - ashyosini import qilish asosiy masala ekanligini bildirishdi. Namangan viloyati hokimi B.Rafiqaliyev ham o'z navbatida viloyatga yog'och materiallari, DSP, DVP singari qurilish buyumlari, avtokranlar, yog'ochni qayta ishlovchi stanoklar zarurligi haqida fikr bildirdi. Har ikki tomon ham manfaatli hamkorlikni ko'zda tutuvchi bitimni tayyorlash yuzasidan ichki komissiyani tuzish haqida yagona xulosaga keldilar⁶⁶.

⁶⁴ Ўзбекистон овози. 1991 й. 17 октябрь

⁶⁵ Г.В.Мачин, Г.Н.Назаралиева. "Равноправное сотрудничество Узбекистана с Россией". ОНУ №2 1993 й. 14 бет

⁶⁶ Г.В.Мачин, Г.Н.Назаралиева. "Равноправное сотрудничество Узбекистана с Россией". ОНУ №2 1993 й. 14 бет

Umuman olganda, mustaqilligimizning dastlabki yillarida yo‘lga qo‘yilgan bu kabi hamkorlik aloqalari davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni keyingi istiqboliga qo‘yilgan tamal toshlari edi. Alohida viloyatlarimiz ham o‘z navbatida o‘lkalar manfaatidan kelib chiqib savdo - iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirib bordilar. Bu narsa albatta, xalq turmush farovonligiga o‘ziga yarasha xissa qo‘shdi.

Rossiya bilan aloqalarni rivojlantirish asta - sekin dolzarb masala ekanligi ma’lum bo‘lib bordi. O‘zbekiston va Rossiya manfaatlarining bir - biriga to‘g‘ri kelishi, qiziqishlarimizning mushtarakligi keyingi hamkorlik aloqalarimiz uchun zamin tayyorladi.

Davlatlarimizning 1992 yil 30 may va 1993 yildagi savdo – iqtisodiy munosabatlar tamoyillari haqidagi bitimlar bunga misoldir. Muzokaralar xulosasi shundan iboratki, munosabatlar xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari va BMT Nizomi, tamoyillari, inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalar, Xelsinki yakunlovchi ahdi va boshqa muhim xujjatlar asosida yo‘lga qo‘yildi⁶⁷.

Tomonlar quyidagi sohalarda teng va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga tayyor edilar:

1. Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy;
2. Yagona iqtisodiy makonni shakllantirish;
3. Bojxona sohasida;
4. Energetika, transport, aloqa sohalari boshqaruvi;
5. Yadro quroli nazorati yuzasidan yagona kollektiv xavfsizlik ittifoqini tuzish;
6. Atrof – muhitni muxofaza qilish;
7. Hududlardagi xalqlarimizning huquqlarini kafolatlash⁶⁸.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bitimlar tomonlar uchun muhim bo‘lgan jabhalardagi hamkorlikning keyingi taraqqiyoti uchun huquqiy zamin tayyorlab, bu davrdagi ushbu masalalarga doir 30 ga yaqin turli shartnoma va bitimlar imzolandi.

Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi, Tojikistonda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash jarayonining asosiy kafolati bo‘ldilar⁶⁹. Har ikki tomon ham har qanday masalalarni huquqiy asoslarda hal etdilar.

1993 yilning iyul oyida O‘zbekiston Respublikasida Rossiya Federatsiyasining Tadbirkorlar va sanoatchilar xalqaro assotsiatsiyasining prezidenti A.I.Volskiy amaliy tashrif bilan bo‘ldi. Uning tashrifidan ko‘zlangan maqsad, O‘zbekiston va Rossiya ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish, bundan tashqari assotsiatsiya va O‘zbekiston

⁶⁷ А.Касимов, И.Васькин. “Основные направления внешней политики Республики Узбекистан”. Т.Ўзбекистон. 1994 й. 66 бет

⁶⁸ А.Касимов, И.Васькин. “Основные направления внешней политики Республики Узбекистан”. Т.Ўзбекистон. 1994 й. 66 бет

⁶⁹ Ўша жой, 67 бет

ishbilarmonlari doiralari o'rtasida do'stona uyg'unlikni yuzaga keltirish edi. xalqaro assotsiatsiyaning vazifasi MDH davlatlari bilan Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy hamfikrlilikni yo'lga qo'yishdir. Bu tashkilotga MDH davlatlari, Polsha, Ruminiya, Chexiya va Slovakiya a'zodirlar⁷⁰.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov 1994 yil 2-3 mart kunlari rasmiy davlat tashrifi bilan Rossiya Federatsiyasida bo'ldi. Rossiya Federatsiyasi prezidenti B.Yelsin va Rossiya hukumati boshlig'i V.Chernomirdin bilan muzokaralarda bir qator muhim xujjatlar imzolandi. Prezidentlar qo'shma bayonot qabul qildilar. Unda hamkorligimizni yanada rivojlantirish, iqtisodiy islohatlar va demokratik o'zgarishlar yo'lidan og'ishmaslik ta'kidlandi. Bundan tashqari ushbu bayonotda Rossiya va O'zbekistonda yashayotgan etnik birliklar huquqlarini kafolatlash masalalari ham o'z aksini topdi⁷¹.

Imzolangan xujjatlar iqtisodiy sohada ulkan o'zgarishlarni amalga oshirish lozim edi. Bunda paxta xom – ashyosi, neft va neft mahsulotlariga asosiy urg'u berildi.

Imzolangan harbiy bitimda esa O'zbekiston qurolli kuchlarini moddiy texnikaviy ta'minlashning asosiy tamoyillari ko'rsatilgan. Hukumat boshliqlari o'zaro soliq sohasida, bojxona, havo tranziti haqidagi shartnomaga qo'l qo'yishdi⁷².

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi davlatlari rahbarlari muzokaralari samarali o'tdi.

Prezident Islom Karimov muzokaralar chog'ida "Biz Rossiya bilan bir xil tarixiy sharoitda yashadik.... Qolaversa, manfaatlarimiz, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy aloqalarimiz shu qadar chambarchas bog'liqki, ularni qisqa fursatda uzib bo'lmaydi" – deb ta'kidlab o'tdi⁷³.

I.A.Karimov ushbu uchrashuvda Rossiya manfaatlari haqida ham to'xtalib o'tadi:

- "Shuni unutmaslik kerakki, Rossiya ertasini o'ylab ish ko'radigan bo'lsa, sobiq Ittifoq hududidagi an'anaviy bozorlarni ko'paytirishi kerak. Zotan, bozor yo'q bo'lib qolmaydi. Uni birov tark etsa, o'rnini boshqa davlatlar egallab oladi. Bu esa Rossiya iqtisodiyotiga jiddiy zarar kelitirishi mumkin"⁷⁴.

I.Karimov muxbirlarga bergan intervyusida mana shunday fikrlarni bildiradi:

- "Hayot shunday murakkab jarayonki, u bizga mutloq mustaqil davlatlar yo'qligini isbotlaydi. SSSR inqirozga yuz tutgach, ko'pgina qo'shinlarimiz biz bilan integratsiya jarayonlariga kirishmoqchi bo'lishdi. Markaziy Osiyo

⁷⁰ Ўша жой, 67 бет

⁷¹ Ўзбекистон овози. 1994 й. 5 март

⁷² Ўша жой

⁷³ Ўзбекистон овози. 1994 й. 3 март

⁷⁴ Ўзбекистон овози. 1994 й. 5 март

respublikalari, ayniqsa, O‘zbekiston birinchi navbatda aynan Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlaydi. Hamkorlik ikki tomonga ham manfaatlidir, zero O‘zbekiston ulkan va boy mamlakatdir”⁷⁵.

Ushbu muzokaralar o‘zaro manfaatli talablar asosida davlatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston aynan shu davrda Rossiya va MDH davlatlari bilan sado – iqtisodiy munosabatlari hajmini muntazam ravishda oshirib bordi.

- “MDH mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarning tarkibi va shakli tubdan o‘zgarib bormoqda. O‘zbekistonning mavqei toboro mustahkamlanmoqda. MDHdagi ko‘pgina davlatlar bilan savdo – to‘lov sohasida O‘zbekiston ijobiy saldogaga egadir.

1994 yilda hukumatlararo bitimlarga binoan O‘zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tovar aylanmasi 1,8 milliard AQSH dollarini yoki MDH mamlakatlari bilan umumiy tovar aylanmasining 63% ni tashkil etdi. Bir necha yuz million dollarga juda muhim bo‘lgan mahsulotlar, jumladan, neft, dizel yoqilg‘isi, metal, yog‘och, taxta, spirt, oziq – ovqat va boshqa tovarlar keltirildi”⁷⁶.

Neft chiqarish ikki baravardan oshganligi, neftni qayta ishlash mahsulotlari ko‘payganligi tufayli respublikaning shu mahsulotlar bo‘yicha MDH mamlakatlariga va xorij davlatlariga qaramligi ancha qisqardi. Respublikamizning tashqi omillarga bog‘liq bo‘lmasligi kuchaymoqda. Bu esa iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o‘tish sohasidagi ichki siyosatni yanada samaraliroq yuritish imkoniyatini bermoqda.

Ayni paytda MDHdagi boshqa davlatlar, avvalo Rossiya bilan munosabatlar o‘zaro manfaatli siyosat yurgizayotganligini yaqqol namoyish etmoqda, respublikaning MDH mamlakatlari bilan samarali hamkorlikka xalqlarimiz o‘rtasida vujudga kelgan ko‘p tomonlama iqtisodiy, madaniy, ilmiy va insoniy aloqalarni yangicha asosda mustahkamlash va rivojlantirishga tayyorligini ta’kidlamoqda. Biz tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda iqtisodiyotimizga xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish qulay sharoit yaratishga juda katta ahamiyat bermoqdamiz”⁷⁷.

Har ikki tomonning savdo aylanmalarining rivojlanishi yangi qirralarda namoyon bo‘ldi. Rossiyadan O‘zbekistonga eksport hajmida asosiy ulush:

- Mashina va uskunalar – 38%
- Kimyo mahsulotlari – 20%
- Qog‘oz, karton, mebel – 24%
- Energiya manbalari – 39%

⁷⁵ А.Касимов, И.Васькин. “Основные направления внешней политики Республики Узбекистан”. Т.Ўзбекистон. 1994 й. 68 бет

⁷⁶ И.Каримов. “Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.Ўзбекистон. 1995 й 114 бет

⁷⁷ И.Каримов. “Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.Ўзбекистон. 1995 й 115 бет

- Oziq – ovqat mahsulotlari – 15%
- Qora metal – 14% eksport qilingan edi⁷⁸.

1997 yilda O‘zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi savdo aylanmasi 1,6 milliard dollarni tashkil etdi. 1998 yilga kelib O‘zbekistonda Rossiya sarmoyadorlari ishtirokida tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 260 taga yetdi⁷⁹.

- “Rossiyada mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ana shunday istiqbolini ma’qullayotgan odamlar va sog‘lom fikrli siyosatchilar tobora ko‘paymoqda.

Ular kelajagimizning faqat bir - birimizni manfaatlarimizni hisobga olgan holda teng huquqli va o‘zaro foydali hamkorlik asosida tashkil etishimiz zarurligini tushunib yetayotganligi muayyan darajada umid uyg‘otmoqda”⁸⁰.

Prezident I.Karimovning ushbu fikrlari o‘zaro munosabatlarimizni rivojlanishining yana bir isbotidir.

1995 yil 26 – 28 iyul kunlarida Rossiya hukumati rahbari V.Chernomirdin rasmiy tashrif bilan Toshkentda bo‘lgan edi. ushbu safar chog‘ida hukumatlarimiz o‘rtasida 1996 – 1997 yillarga mo‘ljallangan iqtisodiy hamkorlikning asosiy tamoyillari va yo‘nalishlari to‘g‘risidagi bitim imzolandi⁸¹.

Bundan tashqari, ikki o‘rtada:

- hamkorlikni yanada taraqqiy ettirish va kengaytirish to‘g‘risida memorandum;
- Ilyushin transmilliy moliya sanoat qo‘shma guruhini barpo etish haqidagi bitim;
- Rossiya rubli va O‘zbekiston so‘mini o‘zaro almashtirish va ularning qiymatlarini barqarorlashtirishni ta’minlash bo‘yicha chora – tadbirlar to‘g‘risida hukumatlararo bitim;
- Oliy ta’lim sohasida hamkorlik qilish, ilmiy – texnik hamkorlik, xalqaro radioastronomik observatoriyasini tashkil etish, jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish to‘g‘risida hukumatlararo bitimlar;
- Har ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida hamkorlik dasturi kabi bir qator bitimlar imzolandi⁸².

So‘ngi yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari, ayniqsa savdo – iqtisodiy aloqalar yuqorida keltirilgan bitimlar asosida jadal ravishda rivojlandi.

⁷⁸ Ўзбекистонда жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида”. Т.Академия. 2005 й. 359 бет

⁷⁹ Н.Жўраев. “Ўзбекистон тарихи”. Т.Шарқ. 1998 й 313 бет

⁸⁰ И.Каримов. “Биздан озод ва обод ватан қолсин”. Т.Ўзбекистон. 1994 й. 247 бет

⁸¹ Халқ сўзи. 1995 йил. 31 июль

⁸² Ўша жой

**1997 yildan 2002 yilgacha muddatda o‘zaro savdo ko‘rsatkichlari
(million AQSH dollari)⁸³**

Ko‘rsatkichlar	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003 yanvar - avgust
Tovar ayriboshlash	607.6	53.4	864.8	1010.3	1129.13	913.13	681.1
Eksport	836.4	526.2	432.6	545.5	526.2	317.1	241.0
Import	771.2	527.2	432.1	464.8	603.6	585.2	440.0
Saldo	65.2	1.0	0.5	80.7	-77.4	-277.1	-199.0

2003 yilning birinchi yarim yilligida O‘zbekistondan Rossiyaga eksport qilingan tovar tarkibini:

yer usti transport vositalari – 25,6%,

xizmatlar - 17,1%,

paxta tolasi – 14,6%,

mineral yoqilg‘ilar, neft va undan qayta ishlangan mahsulotlar – 9,6%,

sabzavotlar va ba’zi yegulik ko‘katlar – 4,6%,

gazlama va paxta kalavasi – 4,1%,

paxta, jun – 3,9%,

sabzavot va mevalardan qayta ishlangan mahsulotlar – 3,5%ni tashkil etdi.

Ushbu davrda Rossiyadan keltirilgan tovarlar ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘ldi:

Mexanik uskunarlar – 23,3%,

Qora metal va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar – 11,2%,

Xizmatlar – 7,5%,

Elektr asbob – uskunalari – 6,9%,

Yer usti transport vositalari – 5,1%,

Yog‘och va yog‘och mahsulotlari – 5,1%,

Kauchuk va rezina mahsulotlari – 4,5%,

Optika asbob – uskunalari – 4,3%,

Farmatsevtika mahsulotlari – 3,4%⁸⁴

O‘zbekistonda Rossiya azaldan yirik iqtisodiy hamkorlardan biri ekanligiga ishonishadi. Rossiyaning iqtisodiy inqirozdan chiqish darajasiga ko‘ra uning O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1999 yildagi 13%dan 2003 yilda 17%gacha o‘ydi. Faqat 2003 yilning o‘zidayoq ikki mamlakat tashqi savdo aylanmasi hajmi 26%ga, 2004 yilning birinchi yarmida esa 43%ga o‘ydi. Savdo

⁸³ Ўзбекистон – Россия муносабатлари. <http://www.lmfa.uz>

⁸⁴ Ўзбекистон – Россия муносабатлари. <http://www.lmfa.uz>

aylanmasi yanada ratsionallashib, ikki mamlakat iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o'zgarishlar unda o'z aksini topa boshladi. Masalan, 2003 yilda O'zbekiston Respublikasidan Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmida asosiy ulushni mashina va uskunalar – 23%, paxta 71%ni tashkil etdi. 1994 yilda bu ko'rsatkichlar 11% va 64% edi⁸⁵.

Ma'lumki, tabiiy gaz zaxiralari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi dunyoda 16, qazib chiqarish bo'yicha 10, MDHda 3 o'rinda (British Petroleum).

2001 yil iyul oyida "LUKoyl - Oversiz" kompaniyasi va Itera O'zbekneftgaz bilan bitim tuzgan edi. (45% Rossiya, 10% O'zbekneftgaz) Bunda birinchim bosqichda 2 -2,5 milliard kubometr va keyinchalik yiliga 9 milliard kubometr gaz ishlab chiqarish mo'ljallangan edi. 2002 yildan boshlab "Gazprom" 2003 – 2012 yillarga mo'ljallangan shartnoma imzolaydi va 2003 yilda eksport hajmi 7,5 milliard kubometrni tashkil etdi⁸⁶.

Demak, bu o'rinda oldimizda ikki vazifa mavjud:

- Tabiiy gaz zaxiralarini qidirish va qazib olish, geolog – razvedka ishlariga investorlarni jalb etish;
- Tranzit salohiyatini oshirish;

Agarda mana shu ishlar ijobiy hal etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. albatta, buni amalga oshirishda Rossiya tomoni, Gazpromning bevosita ishtiroki kerak bo'ladi. Gazprom ham Rossiya hukumatining qo'llab quvvatlashi bilan O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorligini izchil yo'lga qo'yib olishi mumkin.

⁸⁵ Ўзбекистонда жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох қилиш йўлида". Т.Академия. 2005 й. 358-359 бетлар

⁸⁶ В.Сапранин. "Российский ГАЗПРОМ в странах Центральной Азии". «Центральная Азия и Кавказ». 2004. №5 99 – 100 бетлар

II bob. Strategik sheriklar – ittifoqchilik yo‘lida miazusini o‘qitishning metodik asoslari.

II.1. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi “Strategik sheriklik to‘g‘risida”gi bitimdan keyingi savdo – iqtisodiy hamkorlik aloqalarining o‘qitilishi.

O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilishi ikkala mamlakat uchun ham hamkorlikni rivojlantirishning istiqbolli imkoniyatlarini beradi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, ushbu hamkorlik hozirgi kunda strategik sheriklik va so‘ngra ittifoqchi darajasiga ko‘tarildi. Avvalambor ikkala mamlakatda, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jixatdan hamkorlik ehtiyoji paydo bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ikki davlat manfaatlarini xalqaro terrorizmga qarshi kurash yaqinlashtirdi.

O‘zbekistonda Rossiya azaldan yirik iqtisodiy hamkorlardan biri ekanligini hech qachon unutishmagan. Rossiyaning salohiyati albatta, o‘zaro manfaatli aloqalarda o‘z mevasini bermoqda.

Xalqaro maydonda ham hamkorlik kengaymoqda. Rossiya va O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va integratsion jarayonlar doirasida faol munosabatlarni yo‘lga qo‘ymoqdalar (BMT, MDH, SHHT, YevroIH). Ikki tomonlama munosabatlarning mustahkamlanishini muhim bosqichi 2004 yil 16 iyunda V.V.Putin va I.A.Karimov tomonidan Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida “Strategik sheriklik” to‘g‘risidagi imzolangan shartnoma bo‘ldi. Davlatlarimizni sheriklik munosabatlarini 2005 yil 14 noyabrda imzolangan “Ittifoqchilik munosabatlari” haqidagi bitim yuqori darajaga ko‘tardi⁸⁷.

2004 yil 16 aprelda Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.V.Putin taklifiga binoan prezident I.A.Karimov amaliy tashrif bilan Moskvada bo‘ldi. Mamlakat rahbarining tashrifidan maqsad, ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda xavfsizlikni ta‘minlash, terrorizm, ekstremizm, narkobiznes kabi mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashish edi⁸⁸.

Muzokaralar chog‘ida tomonlar o‘zaro munosabatlarda pragmatizm va qarama – qarshilik yo‘qligini e‘tirof etdilar. Har ikki tomon munosabatlarini yanada rivojlantirish zarurligini ta‘kidladilar. Sohalararo turli hamkorlikni rivojlantirishda hukumatlararo komissiya faoliyati roli haqida fikr bildirildi.

Davlatlarimiz boshliqlari SHHT doirasidagi hamkorlik masalalariga ham to‘xtaldilar va uning doirasidagi hamkorlik ham manfaatli ekanligini ta‘kidladilar⁸⁹. Hamkorlikning rivojlanishi shu yilning iyun oyida SHHTning Toshkent sammitida o‘z cho‘qqisiga chiqdi.

⁸⁷ Россия – Ўзбекистон. [http\\www.russia.uz](http://www.russia.uz)

⁸⁸ Халқ сўзи. 2004 й. 17 апрель

⁸⁹ Ўша жой

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov 16 iyun kuni oqsaroyda SHHT sammitida qatnashish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.V.Putin bilan uchrashdi⁹⁰. Rahbarlarimiz uchrashuvlarini mustahkamlik kasb etib borayotgan, mamlakatlarimizni o‘zaro munosabatlari qamrov va sifat jixatdan yangi pog‘onaga ko‘tarilayotganligidan dalolat beradi. Bu fikrlar Moskva, Sankt Peterburg, Samarqand uchrashuvlarining uzviy davomi bo‘lgan, Novo Ogorevodagi muloqatda ham qayd etilgan edi. Novo Ogorevo uchrashuvi siyosiy, savdo - iqtisodiy aloqalarga doir masalalarga oydinlik kiritgan edi. Toshkent uchrashuvida prezidentlar ikki tomonlama munosabatlarni strategik hamkorlik darajasiga ko‘tarishga ahd qildilar. Davlatlarimiz rahbarlari shu kuni “Strategik sheriklik” to‘g‘risidagi bitimni imzoladilar⁹¹.

Ushbu shartnoma 2004 yil 27 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining №673 – II qarori bilan ratifikatsiya qilindi⁹². O‘z navbatida ushbu xujjat, Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasi tomonidan 2004 yil 22 dekabr kuni ratifikatsiya qilindi⁹³.

Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlarining birinchi o‘rinbosari Valeriy Loshinin ushbu bitim tomonlararo munosabatlarni ijobiy odimlashini mustahkamlaydi deb ta’kidlaydi. Bitim siyosiy, harbiy, harbiy – texnikaviy, savdo – iqtisodiy, ijtimoiy sohalar yo‘nalishini aniqlab beradi deb o‘z fikrlarini bildirdi⁹⁴.

Strategik sheriklik O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida hamkorlikni oliy darajaga ko‘tarishga xizmat qildi.

Ushbu bitimdan so‘ng tomonlararo munosabatlarning turli sohalarda hamkorlikning yangi bosqichi boshlandi.

O‘zbekistonning savdo – iqtisodiy munosabatlarida Rossiya asosiy o‘rinni egalladi desak mubolog‘a bo‘lmaydi.

2004 yilning birinchi kvartali bo‘yicha mamlakatlarimiz tovar aylanmasi 26% ga ko‘paygan edi. Taqqoslasak, 2003 yilad bu ko‘rsatkich 226,9 million AQSH dollarini tashkil etgan edi. O‘zbekiston eksporti va xizmatlari 132,6 million AQSH dollarini tashkil etdi. Import 94,3 million dollarni tashkil qildi.

O‘tgan davr mobaynida Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi eksport – import operatsiyalari keskin o‘zgarishlarni ko‘rmadi.

O‘zbekistondan Rossiyaga asosan mashina, paxta tolasi va meva – sabzavot mahsulotlarini eksport qilindi. Rossiyadan esa turli texnika, qora metal, farmatsevtika mahsulotlari keltirildi.

⁹⁰ Халқ сўзи. 2004 й. 17 июнь

⁹¹ Ўша жой

⁹² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис ахборотномаси. 2004 й. №9 173 бет

⁹³ Ратифицирован договор о партнёрстве между Российской Федерацией и Республики Узбекистан.

<http://www.uzreport.com>

⁹⁴ Ўша жойда

O'zbekistonda 300 dan ortiq Rossiya investorlari qatnashgan qo'shma korxonalar ro'yxatga olingan. Ulardan 40 ga yaqini 100% Rossiya kapitali hisobiga tashkil etildi. Rossiyada ham 100ga yaqin shunday hamkorlikdagi korxonalar faoliyat ko'rsata boshladi⁹⁵.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida ham hamkorlik olib borildi. Bu borada 9 ta o'zbek - rus qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsata boshladi. Buenda Rossiyaning Baltimor, Cherkizovo kompaniyalari asosiy sherik bo'ldilar.

"Vimm Bill Don" kompaniyasi Toshkentning eng katta "Toshkentsut" birlashma aksiyalarining 77% xarid qilish haqida shartnoma imzoladi. Bunda sut mahsulotlarini qayta ishlash va meva sharbatlarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxona tuzish uchun 20 million AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritish ko'zda tutilgan⁹⁶.

Hududlararo hamkorlik aloqalari ham kengayib bordi. Ural, Mordovo, Yaroslavl oblastlari, Tatariston respublikasi, Vladimir oblasti va Tula respublikalarining ishbilarmonlari doiralari O'zbekiston bilan hamkorlikni yo'lga qo'yidilar. Ularning vakillari "O'zbekenergo", "O'zbekiston havo yo'llari", "O'zbekiston temir yo'llari", "O'zchinoxmashholding" kompaniyalari bilan doimiy muloqatlardir. Ishlab chiqarish va investitsiya masalalari bo'yicha muzokaralar olib borildi⁹⁷.

Savdo – iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyasining o'rni muhimdir.

Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.V.Putin:

- "Ushbu komissiya iqtisodiy aloqalar subyektlari xo'jalik faoliyati tajribasi va iqtisodiy taraqqiyot sohasidagi amaldagi qonunchilikni tahlil qilib borishi lozim. Shu bilan birga, har ikki masalalar bo'yicha ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini bersin" – deb ta'kidlagan edi⁹⁸.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi davlatlarining prezidentlarining 2003 yil avgust oyidagi uchrashuvi hukumatlararo komissiya ishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

2003 yilning 26 – 27 sentabrdagi hukumatlararo komissiyaning 6 – yig'ilishida tomonlararo hamkorlikni faollashtirish va hajmini kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Ikki o'rtada imzolangan protokolda birgalikdagi faoliyat turlari, jumladan, axborot almashish, investitsiyalar, xo'jalik qonunchiligini

⁹⁵ О торгово – экономическом сотрудничестве России и Узбекистана. [http\www.uzbekistan.mid.ru](http://www.uzbekistan.mid.ru)

⁹⁶ Р.Азимов. "Исходя из интересов страны". «Экономический вестник Узбекистана», 2004 й №3-4 2 бет

⁹⁷ О торгово – экономическом сотрудничестве России и Узбекистана. [http\www.uzbekistan.mid.ru](http://www.uzbekistan.mid.ru)

⁹⁸ О деятельности Межправительственной комиссии по экономическому сотрудничеству между Российской Федерацией и Республикой Узбекистан. [http\www.c-azia.org](http://www.c-azia.org)

uyg'unlashtirish, hududlararo aloqalarni kengaytirish, fan va texnika sohasida munosabatlarni rivojlantirish masalalari o'z aksini topdi. Hukumatlararo komissiya majlisida tezkorlikni yanada oshirish maqsadi o'rta qo'yildi. Milliy komissiyalar tuzish va ularni qo'shma majlislarini har yarim yilda kamida bir marotaba o'tkazish kelishib olindi. Bunga Rossiya tomonidan savdo va iqtisodiy taraqqiyot vazirining birinchi o'rinbosari I.S.Materov, O'zbekiston tomonidan tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi raisi E.G'aniyev mas'ul bo'lishdi⁹⁹.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi imzolangan "Strategik sheriklik" to'g'risidagi bitim hukumatlararo komissiya ishini rivojlantirishga muhim omil vazifasini o'tadi.

2004 yil 29 sentabrda Moskva shahrida hukumatlararo komissiyaning 7 – majlisi bo'lib o'tdi. Ushbu majlisda tomonlar o'tgan uchrashuvlar 1998 – 2007 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik dasturi haqida fikr almashib oldilar. Shundan so'ng yig'ilish bayonnomasida istiqbolli, manfaatli hamkorlikni rivojlantirish o'z aksini topdi.

Hukumatlararo komissiyaning 7 – yig'ilishida bundan tashqari, banklararo hamkorlik bo'yicha milliy komissiyalarni tashkil etish to'g'risidagi bitim imzolangan edi¹⁰⁰.

Albatta, bu bitim ham bank sohasida va moliya sistemasidagi munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi ko'zda tutilgan edi. Bu boradagi munosabatlarning rivojlanishi, o'zaro ikki tomonni qoniqtiradi. Rossiya bosh vaziri Mixail Fradkov moskvada Islom Karimov bilan uchrashuv chog'ida:

- "Davlatlarimizning iqtisodiy hamkorligida tajriba to'plangan, sizning prezident V.Putin bilan muntazam ravishdagi uchrashuvlaringiz Rossiya bilan O'zbekiston munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi" – deb ta'kidlagan edi.

O'z navbatida Islom Karimov:

- "Rossiya doim O'zbekistonga sherik va ittifoqchi bo'lgan va bundan keyin ham bo'lib qoladi. Buning ustiga bir oy oldin mamlakatlarimiz o'rtasida "Strategik sheriklik" to'g'risida bitim imzolandi" – deb aytib o'tdi.

2004 yil iyul oyida bo'lib o'tgan bu uchrashuv chog'ida Rossiya hukumati axborot departamentining xabar qilishicha, tomonlararo ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar haqidagi masalalar ham ko'rib chiqilgan¹⁰¹.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov 2005 yil 10 iyulda Oqsaroyda Rossiya Federatsiyasining "Politika" jamg'armasi prezidenti V.Nikonov rahbarligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuv chog'ida prezident I.Karimov:

⁹⁹ Ўша жойда

¹⁰⁰ О торгово – экономическом сотрудничестве России и Узбекистана. <http://www.russia.uz>

¹⁰¹ М.Фратков и И.Каримов обсудили вопросы торгово – экономического сотрудничества России и Узбекистана. <http://www.704.olo.ru>

- “Ishonchim komilki, sizlarning O‘zbekiston uchun jiddiy ahamiyatga ega masalalar bo‘yicha xolis va prinsipial bahoingizni ahamiyati katta” – deb tomonlarimizning hamfikrligini yana bir bor eslatib o‘tadi¹⁰².

O‘zbekiston kuchli davlat tajribasiga ega davlat dedi Politika jamg‘armasi prezidenti.

- “Bugungi notinch va murakkab zamonda O‘zbekiston rahbariyatining jamiyat manfaatlari ustivorligiga tayangan qat’iy va haqqoniy siyosati mamlakat kelajagini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Bugungi kunda muhim geosiyosiy ahamiyatga ega Markaziy Osiyo mintaqasida qurol – yorog‘ va giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchi jinoyatchi guruhlar, hamda vaziyatni beqarorlashtirishga urinayotgan kuchlarning manfaatlari to‘qnashayotgani sir emas” – deb ta’kidlagan edi V.Nikonov¹⁰³.

2004 yil 16 iyunida imzolangan shartnoma O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasining o‘zaro xavfsizlikni ta’minlash, xalqaro terrorizm va xalqaro miqyosdagi turli boshqa tahdidlarga qarshi turish, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash yo‘lidagi qo‘shma sayi – harakatlari hamjixatligi rasmiylashtirilgan. Shartnoma ikki mamlakatning xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorligini ham ko‘zda tutadi.

Shartnomada savdo – iqtisodiy sohadagi aloqalarning ustivor yo‘nalishlari ham belgilab berilgan. Jumladan bular sirasiga yoqilg‘i – energetika majmui, samalyotsozlik, transport va kommunikatsiya, bank sohasi va boshqalar kiradi. Shu xujjatga muvofiq tomonlar o‘zaro sarmoyaviy loyihalarda va xususiylashtirish jarayonlarida qatnashish uchun bir - birlariga imkon yaratadi. Shu tariqa davlatlarimiz o‘rtasida strateshik sheriklik uchun barcha sharoitlar tayyorlandi¹⁰⁴.

Mamlakatlarimiz yoqilg‘i - energetika sohasida ham hamkorlik aloqalarini kengaytirmoqdalar. 2002 yilning 1 mart kuni Almata shahri yaqinidagi “Shimbuloq” dam olish maskanida MDHning 11 davlat rahbarlarining norasmiy uchrashuvi bo‘lib o‘tadi. Unda Rossiya prezidenti V.Putin tashabbus bilan chiqib, Rossiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmaniston davlatlarini gaz sanoatidagi hamkorlik haqidagi masalani o‘rtaga tashladi. U gaz ishlab chiqarish va uni G‘arb bozoriga olib chiqish haqida bitim tuzishni taklif qildi¹⁰⁵.

O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi yirik gaz ishlab chiqaruvchi va uni eksport qiluvchi mamlakatlardir. Ular bunday mintaqaviy hamkorlikdan yaxshigina foyda olishlari mumkin. Ko‘pgina ekspertlar fikricha, gazni Markaziy Osiyodan Rossiya orqali eksport qilish yirik miqdorda foyda

¹⁰² Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати хабари. Prezidents_office@press_service.uz

¹⁰³ Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати хабари. Prezidents_office@press_service.uz

¹⁰⁴ Стратегик ҳамкорлик амалда. Prezidents_office@press_service.uz

¹⁰⁵ Ж.Касимов. “Ташкент – Москва: влияние экономики России на экономику и внешнюю торговлю Узбекистана”. «Центральная Азия и Кавказ». 2004 й. №1 196 бет

kelitirishi mumkin. Bunday hamkorlik tizimiga kelgusida Xitoy ham qo'shilishi mumkin bo'ladi. Albatta bunda, asosiy tranzit rolini Rossiya o'ynaydi¹⁰⁶.

Gaz tranziti, Rossiya iqtisodiyoti barqarorligiga o'z ta'sirini ko'rsatgan holda O'zbekiston gaz tranzitini rivojlantiradi, kelajakdagi savdo – iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasiga jumladan, O'zbekistonga qiziqishi bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi ulkan yoqilg'i - energetika zaxirasiga egadir. O'zbekistonda 190 ta uglevodorod xom – ashyo konlari ochilgan. YA'ni

- gaz va gaz kondensati – 94
- neft va neftgaz kondensati – 96 ta

Bulardan 47%da amaliy ishlar yo'lga qo'yilgan, 35%da tayyorgarlik ishlari yo'lga qo'yilib, geologorazvedka ishlari olib borilmoqda¹⁰⁷.

MDHning sharqiy Yevropa qismi davlatlari orasida O'zbekiston gaz zaxiralari bo'yicha 3, suyuq uglevodorodlar bo'yicha 4 o'rinda turadi. Moviy boyligimiz zaxirasi 2 – 5 trillion kubometrni tashkil etadi. Neft 5,3 milliard tonna, gaz kondensati 480 million tonna deb baholangan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov o'zining asarida:

- “G'oyat muhim strategik manbalar – neft va gaz kondensati, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo'yicha 40 dan ortiq, rangli, nodir va radiaktiv metallar bo'yicha 40, konchilik va kimyo xom – ashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan.

... har yili respublika konlaridan 5,5 milliard dollarlik foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6-7 milliard dollarlik yangi zaxiralar qo'shilmoqda. Bir qator foydali qazilmalar, chunonchi, oltin, uran, mis, gaz, volfram, kaliy tuzlari, fosfaritlar, kaolinlar bo'yicha O'zbekiston tasdiqlangan zaxiralar jixatidan MDHdagina emas, balki dunyoda ham yetakchi o'rinni egalaydi.” – deb aytib o'tgan edi¹⁰⁸.

Prezident I.A.Karimov bu zaxiralarni respublika, uning mustaqilligiga va iqtisodiy qudrati uchun hal qiluvchi, strategik ahamiyatga molik resurslar deb baholagan edi.

O'zbekiston noyob yoqilg'i - energetika resurslariga boydir. 2 milliard tonnadan ortiq ko'mirga ega konlar va 160 dan ortiq neft konlari mavjud. Neft va gaz kondensati zaxiralari o'z ehtiyojlarimizni to'la ta'minlabgina qolmay, shu

¹⁰⁶ Ўша жой, 198 бет

¹⁰⁷ Р.Гусейнов. “Политика России энергетических комплексах в Центральной Азии”. «Центральная Азия и Кавказ». 2004 й. №5 77 бет

¹⁰⁸ И.Каримов. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. Т.Ўзбекистон 1997 й. 231 бет

bilan birga energiya manbalarini eksport qilish imkonini beradi. Hozir bu kapital mablag‘ sarflashning eng foydali sohalaridan biri bo‘lib qoldi¹⁰⁹.

Ayrim tadqiqotchilar, O‘zbekiston gaz sanoatiga sarmoya sarflashni foydali emas deb hisoblagan edilar. Bunga respublikaning iste‘mol bozorlaridan uzoqdaligi sabab qilib ko‘rsatilgan edi¹¹⁰.

Ammo bu fikrning noto‘g‘riligini vaqt isbotlab berdi. Vaqt oliy hakamdir. Bu sohani har ikki tomonga foydali bo‘lishini anglagan Rossiyalik sarmoyadorlar gaz yoqilg‘isi sohasidagi hamkorlikni jadal boshlab yuborishdi. Taraqqiy etayotgan davlatlarni energiya manbalariga, shu jumladan suyuq uglevodorod, gazga ehtiyoji muntazam oshib boradi. Aynan shu jixatdan ham Rossiya O‘zbekiston bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi bejiz emas.

O‘zbekistonga yoqilg‘i – energetika kompleksiga (YOEK) 1885 yilda asos solingan edi. sho‘rolar davrida ham bu borada sezilarli ishlar amalga oshirildi. 1990 yillar boshidan boshlab, Rossiya Federatsiyasi va O‘zbekiston Respublikasi YOEK sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdi va hozirgi kunda bu narsa chuqurlashib bormoqda.

Ma‘lumki O‘zbekiston Respublikasi o‘z imkoniyatlarini ishga solib YOEK sohasida mustaqil qadam tashlagan edi. hozirgi kunda O‘zbekiston xorijiy kompaniyalar uchun, respublikada qulay muhitni yaratish ustida ko‘pgina ishlarni amalga oshirmoqda. Rossiya bilan imzolangan “Strategik sheriklik” bitimidan keyin bu boradagi ishlar yuqori darajaga ko‘tarildi. Hamkorlik jarayonida Rossiyaning “Gazprom” OAJ, va “LUKoyl” OAJ kompaniyalari yetakchi bo‘ldilar¹¹¹.

2002 yil dekabr oyida “O‘zbekneftgaz” va “Gazprom” 2012 yilgacha mo‘ljallangan strategik hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuvni imzoladilar. Ushbu xujjatga ko‘ra, “O‘zbekneftgaz” va yopiq turdagi xissadorlik jamiyati “Zarubejneftgaz” (1998 yil sentabr oyida tuzilgan) Toshkentda 2004 yil 16 aprelda, Ustyurtdagi Shoxipaxta makonidagi ishlar yuzasidan shartnomani imzoladilar. Ushbu kon 1961 yilda ochilgan bo‘lib, uning zaxiralari 39,9 milliard kubometrni tashkil etadi¹¹².

Ushbu konga “Zarubejneftgaz” tuzilmaviy modernizatsiya uchun 15 million AQSH dollarini ajratishni ma‘lum qildi. Albatta, olingan foyda teng barobar bo‘linadi.

¹⁰⁹ Ўша жой, 233 бет

¹¹⁰ Р.Гусейнов. “Политика России энергетических комплексах в Центральной Азии”. «Центральная Азия и Кавказ». 2004 й. №5 77 бет

¹¹¹ Ф.Мухаметшин. “СРП – ключ к кладовым Узбекистана”. «Экономический вестник Узбекистана». 2004. №7-8 27 бет

¹¹² Р.Гусейнов. “Политика России энергетических комплексах в Центральной Азии”. «Центральная Азия и Кавказ». 2004 й. №5 78 бет

2005 yilda gaz qazib olish yiliga 500 million kubometrni tashkil etishi kerak edi. Bundan tashqari, 2004 yilning oxirida investorlar kompersor stanqiyasini qurib bitkazishni mo'ljalladilar¹¹³. Shu tariqa Rossiya kompaniyasi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib gaz qazib chiqarish yuzasidan bitimni tuzdi.

Bu bitim "Gazprom"ga gazni olib sotishda, ishlab chiqarishga o'tishda, shu bilan birga, mintaqada foydali bo'lgan yangi bosqichdagi faoliyatni boshlashga zamin yaratdi.

Albatta aytib o'tish kerak, davlatlar geologik, transport tizimidagi munosabatlarni mustahkamlash o'z eksport - import salohiyatlarini bir muncha oshirdilar. Shu bilan birga "O'zbekneftgaz" va "Gazprom", Ustyurt mintaqasida 1 milliard AQSH dollari qiymatiga teng bo'lgan gaz kondensati konida birga ish boshlashni ko'zda tutuvchi yangi shartnoma tuzishga kelishib oldilar¹¹⁴.

Shuni aytib o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasida ish boshlagan birinchi kompaniyalardan biri bu "Itera" edi.

"LUKOyl" bilan birga u "Qondim – Xauzoq – Shodi" bloki yuzasidan muzokaralar olib bordi. Shartnomalardagi hududda yoqilg'i zaxiralari 283 milliard kubometrni tashkil etar edi. lekin 2003 yilda "Itera" "Gazprom" bilan raqobatga dosh bera olmay o'z faoliyatini to'xtatdi. "LUKOyl" esa ushbu shartnoma yuzasidan muzokaralarni davom ettirdi.

2004 yil 16 iyun uchrashuvlarida Rossiyaning bu kompaniyasi tomonlararo to'xtamga kelib, Buxoro va Xiva mintaqasida faoliyat yurgizishga kelishib oldi. Ushbu shartnomani "O'zbekneftgaz" rahbari A.Azizov va "LUKOyl" prezidenti V.Alekperov imzoladilar. Loyihani amalga oshirishda qo'shma kornxona tashkil etilib, unda "LUKOyl" – 90%, "O'zbekneftgaz" – 10% xissalarini qo'shishdi¹¹⁵.

Gaz yoqilg'isini sanoat ishlab chiqarishini boshlash 2007 yilda ko'zda tutildi. Mana shu tarzda "LUKOyl" O'zbekistonda o'z mavqeini mustahkamlab oldi. Bu bitim doirasida yillik ish hajmi 9 milliard kubometr, umumiy olganda 207 milliard kubometrqa yetkazish mo'ljallangan. Bundan tashqari, kelishuvga ko'ra, yiliga 6 milliard kubometrni qayta ishlovchi zamonaviy gaz – kimyo kompleksini bunyod etish rejasi, 2010 yilda ishga tushirilishi mo'ljallangan 240 ta quduqda ish boshlash rejalashtirildi. Avtomobil yo'llari, temir yo'l ikkita kompressor stansiyasi, turar joylar, yuqori kuchlanishdagi elektr liniyalarini barpo etish ko'zda tutildi. Mahsulotni "Gazprom"ning "Gaztransport" magistrali tarmog'i orqali tashish loyihada o'z aksini topgan. Ushbu loyihani "O'zbekneftgaz" qoshidagi "O'zLITneftgaz" instituti ishlab chiqdi, shartnomani esa AQShning "Beyker &

¹¹³ Р.Гусейнов. "Политика России энергетических комплексах в Центральной Азии". «Центральная Азия и Кавказ». 2004 й. №5 78 бет

¹¹⁴ Ф.Мухаметшин. "СРП – ключ к кладовым Узбекистана" «Экономический вестник Узбекистана». 2004 №7-8 28 бет

¹¹⁵ Ўша жой, 28 бет

Makenzi” yuridik kompaniyasi tayyorladi. Shu asosda tomonlar geosiyosiy munosabatlarni yo‘lga qo‘ydilar. Bundan tashqari, O‘zbekiston Rossiya neft, gaz sanoatchilarining loyihalari amalga oshishida obyektiv murakkabliklarga duch kelmagan yagona Markaziy Osiyo respublikasi bo‘lib qolmoqda¹¹⁶.

“LUKoyl” prezidenti V.Alekperov O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov bilan uchrashadi. Uchrashuv chog‘ida I.Karimov “LUKoyl” faoliyatini kengayib borayotgani jarayonidan xabardor ekanligi haqida aytib o‘tdi. Yana “LUKoyl”ning olib borayotgan tashqi hamkorligi kelajakda O‘zbekistondagi “LUKoyl” bilan ishlarni yo‘lga qo‘yadigan kompaniyalarda ishonchni uyg‘otish va mustahkamlashda asos bo‘lishini ta’kidlab o‘tdi. V.Alekperov I.Karimovga uning bergan qimmatli maslahatlari va o‘zaro ishonch uchun minnatdorchilik bildirdi¹¹⁷.

“O‘zbekneftgaz” bilan Rossiyaning boshqa bir qator kompaniyalari hamkorlik qilmoqdalar. Yopiq turdagi xissadorlik kompaniyasi “Soyuzneftgaz” va ochiq turdagi xissadorlik kompaniyasi “Sroytrangaz” shular jumlasidandir.

“Soyuzneftgaz” ko‘pgina neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlar bilan investitsion loyihalar borasida ancha tajriba ortirgan kompaniya hisoblanadi. U O‘zbekistonlik hamkorlariga neftni qazish, yuqori sifatli polimer trubalar, mutaxassislar malakasani oshirish borasidagi o‘z takliflarini berishi mumkin. Bu borada, YOEK uchun fibrobazal trubalar yetkazib berish to‘g‘risida shartnoma imzoladi. “Soyuzneftgaz” “O‘zPEKlimitit” OAJni nazorat paketini oldi.

Yana bir misol, “Sroytrangaz” OAJ Muborak gazni qayta ishlash zavodida propanbutan gazini olish jixozini qurish bo‘yicha, qiymati 225 million AQSH dollariga teng bo‘lgan eng yaxshi investitsion loyiha tenderida qatnashdi. O‘zbekiston energetika resurslari haqida gapirganda, gidroenergetika salohiyati haqida to‘xtash joizdir. Bunda, 28 ta GESni o‘z tarkibiga oluvchi 5 ta gidroelektrostansiya kaskadi mavjud bo‘lib, bir qator suv omborlari tizimiga egadir. Bu sohada ham o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Rossiyaning “Siloviye mashini” OAJ Surxandaryo viloyatidagi To‘palang GESini ikkinchi energo bloki montaj ishlarini amalga oshirdi.

Ushbu montaj ishlarini Rossiyalik mutaxassislar bilan birga “O‘zbekgidroenergostroy” tresti olib bordi. Ushbu energo bloklarni 2005 yilning ikkinchi kvartalida foydalanishga topshirishdi. Bu yerda yiliga 63 million kvт elektr energiyasi ishlab chiqariladi. To‘palang GESida 175 mvt quvvatiga ega bo‘lgan 4 energo blok qurilishi rejalashtirilgan. Uni ishga tushirgach, elektr energiya ishlab chiqarish 514 million kvт.ga yetadi.

¹¹⁶ Р.Гусейнов. “Политика России энергетических комплексах в Центральной Азии”. «Центральная Азия и Кавказ». 2004 й. №5 79 бет

¹¹⁷ Ф.Мухаметшин. “СРП – ключ к кладовым Узбекистана”. «Экономический вестник Узбекистана». 2004. №7-8 29 бет

Davlatlarimiz energetiklari neft va gaz sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar tez orada O'zbekistonda, Markaziy Osiyodagi eng yirik YOEkni bunyod etadilar. Bu bilan YevroOsiyo energo sistemasidagi integratsion jarayonlar tarmog'iga kirish tezlashadi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi munosabatlarining yoqilg'i – energetika sohalaridagi aloqalari faollashib borayotgani oxirgi yillarda yaqqol ko'rinmoqda. Albatta, bu mamlakatlarimizdagi iqtisodiy o'sishdan dalolat beradi. Iqtisodiy o'sishning bunday tez suratlar bilan borishi va bunda savdo – iqtisodiy, investitsion loyihalarning amalga oshishi shuni ko'rsatadiki, Rossiya biz uchun har tomonlama qulay, hududiy jixatdan yaqin, har doim, har sohada qo'llab – quvvatlovchi obyektga aylanib bormoqda. Sarmoyalarning bizning iqtisodiyotimizga jadal kirib borayotganligi, ular asosida amalga oshirilayotgan loyihalar albatta kelajakda o'z mevasini bermasdan qolmaydi.

Iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi 2005 yilda ham davom etdi va rivojlanib bordi.

2004 yil 4 fevralda Rossiyaning telekommunikatsiya sohasida faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyasi "Alfa telekom" O'zbekistondagi "UzMakkom" kompaniyasi aksiyalarining 74%ni sotib oldi¹¹⁸.

Ma'lumki, ushbu O'zbek – Malaziya qo'shma korxonasi Toshkent va Toshkent viloyati aholisiga xizmat ko'rsatib kelar edi. Ushbu kompaniya fuqarolarimizga GSM 900 / 1800 standartida xizmat ko'rsatgan. Indoneziyaning "BAKTIE GROUP" kompaniyasidan "BUZTEL GSM"ning aksiyalarining 100%ni sotib olgan edi.

Shu tufayli ham "Alfa telekom" kompaniyasining ushbu tashkilot bilan qiziqishi bejiz emas.

"Alfa telekom"ning tashqi aloqalar bo'yicha vitse – prezidenti K.Babayev fikricha, ushbu kompaniyaning O'zbekiston uyali aloqa bozorida o'ziga xos o'rni va istiqboli bor¹¹⁹.

Ma'lumki, uyali aloqa bozori hozirgi zamonaviy dunyoda eng serdaromad sohalardan hisoblanadi. Turli jabhalarda xizmat qiladigan turli soha vakillari ushbu aloqa vositasidan foydalanishadi. Shu tufayli ham Rossiyaning ushbu sohadagi manfaatlari doirasining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari mavjud.

Rossiyaning MTS, kommunikatsiya sohasida faoliyat ko'rsatuvchi kompaniyasining yurtimizga qiziqishi ahamiyatga molikdir. MTS Rossiya bozorida eng ko'p mijozlarga ega bo'lgan, o'zining xizmat ko'rsatish doirasi

¹¹⁸ «Бизнес Вестник Востока». 2005 й. 10 февраль

¹¹⁹ Ўша жойда

istiqbolli va ulkan salohiyatga ega kompaniyalaridan hisoblanadi. Ushbu kompaniya ham O‘zbekistonda o‘zining o‘rnini topishga harakat qilmoqda.

Tomonlararo iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi qishloq va suv xo‘jaligi hamda texnikaviy hamkorlikda ham kuzatilmoqda. Rossiyaning “Zarubejvodstroy” OAJ O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tashabbusi bilan tashkil etilgan drenaj – kollektor qurish yuzasidan o‘tkazgan tenderda ishtirok etdi¹²⁰. Ushbu loyihaga muvofiq qurilish ishlari 300 km.lik kanal qurilishi yuzasidan olib borilishi kerak edi. rossiyalik mutaxassislar bu tenderda, o‘zlarining qiymati 41,8 million AQSH dollariga teng bo‘lgan loyihasi bilan ishtirok etdilar. Ularning raqobatchilari bo‘lmish Xitoylik mutaxassislar taklif etgan loyiha qiymati 33,5 million AQSH dollarini, Eron tomoni mutaxassislari loyiha qiymati 33,9 million AQSH dollarini tashkil etardi. Rossiya vakili Yevgeniy Gruzenchuk, ular taklif etayotgan loyiha va xizmatlar har tomonlama raqobatbardosh va har qanday talabga javob berishini ta’kidladi. Ushbu loyihaning tenderda g‘olib chiqishi Rossiyalik mutaxassislarning har tomonlama yetuk salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi¹²¹.

Ushbu loyihani amalga oshirishda moliyaviy ishlar ikki tomonlama tashkil etildi. Jami loyiha ishining 64%ni Jahon banki, 36% O‘zbekiston tomoni o‘z bo‘yniga oldi.

13 aprel kuni YE.Gruzenchuk O‘zbekiston Qishloq va suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari SH.Hamroyev bilan uchrashdi. Uchrashuv chog‘ida tomonlar gidroqurilish sohasiga doir masalalarni o‘ko‘rib chiqishdi. Shuni aytib o‘tish kerakki, ushbu kompaniya 1963 yilda tashkil etilgan bo‘lib, 40 yildan ortiq faoliyati davomida Janubiy - Sharqiy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida 80 ta obyektни barpo etgan.

Rossiyaning “Promtraktor” OAJi 2005 yilda O‘zbekiston uchun o‘z texnikasini yetkazib berishni ko‘paytirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi. O‘zbekistonliklar o‘tgan 2004 yilda ushbu zavod texnikasidan 20 ta olgan edilar. Albatta, bu raqam Cheboksardagi zavod uchun juda kamdir¹²².

Har ikkala tomon tovar aylanmasini ko‘paytirish uchun albatta shartnoma – huquq asoslarini yaratishlari zarur bo‘ldi. 2005 yil 17 – 19 may kunlarida Toshkent shahrida OGU- 2005 ko‘rgazmasi tashkil etildi. Bu ko‘rgazmada Rossiyaning bir qator firma va kompaniyalari ishtirok etdilar. Ular o‘zlarining imkoniyat va ehtiyojlaridan kelib chiqib, har ikki tomon uchun foydali bo‘lgan shartnomalar tuzishga harakat qildilar. “Promtraktor” OAJ ham bu jarayondan chetda qolmadi. Kompaniya matbuot xizmatining xabar qilishicha, bir qancha foydali bitimlar

¹²⁰ «Бизнес Вестник Востока». 2005 й. 10 апрель

¹²¹ Ўша жойда

¹²² «Бизнес Вестник Востока». 2005 й. 2 июнь

imzolangan. Ushbu shartnomalarga ko‘ra. “Promtarktor” OAJ O‘zbekistonlik o‘z sheriklariga 2005 yil oxirigacha 40 dona buldozer yetkazib berish majburiyatini oldi¹²³. Albatta, bu kabi texnika va texnik vositalariga xizmat ko‘rsatish shaxobchalari Toshkent shahrida mavjuddir va ular bir necha yillardan buyon o‘z mijozlariga sifatli va kafolatli xizmat turlarini taklif etmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi bilan manfaatli sherikchilikni yo‘lga qo‘ygan Rossiya kompaniyalaridan yana bir bu – “AVTOKRAZ”dir. Ushbu gigant zavod sobiq Ittifoqda ham samarali faoliyat ko‘rsatgan edi. U ishlab chiqargan og‘ir yuk tashishga mo‘ljallangan mashinalar MDH davlatlari va yaqin xorij davlatlarida shuxrat qozongan. Ushbu marka ko‘p yillar davomida sifat belgisini yo‘qotmay, kafolatli va ishonchli zavodlardan biriga aylandi. “AVTOKRAZ” 1994 – 2002 yillarda O‘zbekistonga 16 ta o‘z texnikasini yetkazib bergan edi. 2003 yil davomida 24 ta mashina keltirildi. 2004 yilda 36 ta, 2005 yilda esa 100 tani tashkil etadi¹²⁴.

Ma’lumki O‘zbekistonning tog‘li hududlarida, cho‘l zonalarida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Ushbu ishlarning samarali borishida “AVTOKRAZ” mashinalarining muhim o‘rni bor. Hozirgi kunda ham bu boradagi hamkorlik davom etmoqda.

Moskvaning “Spetsavtotexnika” kompaniyasining bosh distribyutori imzolagan shartnomaga ko‘ra O‘zbekistonning O‘zEnergo tashkilotiga Kraz – 65032 mashinalaridan 40 dona yetkazib beriladi. Ushbu mashinalar qatnash qiyin bo‘lgan va noqulay ob – havo sharoitli hududlarda ishlatishga juda qulaydir¹²⁵.

Hamkorlik darajasining yuqorilab borishi iqtisodiyotning taraqqiyotiga xissa qo‘shadi.

2005 yilning 10 – 11 oktabr kunlari Toshkent shahrida O‘zbekiston va Rossiya hukumatlararo komissiyasining 8 – yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bunda Rossiyalik delegatsiya a’zolariga sanoat federal agentligi rahbari B.S.Alyoshin rahbarlik qildi. O‘zbekiston tomoniga bosh vazir o‘rinbosari O‘tkir Sultonov rahbar edi. B.S.Alyoshinni O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov qabul qildi. Uchrashuv chog‘ida prezident Karimov aynan strategik sheriklik haqidagi bitim davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilishini yana bir bor ta’kidlab o‘tdi.

Komissiya yig‘ilishida tomonlarning o‘tgan 2004 yil mobaynida olib borgan ishlari to‘g‘risida hisobotlar ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, yoqilg‘i – energetika, mashinasozlik, kimyo sanoati va telekommunikatsiya sohalaridagi ishlar faollashgani qayd etildi. Komissiya ishida Rossiya O‘zbekiston investitsiya borasidagi

¹²³ Ўша жойда

¹²⁴ «Бизнес Вестник Востока». 2005 й. 20 июнь

¹²⁵ Ўша жойда

hamkorlik masalalariga alohida urg'u berildi. Tomonlar sarmoyalar kirgizish sohasidagi muammolarni hal etishda bir - birlari uchun shart - sharoitlar yaratish yuzasidan o'zaro yagona fikrga keldilar¹²⁶.

Umuman olib qaraganda, 2004 - 2005 yillarda davlatlarimizning savdo - iqtisodiy hamkorligi samarali bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi statistika xizmati ma'lumotlariga qaraganda, 2004 yilda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida tovar ayriboshlash hajmi 1,6419 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. 2005 yilning yanvar – avgust oylarida tovar ayriboshlash 2004 yilga qaraganda 38,4%ga ko'paydi. O'zbekistonga Rossiyadan keltiriladigan mahsulotlar 26,5%ga oshgan bo'lsa, O'zbekistondan Rossiyaga eksport qilish esa 54,1%ga oshganligi kuzatildi¹²⁷.

O'zbekistonda Rossiya kapitali bilan ishlovchi korxonalar sonining o'sishi kuzatilmoqda. 411 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. 2004 yilda ular soni 390 ta edi. Ushbu korxonalar savdo, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va boshqa tarmoqlarda faoliyat yuritmoqdalar.

2003 yildan 2005 yilga qadar agrar soha uchun Rossiyaning 1200 ta qishloq xo'jalik texnikasi realizatsiya qilindi. Bular: "Yenisey" kombayinlari, Krasnoyarsk mashinasozlik zavodi, Rosselmash traktorlari. Bundan tashqari, "Agromashxolding" AJ 2006 yilda O'zbekistonga 1,3 mingdan ortiq qishloq xo'jaligi texnikasini kelitirish va O'zbekistonda ularga xizmat ko'rsatish tarmog'ini vujudga keltirishni rejalashtirdi.

Mamlakatlarimizning hamkorlik salohiyatini maksimal darajaga yetkazish maqsadida hukumatlararo komissiya Rossiya vazirliklari, korxona va kompaniyalariga O'zbekiston tomonidan taklif etilgan investitsiya loyihalarini ko'rib chiqish va amalga oshirishni topshirdi¹²⁸.

O'zbekiston Respublikasi tovar xom – ashyo birjasi va Moskva fond birjasi o'rtasida har ikki tomon birja texnologiyalari asosida moliya va tovarlar davlatlararo tashkillashgan bozorini vujudga keltirish uchun kelishuv imzolandi. Bunday faoliyat moliya va tovar aylanmasini nazorat qilishda, tomonlar savdo faoliyatini kengayishi va tabiiy raqobat sharoitlarini vujudga kelishida rol o'ynaydi. Tomonlar birjalararo elektron savdolar tizimida yagona platforma sifatida O'zRTXAB elektron birja savdo dasturini qabul qilishga kelishdilar¹²⁹.

Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.Putin aytganidek:

¹²⁶ Халқ сўзи. 2005 й. 12 октябрь

¹²⁷ Ф.Мухаметшин. "Россия – Узбекистан. Экономическое сотрудничество в действии". Статья посла РФ в газете БВВ. <http://www.russia.uz>

¹²⁸ Ўша жойда

¹²⁹ Ф.Мухаметшин. "Россия – Узбекистан. Экономическое сотрудничество в действии". Статья посла РФ в газете БВВ. <http://www.russia.uz>

- “Hozirgi bu davr davlatlararo aloqalarning qurilishida yangi bosqichdir. Albatta, bu bizni so‘ngi yillarda bor kuchimiz bilan oldinga qadam tashlashimizning natijasidir”¹³⁰.

Davlatlarimiz o‘rtasida siyosiy muloqatlar ham faollashib bormoqda. Prezidentlar I.Karimov va V.Putinlar turli xalqaro forum va ikki tomonlama tashriflarda bir necha uchrashuvlarni o‘tkazishdi. O‘zbekistonda turli mazmundagi 60 dan ortiq delegatsiyalar mehmon bo‘lishdi. YA’ni xavfsizlik kengashi I.Ivanov, mudofa vaziri S.Ivanov va boshqalar. Toshkentda Rossiya tashqi ishlar vaziri S.Lavrov, transport vaziri I.Lebidin, fan va ta’lim vaziri A.Fursenko va boshqa vazirliklar vakillari bo‘lishdi.

Hamkorlik qirralarining keng quloqch yoyishini samalyotsozlikda ham ko‘rish mumkin. Aviasozlar Il – 76, Il – 114 rusumidagi samalyotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqdalar. Chkalov nomidagi TAIB DAI qo‘shimcha 2,5 ming mutaxassis va ishchilarni ishga qabul qilishi haqida e’lon qildi. Bu bilan u hozirgi kunda o‘z mahsulotini sotish va buyurtmalar olishda muammolar yo‘qligini ko‘rsatdi. Aviabirlashma ikki o‘rtada tuzilgan shartnomaga muvofiq Rossiya va boshqa mamlakatlarga 2004 yilda 15 ta havo kemasini yetkazib berdi¹³¹.

“Vimm Bill Dan” konserni ham O‘zbekiston Respublikasi hukumatidan bojxona va soliq imtiyozlariga ega bo‘lib, respublika aholisini sut va sut mahsulotlari bilan ta’minlamoqda. “Toshkentsut” korxonasida kuniga 69 tonna sut mahsulotlarini qayta ishlovchi yangi texnologiyalar o‘rnatildi.

“Andijon Kabel”, “Transpromresurs” korxonalari ham foydali hamkorlikni yo‘lga qo‘ydilar¹³².

Tomonlarni avtomobil bozori bilan bog‘liq aloqalariga to‘xtab o‘tish zarurdir. Hammaga ma’lumki, Rossiya bozorida Nexia va Matiz o‘z o‘rnini topdi. 2004 yilda Rossiya bozorida eng ko‘p sotilgan avtomobillar “UzDEUAvt”ga tegishlidir. O‘z navbatida O‘zbekistonda ham “Lada”, “Volga”, “Kamaz”larning o‘z o‘rni bor¹³³.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov 28- 29 iyun kunlari Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.Putinning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Moskva shahrida bo‘ldi¹³⁴.

Toshkent va Moskvaning ko‘plab xalqaro muammolarga munosabati o‘xshash yoki yaqindir. Ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish borasidagi qarash va

¹³⁰ Ўша жойда

¹³¹ Ф.Мухаметшин. “Под знаком стратегического партнёрства”. Статья посла РФ в газете Труд. <http://www.russia.uz>

¹³² Ф.Мухаметшин. “Под знаком стратегического партнёрства”. Статья посла РФ в газете Труд. <http://www.russia.uz>

¹³³ Ўша жойда

¹³⁴ Народное слова. 2005 й. 30 июнь

intilishlari mushtarak, O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi, barcha sohalarida o‘zaro aloqlar ko‘llamini kengaytirishdan manfaatdordirlar.

Rossiya tashqi ishlar vazirligi rasmiy vakili A.Yakovenko ushbu tashrif yuzasidan shunday dedi:

- “Bunda rus va o‘zbek hamkorlik aloqalarini kengaytirish, savdo – iqtisodiy, YOEK va boshqa sohalaridagi munosabatlar istiqboli ko‘rib chiqiladi”¹³⁵.

Bundan tashqari, tomonlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy va harbiy – texnikaviy hamkorlik, kosmik tadqiqotlar borasidagi aloqalarga huquqiy asoslar yaratish masalalari rejalashtirilganligini bildirib o‘tdi.

- “Uchrashuvlarning bosh mavzularidan biri – xalqaro terrorizm va boshqa global muammolar va tahdidlarga kurash masalasidir. Rossiya va O‘zbekistonning MDH, SHHT va boshqa xalqaro mintaqaviy tashkilotlar doirasida va o‘zaro tarzda bunday hamkorligini chuqurlashtirishning konkret yo‘llari ko‘rib chiqilmoqda.” – deb so‘zini davom ettirdi A.Yakovenko¹³⁶.

Ushbu muammolar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov:

- “Milliy xavfsizligimizga chetdan real tahdid solayotgan mintaqaviy mojarolar na Markaziy Osiyoda, na butun dunyo miqyosida barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Bu mojarolarning katta salbiy salohiyati butun dunyo ko‘lamida halokatli oqibatlariga olib kelishga qodir.

... O‘zbekiston, respublikamiz bilan chegaradosh mamlakatlardagi harbiy, siyosiy mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etishga, ularni oldini olishga qaratilgan har qanday harakatlarni amaliy qadamlarni qo‘llab – quvvatlab keldi va bundan buyon ham qo‘llab - quvvatlayveradi” – deb ta’kidlagan edi¹³⁷.

Prezident I.Karimovning Moskvaga bu galgi tashrif chog‘ida Rossiya prezidentining Novo Ogorevo qarorgohida o‘tgan muzokaralar, savdo – iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy – madaniy, harbiy va harbiy texnikaviy aloqalar masalalari muhokamasiga bag‘ishlandi.

I.Karimov va V.Putin hamkorlik ko‘llamini muttasil kengaytirib borish, savdo - iqtisodiy aloqalarga doir ko‘rsatkichlarning oshib borayotganini, ushbu tashrif o‘zaro aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladilar. Novo Ogorevo uchrashuvida madaniyat va san’at, ta’lim, ekologiya va umuman ijtimoiy hayotning barcha sohalarida izchil muloqatlar yo‘lga qo‘yilganligini aytib o‘tdilar.

Prezidentlar xalqaro tashkilotlar, jumladan SHHT doirasidagi hamkorlik yuzasidan fikr almashdilar¹³⁸.

¹³⁵ <http://www.dni.ru/news>

¹³⁶ “Ўзаро ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш йўлида”. Prezidents_office@press_service.uz

¹³⁷ И.Каримов. “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”. Т.Ўзбекистон. 1997 й. 32-33 бетлар

¹³⁸ “Ўзаро ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш йўлида”. Prezidents_office@press_service.uz

O‘zbekiston va Rossiya rahbarlari xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash va harbiy hamkorlik masalalariga alohida to‘xtaldilar. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov joriy yilning 13 may kuni Andijonda ro‘y bergan voqealar xorijdagi ekstremistik markazlar tomonidan tayyorlangan operatsiya ekanligini, unga MDH, shu jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarida sodir bo‘layotgan jarayonlardan ayri hodisa sifatida qarash mumkin emasligini ta’kidladi.

Andijon voqealari MDH mamlakatlarida uyushtirilayotgan turli “rangli inqiloblar”dan farqli o‘laroq, mutlaqo yangi shakl va qiyofada amalga oshirilgan mudhish fitnadir. Bu gal “ssenariy mualliflari” va “rejisyorlari” “demokratiyaparast” olamonni namoyishga olib chiqmadi.

O‘zbekistonning mustaqil siyosatini ko‘ra olmaydigan, Markaziy Osiyoda vaziyatni izdan chiqarish niyatida bo‘lgan bu “qahramonlar” olamon o‘rniga, qo‘poruvchilik bo‘yicha yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan terrorchi va ekstremistlarni ishga soldi – dedi I.Karimov.

Rossiya prezident V.Putin o‘z navbatida, O‘zbekiston rahbarining operatsiya xorijda tayyorlanganligi haqidagi fikrini tasdiqlab, o‘sha kunlari Afg‘onistonda jangarilarning harakatga tushib qolganini va ayrim mamlakatlar chegaralari yaqinida qo‘poruvchi guruhlar to‘planganligini kuzatilganligini va bundan Rossiya maxsus xizmatlari xabardor edi, deb aytib o‘tdi¹³⁹.

2005 yil 14-15 noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo‘ldi. Xo‘sh bu tashrifdan yana qanday maqsadlar ko‘zlangan edi? aytish kerakki, bu uchrashuv O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Yillar mobaynida hamkorlik natijasida ikki tomonlama savdo – iqtisodiy munosabatlar xalq xo‘jaligining qariyb barcha tarmoqlarini qamrab oldi. Savdo – sotiq, telekommunikatsiya, energetika, sug‘urta, bank, moliya sohalaridagi hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Mutaxassislar joriy 2005 yil yakunida o‘zaro savdo hajmi 2 milliard AQSH dollaridan oshishini ta’kidlab o‘tdilar¹⁴⁰.

Ushbu muzokaralar chog‘ida prezidentlar xalqaro tashkilotlar jumladan, YevroOsiyo IH va SHHT doirasidagi aloqalar bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilishdi. Prezidentlar O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida ittifoqchilik to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar¹⁴¹.

Ma’lumki, prezidentlarning oktabr oyidagi Sankt Peterburg shahrida bo‘lgan uchrashuvida mamlakatimiz rahbari ikki o‘rtada ittifoqchilik munosabatlarini o‘rnatish uchun imkoniyatlar yetarli ekanligini va bunday munosabatlar ikki tomon manfaatlariga mos ekanligini aytib o‘tgan edi. Bu taklif hayotda o‘z aksini topdi.

¹³⁹ Ўзбекистон – Россия: иттифоқчи давлатлар. Prezidents_office@press_service.uz

¹⁴⁰ Ўзбекистон – Россия: иттифоқчи давлатлар. Prezidents_office@press_service.uz

¹⁴¹ Независимая газета. 2005 й.15 ноябрь

Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomaning mantiqiy davomi bo'lgan mazkur xujjatlar ikki mamlakat hamkorligini huquqiy asosini ittifoqchilik tamoyillari bilan mustahkamlaydi.

O'z navbatida Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.Putin bu shartnomani jiddiy yangi qadam deb baholadi. U, shartnoma Rossiya va O'zbekiston munosabatlari barcha yo'nalishlardagi kerakli huquqiy asoslarni yaratadi deb ta'kidlab o'tdi¹⁴².

Yaxshi qo'shnichilik – o'zbekning qadimiy an'anasidir. Xalqimiz azal – azaldan shodlikni baham ko'rib, musibatni birga yengib kelgan. Biror to'y – maraka, biror tadbir qo'ni – qo'shnisiz, mahalla – kuysiz o'tmaydi. 15 yildan beri mustaqil hayot kechirib kelayotgan O'zbekiston ham xalqimizning ana shu qadim an'anasiga mos siyosat yuritmoqda. Mamlakatimiz qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlashga, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor bilan yondashadi. "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida"gi shartnoma buning isbotidir.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi ham ikkalasi ilgari biror bir davlat bilan bunday munosabatga kirishmagan. Shunisi muhimki, shartnoma teng huquqlilik, o'zaro xurmat va ishonch tamoyillari asosida ishlab chiqarilgan. YA'ni mazkur xujjat, eski davrga qaytishni ham, bir davlatning ikkinchisiga qaram bo'lishini ham nazarda tutmaydi. Ikki davlat bir – birlarinng ichki ishlariga aralashmaydi.

Ushbu shartnomada hamkorlikning barcha yo'nalishlari o'z aksini topgan. Shartnomaning ikkinchi moddasi tomonlarning o'zaro xavfsizligini ta'minlashlari haqidadir¹⁴³.

Tomonlar BMT Nizomining 51 moddasiga binoan kollektiv mudofaani amalga oshirishadi. Ko'rinib turibdiki, tomonlarning xavfsizligi o'zaro ta'minlanmoqda va bu xalqaro huquq normalariga mos keladi.

Shartnomaning 3-4 moddalari ham shu masalaga bag'ishlangan.

Tomonlar global va mintaqaviy masshtabda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda birgalikda harakat qiladilar. Muammolarni hal etish, nizolarni tinch yo'l bilan yechishda BMT va Xavfsizlik Kengashi rolini oshirish, YEHTT xujjatlari tamoyillarini amalga oshirishga e'tibor qaratishlarini shartnomada ko'rsatib o'tishgan (5 - modda). Bundan tashqari, shartnomada xalqaro terrorizm, ekstremizmga qarshi birgalikda kurash harbiy, harbiy texnikaviy hamkorlik, tovar bozori, savdo – bojxona, moliya masalalaridagi hamkorlikni kuchaytirish ham o'z aksini topgan¹⁴⁴.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek Shartnoma mamlakatlarning mudofaa sohasidagi manfaatlariga xizmat qilishi bilan

¹⁴² Ўша жойда

¹⁴³ Россия Федерацияси ва Ўзбекистон Республикаси ўртасидаги "Иттифоқчилик муносабатлари тўғрисида"ги шартнома. <http://www.russia.uz>

¹⁴⁴ Ўша жойда

cheklanmaydi. Yana shunga e'tibor qilish kerakki, tinchlikni mustahkamlash, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalasi nechog'li dolzarb bo'lsa, savdo – iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik ham shunchalik muhim. Tinchlik va taraqqiyot bir – biridan ajralmas tushunchadir. Zero, tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik bor joydagina taraqqiyot, rivojlanish bo'ladi.

Oliy darajadagi kelishuvga muvofiq bir tomon fuqarolari va yuridik shaxslarning ikkinchi tomon hududidagi huquqlarini ta'minlash va manfaatlarini himoyalashning o'zaro savdo – iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish va rivojlantirishning samarali choralari ishlab chiqildi. Bunda tovarlar, xizmatlar, sarmoya va ishchi kuchi bozorlarini ravnaq toptirish, soliq, pul – kredit, valyuta – moliya, savdo va bojxona borasida o'zaro kelishilgan siyosat yuritish, sarmoyalarni rag'batlantirish va himoya qilish nazarda tutiladi. Ishbilarmonlik faoliyati yuritish, ishlab chiqarishni birgalikda rivojlantirish, o'zaro manfaatli iqtisodiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ikki mamlakat xo'jalik subyektlari qulay iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy sharoit bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi savdo – iqtisodiy aloqalari rivojlantirishga yo'l ochish maqsadida milliy va xalqaro transport infratuzilmalarini rivojlantirish va ulardan foydalanish, sohaga tashqi sarmoya jalb etish borasidagi hamkorlikni kengaytirishga ham kelishib olindi.

Shuningdek, fan – texnika, energetika va boshqa sohalarda teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik yanada rivojlanitiriladi. O'zaro hamkorlik ikki tomonlama asosda va xalqaro maydonda izchil ravnaq topishi uchun turli darajadagi maslahatlashuvlar yo'lga qo'yiladi. Davlat rahbarlari parlamentlar, hukumatlar, Xavfsizlik Kengashlari, tashqi siyosat, mudofaa va huquqni himoya qilish mahkamalari, boshqa vazirlik va idoralar o'rtasida muntazam muloqatlar ta'minlanadi (13 - modda)¹⁴⁵.

Bularning barchasi O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlarning bugungi bosqichi tabiiy jarayon, o'ziga xos qonuniyat, strategik hamkorlikni mantiqiy davomi ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, Islom Karimovning 2005 yil 6-7 oktabr kunlari Sankt Peterburg shahriga tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasining YevroOsiyo IHiga a'zo bo'lishiga kelishib olingan edi. Ushbu jarayonni amalga oshirish uchun I.A.Karimov 2006 yil 24 yanvar kuni YevroOsiyo IH a'zo mamlakatlar rahbarlari Davlatlararo kengashining navbatdan tashqari majlisida ishtirok etish uchun Rossiya Federatsiyasining Sankt Peterburg shahriga tashrif buyurdi. I.Karimov safar oldidan jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvida bunga yana bir bor izoh berdi:

¹⁴⁵ Россия Федерацияси ва Ўзбекистон Республикаси ўртасидаги "Иттифоқчилик муносабатлари тўғрисида"ги шартнома. <http://www.russia.uz>

- “YevroOsiyo iqtisodiy hamjamiyati va Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti o‘zining maqsad va vazifalari nuqtai nazaridan bir - biriga o‘xshash edi. Ushbu davlatlarning kuch – qudratini, imkoniyatlarini birlashtirib, yagona maqsad sari yo‘naltirilsa, bu albatta o‘z samarasini beradi. Bundan tashqari yangi tuzilma vaqtni tejash, bir masalani ikki marta muhokama qilmaslik, ortqcha sarf – harajat va tashkiliy ishlardan chekinib, ko‘proq amaliy ishlarga o‘tish imkonini beradi”.¹⁴⁶

2006 yil 24-25 yanvardagi tashkilotning samiti O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimov ishtirokida prezidentlarning tor doiradagi uchrashuvi bilan boshlandi. Unda asosiy diqqat – e’tibor O‘zbekistonni hamjamiyatga a’zo bo‘lib kirishi bilan bog‘liq masalaga qaratildi.

Shu o‘rinda YevroOsiyo IH xususida. 1996 yil 20 yanvarida Rossiya, Belorusiya va Qozog‘iston o‘rtasida uch tomonlama bojxona ittifoqi to‘g‘risidagi bitim imzolangan edi. keyin unga Qirg‘iziston va Tojikiston qo‘shilishdi. 2000 yilda bojxona ittifoqining besh a‘zosi YevroOsiyo IH tashkil etish to‘g‘risida kelishib oldilar. 2003 yil aprelida BMT kotibiyatida ro‘yxatdan o‘tdi. 2004 yil yanvaridan BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomini oldi¹⁴⁷.

O‘zbekiston bu tashkilotga a’zo bo‘lgandan so‘ng YevroOsiyo IH ishtirokchilari soni oltitaga yetadi. Hududi 20797 ming kv.km. ga yetdi, aholisi 200 million kishini tashkil etdi. Armaniston, Moldaviya, Ukraina kuzatuvchi maqomini olishgan.

Tashkilot doirasida bojxona ittifoqi, yagona iqtisodiy makonni shakllantirish ko‘zda tutiladi. Tashqi iqtisodiy, savdo, ijtimoiy – gumanitar, huquq sohalari tashkilotning hamkorlik masalalari turkumiga kiradi.

Quyidagilar asosiy maqsad va vazifalar hisoblanadi:

- Tashqi savdo sohasida: erkin savdo, yagona boj tariflarini ishlab chiqish, ishtirokchilar o‘rtasida tovar – xizmatlar borasida yagona qoidalar yaratish;
- Iqtisodiy sohada: kelishilgan tuzilmaviy qayta qurishlar, ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni birgalikda dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- Ijtimoiy sohada: milliy ta’lim tizimlarini uyg‘unlashtirish, fan va madaniyatni rivojlantirish, a’zo davlatlar fuqarolariga ta’lim va meditsina xizmatlarini ko‘rsatishda teng huquqlar yaratish;
- Huquq sohasida: qonunchilikni uyg‘unlashtirish, Hamdo‘stlik doirasida a’zolarining huquqiy tizimlari munosabatlarini yo‘lga solish uchun yagona huquqiy makon yaratish¹⁴⁸.

Hamdo‘stlik boshqaruv tizimi:

¹⁴⁶ Ўзбекистон – Россия: иттифокчи давлатлар. Prezidents_office@press_service.uz

¹⁴⁷ “Узбекистан стал членом ЕВРАЗЭС”. <http://www.russia.uz>

¹⁴⁸ Труд. 2006 й. 1 февраль

1. Ijroiya – davlatlararo kengash, integratsion qo‘mita;
2. Qonunchilik – Parlamentlararo Assambleya;
3. Sud – Hamdo‘stlik sudi.

Hamjamiyatning oliy organi davlatlararo kengash bo‘lib, uning tarkibiga a‘zo davlatlarning rahbarlari kiradi¹⁴⁹.

Ushbu tashkilotga O‘zbekistonning a‘zo bo‘lib kirishi, mamlakatimiz oldida ulkan imkoniyatlar ochishi mumkin. Tashkilot MDH doirasida hamkorlik, savdo – iqtisodiy, ijtimoiy – madaniy va boshqa sohalardagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Ushbu tashkilot bilan bog‘liq shartnomalar parlamentimiz tomonidan ratifikatsiya qilindi¹⁵⁰.

¹⁴⁹ Ўша жойда

¹⁵⁰ Халқ сўзи. 2006 й. 28 февраль

II.2. Davlatlararo ijtimoiy, madaniy va harbiy – texnikaviy hamkorlikning yangi tizimini o‘rganish

Davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarning yillar davomida rivojlanib borishi, o‘zaro manfaatli aloqalarni ko‘p sohada chuqurlashtirishga olib keldi. Ikki o‘rtada imzolangan “Strategik sheriklik” to‘g‘risidagi va “Ittifoqchilik munosabatlari” to‘g‘risidagi bitimlar mintaqamiz va yurtimizda tinchlik, barqarorlikni ta‘minlash uchun poydevor bo‘ldi. Shu bilan birga mamlakatlarimiz o‘rtasidagi madaniy, ijtimoiy, harbiy sohalarida hamkorlik yana yangi bosqichga chiqdi. 2004 yil 16 iyunda imzolangan “Strategik sheriklik” to‘g‘risidagi bitimning 12 – moddasida:

- Tomonlar ijtimoiy, madaniy sohalarida tashkilotlar, uyushmalar o‘rtasidagi aloqa va almashinuvlarni o‘rnatish va qo‘llab – quvvatlashlari ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlarda ko‘zlangan dastur va ishlarni amalga oshirish orqali gumanitar sohadagi hamkorlikni rivojlantiradilar – deyilgan¹⁵¹.

Ushbu fikrlar albatta, tomonlararo bo‘ladigan yaqinlashuvga yangi zamin tayyorladi, keyingi hamkorlik uchun asos yaratdi.

2005 yil 15 noyabrdagi bitimning 12 – moddasida:

- Tomonlar gumanitar sohadagi hamkorlik qiluvchi fuqarolar uchun bevosita aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun shartnoma huquqiy asosni yaratish shart - sharoitlarini ta‘minlaydilar – deb ko‘rsatib o‘tilgan¹⁵².

Ushbu yaratilgan shartnomaviy huquq asoslari ikki o‘rtada yuqoridagi sohalarida faoliyat ko‘rsatadigan fuqarolar uchun muhim hisoblanadi. Hozirda Rossiyaning V.M.Lomonosov nomidagi MDU ni Toshkent shahrida filialini ochish mo‘ljallanmoqda. Yana 2006 yilda Rossiyada O‘zbekiston madaniyat kunlari, 2007 yilda esa O‘zbekistonda Rossiya madaniyat kunlari o‘tkazish mo‘ljallangan¹⁵³.

Davlatlarimiz o‘rtasida ijtimoiy sohada munosabatlarimiz rivojlanmoqda. 2005 yilda Dunyo hamjamiyati ikkinchi jahon urushi tugalganligining 60 yilligini nishonladi. MDH davlatlari shu jumladan, O‘zbekiston xalqi 1941 – 1945 yillardagi Ulug‘ Vatan urushida qozonilgan g‘alabani ham nishonladi. Bu bayram 1999 yildan O‘zbekistonda “Xotira va qadrlash kuni” kuni sifatida bayram qilinadi¹⁵⁴.

O‘zbekistondagi Rossiya Federatsiyasi elchixonasi, “Roszarubejsentr” va Rus madaniyat markazi bilan hamkorlikda 50 dan ortiq turli bayram tadbirlari o‘tkazildi. YA’ni urush faxriylari bilan uchrashuvlar, bayram konsertlari, teatr uchrashuvlari shular jumlasidandir. Maktablarda G‘alaba darslari o‘tkazilib, o‘quvchilar orasida “Hech kim, hech narsa unutilmaydi” mavzusida eng yaxshi

¹⁵¹ Халқ сўзи. 2004 й. 22 июнь

¹⁵² Договор о союзнических отношениях между РФ и РУз. <http://www.russia.uz>

¹⁵³ Правда Востока. 2005 й. 9 декабрь

¹⁵⁴ О гуманитарном сотрудничестве в 2005 году. <http://www.russia.uz>

ijodiy ish mavzusida konkurs o'tkazildi. Bunday tadbirlar O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Termiz, Navoiy shaharlarida ham o'tkazildi.

Rossiya Federatsiyasining elchisi F.Muxametshin vatandoshimiz Sovet Ittifoqi Qahramoni G'ulom Karimovga va 5 ta "Shuxrat" ordeni kavalerlariga Rossiya prezidenti V.Putinning shaxsiy tabrigi va sovg'alarini topshirdi.

Kinochilar uyida "Bu yo'llarni unutishimiz mumkin emas" shiori ostida, Zamonaviy san'at markazida "Tinchlikning qaytishi" mavzuidagi fotograflarning badiiy, xujjatli ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Rus drama teatrida faxriylar uchun "G'alaba kuni" nomli konsert ayniqsa muvaffaqiyatli o'tdi. Rossiya elchixonasida ham tadbirlar tashkil etildi.

Rossiya elchixonasi tomonidan tashkil etilgan dasturda O'zbekistondagi boshqa diplomatik korpuslar ishtirok etdilar. Elchixona ma'lumotlariga qaraganda, yubiley tantanalarida 20000 dan ortiq urush faxriylari qatnashdilar¹⁵⁵.

Toshkent va boshqa viloyat markazlarida Rossiya kuni, Boshqirdiston Respublikasi kuni, Qozon shahrining 100 yilligi kabi Rossiyaning milliy bayramlariga bag'ishlangan tantanali tadbirlar o'tkazildi.

Vatandoshlarimiz, tatar millatiga mansub fuqarolarimiz vakillari uchta delegatsiyasi Qozon shahriga yuborildi.

Yana bir muhim tadbirlardan biri, bu yil 1 martda uyushtirilgan Xalq Birligi Kunini bayram qilinishi bo'ldi. Bu yerda ham elchixona va "Roszarubejsentr" tashkiloti va barcha Rus madaniyat markazlari urush faxriylari bilan uchrashuvlar uyushtirdilar va muxtojlariga moddiy yordam ko'rsatdilar. Rus qo'shiqlaridan tuzilgan konsert, "Russkiye uzori" festivali o'tkazildi, mehribonlik uylari nogironlar jamiyatiga tashriflar tashkil etildi.

Urush va mehnat faxriylariga jami 1800 kishiga moddiy yordam ko'rsatildi. 550 dan ortiq insonga sanatoiy va sog'lomlashtirish maskanlariga yo'llanmalar berildi. Bu ishlarni amalga oshirishda O'zbekistondagi Rossiya kompaniyalari homiylik qildilar. Rossiya aviakompaniyalari faxriylarga Rossiyaga bepul borishlarida yordam beradigan bo'ldilar. Bir qator qo'shma korxonalar esa dori - darmon, maishiy texnika va boshqa kerakli xizmatlarini amalga oshirishni zimmalariga oldilar.

Rossiya elchisining taklifiga binoan, 11 may kuni faxriylar elchixonada bo'ldilar va u yerda diplomatlar va mahalli OAV vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi¹⁵⁶.

¹⁵⁵ Ўша жойда

¹⁵⁶ О гуманитарном сотрудничестве в 2005 году. <http://www.russia.uz>

Elchixon bu ishlarni amalga oshirish chog'ida ko'plab minnatdorchilik mazmunidagi xatlarni oldi. Ularning ijtimoiy va madaniy mazmundagi bunday ishlari taxsinga loyiqdir.

Rossiya Federatsiyasining zrdagi favqulotda va muxtor elchisi F.M.Muxametshin Rossiya hukumati nomidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga 107 ming nusxada darsliklar, uslubiy va badiiy adabiyotlarni taqdim etdi. Ularning 2/3 qismini rus tili va adabiyoti darsliklari tashkil qiladi.

Rus tili asosiy fanlardan biri sifatida O'zbekistonning 9552 maktabida 2-11 sinflarda o'qitiladi. 25390 o'qib ta'lim oladigan Respublikaning 443 maktabida rus tili chuqurlashtirib o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi 2002 yildan boshlab Rossiyadan ijtimoiy yordam sifatida 89498 nusxada darsliklarni oldi¹⁵⁷.

O'zbekistonning "Ijtimoiy fikr" nodavlat markazining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonliklarning 80% Rossiyani ishonchli ittifoqchi deb hisoblashadi. Bu juda ijobiy berilgan bahodir – deb ta'kidladi Rossiyaning elchisi F.Muxametshin¹⁵⁸.

2003 - 2004 o'quv yilida o'zbek yoshlarini Rossiya oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari uchun 108 ta o'rin ajratilgan edi¹⁵⁹. Bu harakatlar yoshlarning ta'lim olishlari va davlatlarimizning ta'lim sohasidagi hamkorligining muhim poydevoridir. Bunday ishlarni amalga oshirilishida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan "Roszarubejsentr" (Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik markazi) faoliyatini alohida ta'kidlash zarur.

Ushbu tashkilot Rossiya Federatsiyasi prezidenti V.Putinning farmoni bilan 2002 yil 5 fevralda va Rossiya hukumatining 2003 yil 16 avgustdagi qarori bilan tashkil etilgan¹⁶⁰.

Ushbu markaz ijtimoiy, ilmiy - texnikaviy, madaniy, axborot va boshqa sohalarda xalqaro hamkorlik dasturini amalga oshiradi. Rossiya xalqlari tarixi, madaniyati, ichki va tashqi siyosati, ilmiy - madaniy salohiyati bilan tanishtiradi. Xorijda yashayotgan ruslar bilan aloqalarni mustahkamlash, Rossiya Federatsiyasini ta'lim sohasidagi xalqaro aloqalarini rivojlantirishda hamkorlikni amalga oshiradi. Markaz o'z oldiga ko'pgina vazifalarni qo'ygan holda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Axborot fondlarini tashkil etish
- Rossiya ichki va tashqi siyosati masalalari bo'yicha konferensiyalar, seminarlar tashkil etish va boshqalar.

¹⁵⁷ <http://www.dni.ru/news>

¹⁵⁸ Ф.Мухаметшин. Статья посла РФ в газете БВВ <http://www.russia.uz>

¹⁵⁹ Ўзбекистон – Россия. <http://www.uzbekistan.mid.ru>

¹⁶⁰ Информация о Зарубежцентре. <http://www.rciscc.ru>

Bundan tashqari, xorij fuqarolarini Rossiya Federatsiyasida ta'lim olishlari va malaka oshirishlarida hamkorlik qiladi. Umuman olganda, markaz faoliyati o'z yo'nalishi bo'yicha o'z oldiga qo'ygan maqsad, vazifalari va faoliyati bilan o'rtadagi ijtimoiy - madaniy aloqalarni rivojlantirishda o'zining muhim o'rniga ega¹⁶¹.

Ushbu markaz vakolatxonasi maktablar, oliy va o'rta – maxsus ta'lim muassasalari bilan aloqa munosabatlarini o'rnatgan. "Roszarubejsentr" qoshida rus tili fani uslubiy xonasi faoliyat ko'rsatadi. U yerda rus tili va adabiyoti o'qitilishi muammolari bo'yicha turli amaliy mashg'ulotlar tashkil etiladi. Oxirgi yillarda O'zbekistonlik o'quvchilar Rossiyada o'tkaziladigan rus tili fani bo'yicha xalqaro olimpiadalarda ishtirok etib kelmoqdalar.

23 nafar o'qituvchi Pushkin mukofotining laureati bo'lishdi¹⁶².

Markaz o'z faoliyati davomida ta'lim tizimidagi hamkorlikni rivojlantirib kelmoqda. Bunga 1993 – 1995 yillarda imzolangan hukumatlararo bitimlar huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston singari Rossiyada ham ta'lim sohasida islohatlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston yoshlarining Rossiya oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishga qiziqishlari kattadir. Ijtimoiy so'rovlar natijasiga ko'ra, Rossiya OO'Yulari AQSH va Angliyadan so'ng uchinchi o'rindadir. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tashqi aloqalar boshqarmasi boshlig'i Y.Ergashev fikricha bunday harakatlarga Moskva va Sankt Peterburgning yetakchi OO'Yulari qo'shilsa, ijobiy natijalar kelib chiqishi mumkin¹⁶³.

Markaz o'z faoliyati davomida adabiyot, teatr va kinoda hamkorlik faoliyatini amalga oshirmoqda. Navoiy nomli opera va balet teatrida M.Glinkaning 200 yilligiga bag'ishlangan musaqaviy kecha, O'zbekiston yoshlari teatrida A.S.Pushkinning 205 yilligiga bag'ishlangan ilmiy konferensiya, O'zbekiston Milliy Universitetida A.Axmatovaning 115 yilligi o'tkazildi.

2005 yil davomida Rossiya elchixonasi "Roszarubejsentr" bilan birgalikda 40 dan ortiq turli madaniy tadbirlarni o'tkazdi. P.I.Chaykovskiy tavalludining 165 yilligiga bag'ishlangan musiqiy festivalida bir qator Rossiyalik cholg'u ustalari ishtirok etishdi. A.P.Chexov, S.A.Yesenin, I.B.Livityanlarning yubileylariga bag'ishlangan bir qator tadbirlar ham muvaffaqiyatli o'tdi. Elchixona O'zbekiston Respublikasidagi rus teatrlaridagi "Doktor Chexov laboratoriyasi" (Ilhom), "Olchali bog'" (Rus drama teatri), "Yevgeniy Onegin" (Navoiy) postanovkalarini qo'llab – quvvatladi. Bir qator teatr arboblari Moskva, Sankt Peterburg shaharlarida bo'ldilar. O'zbekiston yoshlari teatri Rossiyada gastrollar o'tkazdi¹⁶⁴.

¹⁶¹ Информация о Зарубежцентре. <http://www.rciscc.ru>

¹⁶² Правда Востока. 2004 й. 8 июль

¹⁶³ Росзарубежцентр. <http://www.rciscc.ru>

¹⁶⁴ Ф.Мухаметшин. Статья посла РФ в газете БВВ. <http://russia.uz>

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi ijtimoiy - madaniy aloqalar rivojlanmoqda. Ikki mamlakat madaniyat arboblari tomonidan tuzilgan "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" fondi faoliyati ijobiy bahoga loyiqdir. Moskva va Sankt Peterburg shaharlarida Navoiy nomidagi opera va balet teatri san'atkori M.Razzoqovanning gastrollari bo'lib o'tdi. Toshkentda esa Irina Peren, Danil Korsunsevlar tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldilar. Dima Bilanning chiqishlari yoshlarimiz tomonidan iliq kutib olindi.

Rossiya mo'yqalam ustasi V.Sidirovning asarlari vatandoshlarimizni hayratda qoldirdi¹⁶⁵.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan Rus milliy madaniy markazlarining ham xissasi bor. Ular O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish va davlatlar o'rtasidagi milliy manadniy aloqalarni tashkil etishda o'z xissalarini qo'shmoqdalar.

Rus milliy madaniy markazlari mustaqillikka erishganimizdan so'ng birinchilardan bo'lib tashkil topdi. Markaz 1994 yilda nodavlat, notijorat tashkilot sifatida yuzaga keldi. U o'z tarkibiga aholining barcha qatlamlari vakillarini birlashtirdi. Ular rus madaniyatini saqlash va rivojlantirishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Ushbu markaz faoliyati Rossiya Federatsiyasining elchixonasi va "Roszarubejsentr" bilan bog'liqdir. Ular birgalikda ko'plab tadbirlar o'tkazadilar.

Rossiya elchixonasi homiyligida Rus milliy madaniy markazi delegatsiyasi "Moskva – XXI asr vatandoshlariga" xalqaro konferensiyasida ishtirok etishdi. Unda Moskva ma'muriyati ko'magida xorijdagi vatandoshlar tashkilotlari ijodiy hamkorlik kompleks dasturi qabul qilindi.

O'zbekistonlik bir guruh ziyolilar vakillari 2004 yil Sankt Peterburgda o'tkazilgan Rus ijodiy ziyolilari xalqaro kongresida bo'ldilar.

Rossiya Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekistonda madaniy markazlar faoliyatmi davlat siyosati darajasida ekanligini ijobiy baholab, MDHning biror – bir davlatida bunday emasligini e'tirof etishgandi¹⁶⁶.

2004 yilda O'zbekiston miqyosida Rus milliy madaniy markazlarining 10 yillik tantanalari keng nishonlandi. Aytish kerakki, 10 yil ichida markazning faoliyat doirasi ancha kengaydi. Toshkentda markaz turli konsert, ijodiy kecha va boshqa bir qator tadbirlarni muntazam o'tkazib kelmoqda.

"Veteran" xor kopellasi, "Orfey" vokal studiyasi, "Ulibka" ansambli muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Markaz qoshida "Mangologiy dvorik", A.Axmatova muzeyi tashkil etilgan¹⁶⁷.

¹⁶⁵ Правда Востока. 2004 й. 7 сентябрь

¹⁶⁶ Правда Востока. 2004 й. 17 декабрь

¹⁶⁷ Вечерний Ташкент. 2004 й. 8 ноябрь

Rus milliy madaniy markazlariga ijroiya raisi etib 2005 yilda S.N.Gerosimova tayinlandi. U bu markaz tomonidan olib borilayotgan barcha ishlarga boshchilik qildi. Markazning viloyatlardagi filiallarining faoliyati ham ancha kengaydi.

RMM Rossiya elchixonasi, Rus provaslav yeparxiyasi boshqaruvi bilan aloqani uzmagani xolda turli tadbirlar: Maslitsa, Rojdestvo, Pasxa va boshqa bayram tadbirlarini o'tkazdi. Urush va mehnat faxriylaridan 718 kishiga 2005 yilda sog'liqlarini tiklash uchun sanatoriylarga yo'llanmalar berildi. 36 kishi Moskva shahrida davolandi. Bu ishlarga 108 million so'm ajratilgan¹⁶⁸.

Markazning Andijon, farg'ona, Samarqand, Buxoro, Termiz, Navoiy filiallarining faoliyati 10 yil ichida ancha yuqori bosqichga chiqdi. Toshkent shahri tumanlarida ham filiallar faoliyat ko'rsatmoqda¹⁶⁹.

Toshkentda Rossiya fan va madaniyat markazining ochilishi ham ijtimoiy - madaniy hamkorlikni mustahkamlashda muhim omil bo'ldi. Ikki mamlakat olimlari adiblar, rassomlar o'zaro dasturlarni birgalikda amalga oshirish uchun qulay imkoniyatga ega bo'ldilar¹⁷⁰.

2005 yil avgust oyida Rossiya Federatsiyasi Fan va ta'lim vaziri A.Fursenkoning Toshkentga tashrifi, tomonlarni istiqboldagi hamkorligini rivojlantirishga o'z xissasini qo'shdi. Bo'lib o'tgan bir qator uchrashuvlar chog'ida turli masalalar muhokama qilinib, shartnomalar imzolandi¹⁷¹.

Albatta, O'zbekiston – Rossiyai munosabatlarning rivojlanishida, ikki o'rtada ijtimoiy, madaniy, ilmiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishi muhimdir.

Davlatlarimizning harbiy va harbiy texnikaviy hamkorligi mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq boshlangan edi. Bu sohada munosabatlar 1998 yilgi va 1999 yilda imzolangan shartnomalar asosida olib borilmoqda. Davlatlarimiz o'rtasida chegaralar to'g'risida, havo hujumidan mudofaa masalasi yuzasidan ham bitimlar mavjud. Ushbu bitimlarning ratifikatsiya qilinganligi to'g'risidagi xujjatlar tomonlarga taqdim etilgan¹⁷².

O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida, O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi havo fazosining xavfsizligini ta'minlash maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi havo hujumiga qarshi mudofaa qo'shinlari va harbiy havo kuchlaridan hamda Rossiya Federatsiyasi harbiy havo kuchlaridan birgalikda foydalanish to'g'risida"gi bitim 2004 yil 27 avgustda ratifikatsiya qilinadi¹⁷³.

Tomonlarning bu boradagi faoliyat doirasi masalalari "Strategik sheriklik" va "Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida"gi bitimlarda ham o'z aksini topgan.

¹⁶⁸ Голос Узбекистана. 2005 й. 1 июль

¹⁶⁹ Вечерний Ташкент. 2005 й. 27 январь

¹⁷⁰ Голос Узбекистана. 2005 й. 21 октябрь

¹⁷¹ Правда Востока. 2005 й. 13 август

¹⁷² Статья посла РФ Ф.Мухаметшина в газете БВВ. <http://www.russia.uz>

¹⁷³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис ахборотномаси. 2004 й. №9 65 бет

“Strategik sheriklik” haqidagi bitimning 1-6 moddalarida bayon etilgan, o‘zaro xavfsizlik, barqarorlikni ta’minlash, tomonlar suvereniteti, hududiy daxlsizligiga raxna soluvchi tahdidlarga birgalikda qarshi harakat qilish, terrorizm va boshqa zo‘ravonliklarga birgalikda qarshi harakat qilish, 7 moddada ko‘rsatilganidek harbiy va harbiy – texnikaviy hamkorlik to‘g‘risidagi bitimlar asosida amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi¹⁷⁴.

“Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risida”gi bitimning 4 moddasida xavfsizlikni ta’minlash va tinchlik, barqarorlikni saqlash maqsadida tomonlar alohida shartnomalar asosida bir - birlarining hududlaridagi harbiy obyektlardan foydalanish huquqini oladilar deb ko‘rsatilgan¹⁷⁵.

Hamkorlik ayniqsa, 2004 yil 16 iyundagi “Strategik sheriklik” haqidagi bitimdan keyin yangi bosqichga ko‘tarildi. 2005 yil 28 – 29 iyun kunlari Novo Ogarevo uchrashuvi chog‘ida O‘zbekiston prezidenti I.Kavrimov Rossiya mudofaa vaziri S.Ivanov bilan uchrashadi. Muloqot chog‘ida ikki o‘rtadagi harbiy va harbiy – texnikaviy hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani ta’kidlangan edi. Bu yo‘nalishdagi aloqalar, harbiy mahsulotlar yetkazib berish, harbiy - texnikani yangilash, kadrlar tayyorlash, birgalikda mashqlar o‘tkazish bo‘yicha davlatlararo dasturlarni tuzish tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu uchrashuv chog‘ida harbiy va harbiy - texnikaviy hamkorlikning ahvoli va istiqbollari haqida fikr almashindi. O‘zbekiston Respublikasida harbiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonalarni tashkil etish masalasi ham ko‘rib chiqiladi¹⁷⁶.

Bu ishlarning natijasida harbiy va harbiy - texnikaviy hamkorlikni yuqori pog‘onaga ko‘tarish uchun albatta, huquqiy asoslar yaratiladi.

2005 yil 21 sentabr kuni Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri S.Ivanov O‘zbekistonga tashrif buyurdi. O‘sha kunlarda “Forij” poligonida ikki tomon qurolli kuchlarining qo‘shma antiterror taktik mashqlari o‘tkazilishi rejalashtirilgan edi. “Forij” poligonida mamlakatlarimizning havo desanti, tog‘ - o‘qchi qismlari qatnashdilar. Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri S.Ivanov o‘zbek askarlarini professionallik darajasiga yuqori baho berdi. O‘z navbatida u:

- “Bunday antiterror mashqlarni yangi zamonaviy turdagi qurollar bilan ham davom ettiramiz” deb ta’kidladi¹⁷⁷.

Ushbu tashrif chog‘ida Toshkentdagi “Interkontenental” mehmonxonasida “Davlat havo kemalari xavfsizligi sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi bitim imzolanadi¹⁷⁸.

¹⁷⁴ Халқ сўзи. 2004 й. 22 июнь

¹⁷⁵ Договор о союзнических отношениях между РФ и РУз. <http://www.russia.uz>

¹⁷⁶ Ўзбекистон – Россия. Prezidents_office@press_service.uz

¹⁷⁷ Народное слова. 2005 й. 7 декабрь

¹⁷⁸ Ўзбекистон – Россия: иттифоқчи давлатлар. Prezidents_office@press_service.uz

Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi harbiy va harbiy - texnikaviy hamkorlikka 1994 yil 2 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.Karimovning Rossiya Federatsiyasiga birinchi rasmiy tashrifi chog‘ida asos solingan edi. Moskvada “Qurolli kuchlarni o‘zaro moddiy va texnikaviy ta‘minlash yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi bitim imzolangan edi. 1995 yil 23 – 25 iyul kunlari Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri V.Chernomirdin Toshkentga tashrif buyurib, hukumatlarimiz o‘rtasidagi shartnomaga imzo chekadi. 1998 yil 6 may kuni I.Karimov Moskvada Rossiya Federatsiyasi prezidenti bilan Il-76MF va Il-76TF samalyotlarini ishlab chiqarish, foydalanish, Il-76, Il-78 samalyotlarini foydalanish va modernizatsiyasini ta‘minlash to‘g‘risidagi bitimni imzoladi. 1999 yil 11 dekabr kuni Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri V.Putin Toshkentga tashrifi chog‘ida ikki o‘rtada “Harbiy va harbiy - texnikaviy hamkorlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi shartnoma imzolandi.

Ushbu xujjat mudofaa vazirliklari, qurolli kuchlar bilan harbiy xavfsizlik masalarida o‘zaro aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan edi. Yana xalqaro terrorizmga qarshi kurash, O‘zbekiston va Rossiya qurolli kuchlari uchun harbiy mutaxassislar tayyorlash ham ko‘zda tutilgan edi.

Hozirgi kunda quyidagi ishlar rejalashtirilgan:

- Chirchiqda Aviata‘mirlash zavodi bazasida harbiy vertolyotlarni ta‘mirlovchi qo‘shma korxonani tashkil etish;
- “Moydonoq” kompleksida fazoni tadqiq qilish yuzasidan o‘zaro hamkorlik;
- Chkalov AICHBning Il-76MF va Il-114 harbiy transport samolyotlaridan Rossiyaga yetkazib berish¹⁷⁹.

¹⁷⁹ Россия – Узбекистан будут рассматривать двухстороннее военно – технического сотрудничество.
http://www.vpk_news.ru

III BOB. EKSPERIMENTAL ISHNI O‘TKAZISH VA NATIJALARINI TAHLIL QILISH

3.1. Eksperimental ishni o‘tkazish metodikasi

Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, xalqaro va boshqa sohalarida maqsadlar o‘zgarayotgan sharoitda, industrial jamiyatdan postindustrial va informatsion jamiyatga o‘tish sharoitida ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar o‘zgarmoqda, uni modernizatsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda barcha ta’lim muassasalarida ta’lim mazmunini tanlash va strukturalashtirish, yangi ta’lim texnologiyalarini, dars berish shakllari va usullarini ishlab chiqish va moslashtirish, boshqaruv modellarini ishlab chiqish sohalarida izlanishlar olib bormoqdalar va h.k. Ushbu o‘quv yurtlari ma’muriyati oldida innovatsion loyihalashtirish shaklida maqsadli innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarish vazifasi yuzaga kelmoqda.

Xo‘sh, innovatsion jarayon, innovatsiya, yangilik degani nima?

Innovatsion jarayon – yangiliklar yaratilishi (tug‘ilishi, ishlab chiqilishi) o‘zlashtirilishi, foydalanilishi va tarqatilishi borasidagi kompleks faoliyat.

Ilmiy adabiyotlarda “Yangilik” va “Innovatsiya” tushunchalari farqlanadi.

Yangilik – bu aynan vosita (yangi metod, metodika, texnologiya, o‘quv dasturi va shu kabilar).

Innovatsiya – ana shu vositani o‘zlashtirish jarayoni.

Pedagogikada innovatsiya ko‘pincha pedagogik eksperiment bilan bog‘lanadi. Shu bois o‘quv yurti ma’muriyati va pedagogik jamoasi oldida yangiliklarni ishlab chiqish va o‘zlashtirish texnologiyasini o‘rganish, uni ta’lim muassasasi faoliyati natijalarini yaxshilash uchun vosita sifatida qo‘llash muammosi yuzaga kelmoqda.

Har qanday innovatsion jarayon joriy etilgan bir xil (yagona) yangiliklardan iborat bo‘ladi. Har qanday pedagogik ishlanmaning joriy etilish uni sinovdan o‘tkazib ma’qullashni, binobarin, muayyan sharoitlarda pedagogik eksperiment o‘tkazishni ham taqozo etadi. U individual ham, jamoaviy ham bo‘lishi mumkin. Yangilikning ahamiyatini aniqlash uchun klassik tartibda eksperiment o‘tkazish, ya’ni “eksperimental maydoncha”, “eksperimental guruh”da olingan natijalarni odatdagi rejimda ishlayotgan guruhlar orasidan tanlab olinadigan nazorat obyekti natijalari bilan qiyoslash zarur. Bunday tajriba-eksperimental ishni yangilik ilgari sinab ko‘rilmagan taqdirda o‘tkazgan ma’qul. Agar yangilikning samaradorligi boshqa o‘quv yurtlarining tajribasi bilan tasdiqlangan bo‘lsa, uning ahamiyatga egaligini tasdiqlash talab etilmaydi, boshqa tajriba-eksperimental ish vazifasi, ya’ni yangilikni joriy etish mexanizmini ishlash (obrabotka) vazifasi qo‘yiladi, bunda ta’lim muassasalari eksperimental faoliyat yo‘nalishlarini mustaqil belgilaydilar.

Eksperiment – bu ilgari surilgan *gipotezani* tekshirish uchun mo‘ljallangan hamda tabiiy va sun’iy sharoitlarda amalga oshiriladigan, natijasi yangi bilim bo‘lgan, pedagogik faoliyat natijalariga ta’sir etuvchi jiddiy omillarni qamrab oladigan tadqiqot faoliyatidir¹⁸⁰.

Pedagogik eksperiment – vazifasi o‘quv-tarbiya faoliyatida qo‘llaniladigan texnologiyalar, metodlar, usullar, yangi mazmun kabilarning nisbatan samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘lgan eksperiment.

Maqsadlariga ko‘ra eksperimentlarning quyidagi turlari ajratiladi.

Qayd etuvchi eksperiment quyidagi savollarga javob beradi: *“Innovatsion metodikani sinovdan o‘tkazish uchun taklif etilayotgan o‘rganilayotgan predmetda nima mavjud yoki nima qoniqtirmaydi? Taklif etilayotgan usullar majmui, o‘quv jarayonini tashkil qilish shakllari, joriy etilayotgan ped texnologiyalar pedagogik muammoni adekvat hal qilishga mos keladimi?”* Asosan, qayd etuvchi eksperiment innovatsion amaliyotga joriy etish maqsadida yangiliklarni sinab ma’qullash maqsadlariga xizmat qiladi. Eksperimentning bu turi yangi dastur, o‘quv qo‘llanmasi samaradorligi (samarasizligi) dalillari bo‘lgan materiallar majmuini shakllantirishga xizmat qiladi. Eksperiment natijalariga ko‘ra aniqlangan faktlar qayd etiladi, o‘quv qo‘llanmasi konsepsiyasining dasturi va uning mazmunini o‘zgartirish yuzasidan aniq tavsiyalar taklif etiladi, ijobiy va salbiy natijalar qayd etiladi.

Loyiha-tadqiqot, izlov eksperimenti ta’lim berish faoliyati choralari, metodlari, usullari tizimini izlashga xizmat qiladi. Amalda ta’lim jarayonida va muayyan predmet sohasidagi muammoli vaziyatlarning hammasini ularning sabablari, bartaraf etish mexanizmlarini ilmiy o‘rganish asosida hal qilishga, eng asosiysi kelajakda ular muntazam takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik mexanizmini formatlashtirishga urinib ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda ta’lim amaliyoti va texnologiyasi o‘rtasidagi farq yorqin ko‘rinadi. Agar amaliyot yuzaga keladigan bir xil muammolarga qarshi doimiy ravishda tinimsiz kurashishga qaratilgan bo‘lsa, izlov rejimidagi ta’limni texnologiyalashtirish muammoli vaziyatlarning sabablari shakllanishi imkoniyatlarining o‘zini bartaraf etishga qaratilgan bo‘ladi. Muammoli vaziyatga ijobiy “ta’sir ko‘rsatish” choralari – bu ijodiy loyihalashtirishning keng maydonidir.

Shakllantiruvchi eksperiment o‘quvchilarni ham, butun ta’lim makonini ham o‘zgartirishga xizmat qiladi. Shakllantiruvchi eksperiment o‘quv jarayonini demokratlashtirish, pedagog va o‘quvchi o‘zaro munosabatlarining, sinf ichidagi

¹⁸⁰ Новикова Т.Г. Проектирование эксперимента в образовательных системах. М., 2002. – С. 134.

(guruhiy) mikrosotsium (kichik jamoa) o'zaro munosabatlarining tabiatini o'zgartirish muammosini hal etishi mumkin. Bu turdagi eksperiment xotira, idrok, motivatsiya, tafakkur, diqqatni rivojlantirishga qaratilishi mumkin. U o'quv jarayonining o'zini-o'zi tashkil qilishi, mustaqil ta'lim va o'zini tarbiyalash mexanizmlarini ishga solish asosida o'quvchining shaxsiga faol ijobiy ta'sir ko'rsatish vazifalariga xizmat qilishi mumkin. Predmet sohasida mualliflik metodikasini ishlab chiqayotgan pedagog uchun ushbu eksperiment o'quvchining umumta'lim kompetensiyasini (bilim, ko'nikma va mahoratini) shakllantirishda samaradorlik darajasini tekshirishga yordam beradi.

Nazorat eksperimenti shakllantiruvchi eksperiment natijalari bo'yicha o'zgarishlar darajasini ko'rsatadi.

Pedagogik eksperimentlar o'z darajalariga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

- individual;
- o'quv yurti ichidagi eksperiment;
- shahar, tuman doirasidagi;
- viloyat doirasidagi;
- respublika doirasidagi.

Eksperimentlar turlari bo'yicha quyidagilarga ajratiladi:

Lokal – o'zaro bog'liq bo'lmagan xususiy (juz'iy) eksperimentlar, masalan: fan bo'yicha yangi dastur.

Modulli – juz'iy, o'zaro bog'liq yangiliklar majmui, masalan: yangi dasturlar bloki, ta'lim bo'yicha yangi texnologiyalar ishlab chiqilishi, yangi ijodiy birlashma yaratilishi.

Sistemali – butun o'quv yurtini qamrab oladigan yangiliklar. O'quv yurtini rivojlantirishning yangi dasturi ishlab chiqiladi, masalan: butun o'quv yurtini qandaydir g'oya, konsepsiya bo'yicha qayta qurish, yoxud avvalgi ta'lim muassasasi negizida yangisini yaratish.

Keng miqyosli – (masalan: ta'lim tuzilishi va mazmunini takomillashtirish bo'yicha eksperiment).

Eksperimentlar dasturi lokal yoki modulli qo'llanishlarda tuziladi, agar butun o'quv yurtini sistemali hosil qilish haqida masala qo'yiladigan bo'lsa, boshqa hujjat – “O'quv hujjatini rivojlantirish dasturi” tayyorlanadi. M. M. Potashnik ta'kidlaganidek, pedagogik amaliyotda “eksperiment” tushunchasi ko'pincha so'zning tom ma'nosida, asosan noaniq va noma'lum natijalar beradigan ilmiy-tadqiqot faoliyati sifatida qo'llanilmaydi. Ko'p hollarda “eksperiment” so'zi orqali garchi yaqin bo'lsa-da, ammo aynan bo'lmagan tushunchalar birlashtiriladi. Masalan, “izlash”, “izlov ishlari”, “tajriba”, “tajriba-eksperimental ish”, “tadqiqot ishi”, “eksperimentning o'zi” va sh.k. Ommaviy pedagogik amaliyotda ushbu tushunchalar o'rtasida juda qat'iy, aniq chegaralar yo'q, ularning bari ko'p yoki

kam darajada “tom ma’nodagi eksperiment”ning qaysidir ulushini nazarda tutadi¹⁸¹. Mazkur ta’riflardan har biri ushbu hodisaning u yoki bu tomonini yoritadi. Pedagogikada ijodiy izlanish, tajribaviy ishlar eksperimentni, ya’ni izlov faoliyatini, yangi pedagogik tajriba yaratilishini nazarda tutadi. Mazkur tushunchalarning hammasini aniq va qat’iy ajratishning imkoni yo‘q. Aniq bir innovatsion pedagogik faoliyat asosiy dominanta belgisi bo‘yicha u yoki bu tushunchaga kirishi mumkin: faoliyatda yangilik qancha ko‘p bo‘lsa, u tom ma’nodagi eksperimental ishga shunchalik yaqin bo‘ladi; unda boshqa pedagoglar tomonidan boshqa sharoitlarda allaqachon ma’lum texnologiyalarning qo‘llanilishi qancha ko‘p bo‘lsa, u tajriba ishiga shuncha yaqin bo‘ladiki, uning davomida yangilik izlanishi va keyinchalik sinovdan o‘tkazilib ma’qullanishi, ya’ni o‘sha tom ma’nodagi eksperiment yuz beradi.

A. S. Sidenko va T. G. Novikova “Ta’limdagi eksperiment” kitobida har qanday eksperiment dasturini ishlab chiqishga kirishishdan avval o‘quv yurti ichida eksperiment darajasini aniqlab olish lozimligini ta’kidlaganlar:

- tajriba ishi;
- tajriba-eksperiment faoliyati;
- eksperimental-izlov faoliyati;
- eksperimental-tadqiqot faoliyati.

Ayni vaqtda o‘quv yurtlarining o‘zlari, ilmiy-metodik mavzu ishlanishiga ko‘ra, muayyan rivojlanish darajalaridan o‘tadilar¹⁸².

¹⁸¹ Поташиник М.М. Организация опытно-экспериментальной работы в школе. М., 1991. – С.123.

¹⁸² Сиденко А.С. Новикова Т.Г. Эксперимент в образовании. М., 2002. – С.145.

3.2. Olingan natijalar tahlili va uslubiy tavsiyalar

“O‘zbekiston –Rolssiya o‘rtasidagi munosabatlarning yangi qirallarini ochib berish” mavzuidagi tadqiqot doirasida muallif ushbu muammoni o‘rganishning hozirgi holatini hamda ushbu mavzu bo‘yicha oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim oluvchilarning bilim darajasini aniqlashga qaratilgan kichikroq eksperiment o‘tkazdi.

Eksperimental ish Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakultetining 4-bosqich talabalari o‘rtasida o‘tkazildi. Unda 4 kursda ta‘lim oluvchi 63 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ular nazorat guruhi va eksperimental guruhga bo‘lindilar. Nazorat guruhini Tarix ta‘lim yo‘nalishi 403-guruhida ta‘lim oluvchi 31 nafar o‘quvchi, eksperimental guruhni esa Tarix ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan 404-guruhning 32 nafar talaba tashkil qildi.

Davlat ta‘lim standartiga muvofiq, tadqiq etilayotgan mavzu Tarix ta‘lim yo‘nalishida 4-kursning 8-semestrda o‘rganiladi.

Baholash natijalaridan nazoratdagi va eksperimental guruh o‘quvchilari ushbu mavzuni o‘rganishga amalda bir xil darajada qiziqish ko‘rsatishlari ma‘lum bo‘ldi.

Nazorat guruhida seminar mashg‘uloti an‘anaviy metodika bo‘yicha noan‘anaviy usullarni qo‘llagan holda o‘tkazildi. Mavzu rejasi asosida talabalarning bilimi nazorat qilindi. Mustahkamlash uchun “Blits” savollardan foydalanildi, o‘qituvchi talabalarni qiziqtirgan savollarga javob berdi. Mashg‘ulot oxirida mustahkamlash uchun savol-javoblar qilindi. O‘quvchilarga uy vazifasi sifatida Internet tarmog‘i, teleko‘rsatuvlar va radioeshittirishlar materiallari asosida “O‘zbekiston siyosiy partiyalarining faoliyati” mavzusida mustaqil ish tayyorlash topshirildi.

Umuman olganda, ushbu mashg‘ulotlar o‘z maqsadiga erishdi – talabalar ijtimoiy himoya masalalarida muayyan ma‘lumotlarga ega bo‘ldilar. Biroq tizimli axborotning mavjud emasligi, ta‘limning zamonaviy texnologiya va metodlaridan foydalanilmaganligi tufayli ushbu ma‘lumotlar o‘quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolmadi. Taqdim etilgan materiallarga nisbatan muayyan ishonchsizlik va befarqlik kuzatildi. Binobarin, o‘quvchilar o‘rganilgan mavzu bo‘yicha mustahkam bilim olganlari haqida so‘z yuritish qiyin.

Eksperimental guruhlarda esa mashg‘ulotlar noan‘anaviy shaklda, innovatsion texnologiyalar, “Tushunchalar tahlili”, “Loyiha” metodlari asosida kichik guruhlariga bo‘lingan holda o‘tkazildi.

Mashg‘ulotlarda ta‘lim oluvchilarning mustaqil ishlashi ustunlik qildi.

Mashg‘ulotning borishini qisqacha quyidagicha tavsiflash mumkin:

Tashkiliy qism (salomlashish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorlash)dan keyin mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan

tanishtirildi. O'qituvchi mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda «Tushunchalar tahlili» ped.texnologiyasini qo'llab, talabalar bilimini faollashtiradi

Asosiy qism boshida mavzu yuzasidan talabalarni faollashtirish va bilimini baholash uchun «Loyiha» ped.texnologiyasini qo'llash tartibi bilan tanishtirdi. Kichik guruhlariga vazifa va uni bajarish uchun vaqt berdi.

So'ngra, mashg'ulot rejasiga binoan, o'quv materialini taqdimot metodi yordamida ketma-ket bayon etildi. Muayyan motivatsion ish, o'qituvchining jonli fikr almashuvi muhitini yaratishi o'quvchilar qizg'in bahs-munozaraga kirishishlariga olib keldi. Munozara jarayonida o'quvchilar yetarlicha asoslangan fikrlar bildirdilar, taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qildilar, kursdoshlari va o'qituvchilarining savollariga javob berdilar.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun mashg'ulotning muhokama qilinmagan qismlarini mavzuning rejasiga asosan talabalar bilimi og'zaki tahliliy savol-javob qilindi.

Talabalar O'zbekiston-Rossiya munosabatlarining shakllanish jarayoni, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy aloqalar bosqichlari va tarixi haqida, egallagan bilimlarini mustahkamladilar, yangi ma'lumotlar bilan boyitdilar.


Ularning barchasi bugungi kunda O'zbekiston-Rossiya davlatlari o'rtasidagi aldoqalarning tahlil qilib, yutuq va kamchiliklarni muhokama qildilar, o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirdilar va o'qituvchi ko'magida xulosa qilishga harakat qildilar..

Quyidagi jadvalda ikkala guruhda ham qatnashgan talabalarining mavzuni o'zlashtirish bo'yicha olgan baholari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu jadval eksperimental guruh talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhi talabalarining ko'rsatkichlaridan yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi. Eksperimental guruh o'quvchilarining 30 tasidan 10 nafari a'lo baho (nazorat guruhidagi 32 o'quvchidan esa 6 nafari), 12 nafari yaxshi baho (nazorat guruhida esa 18 nafari), 8 nafari qoniqarli baho (nazorat guruhida esa 8 nafari) olganlar.

Eksperimental va nazorat guruhi o'quvchilarining mavzu bo'yicha olgan baholari

№		Kurs	Guruhi	Yo'nalishi	Talabalar soni	«5»	«4»	«3»	«2»
1	Nazorat guruhi	4	4-03	Tarix	31	5	18	8	-
2	Eksperimental guruh	4	4-04	Ijtimoiy-gumanitar	32	10	12	10	-



Eksperimental guruh o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarining nazorat guruhi o'quvchilariga nisbatan yuqoriligiga o'qitishning zamonaviy usul va texnologiyalaridan foydalanilganligi sabab bo'ldi, deb o'ylaymiz. Talabalarni o'zini ta'lim jarayoniga faol jalb etilganligi ham darsning samaradorligini oshirdi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida ko'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormokda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir katorida boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi - talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash, o'zaro harakat qilmoq deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarni birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabanning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi - talabanning bilimga bo'lgan kiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-talabanning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O'qituvchi va o'quvchi-talabanning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarining bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyixalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, texnik vositalarni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkii. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi-talabani ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik haritasini to'zib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik harigasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'kitilayoggan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi-talabalarining imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan xolda tuziladi.

Eksperimental guruhda o'tkazilgan seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi

**MAVZU. O'ZBEKISTON-ROSSIYA O'RTASIDAGI IJTIMOIIY
IQTISODIY SIYOSIY ALOQALARINI O'RGANISH .**

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashgʻulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 20–30 nafar	
Mashgʻulot shakli	Mavzu boʻyicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan seminar mashgʻuloti	
Seminar mashgʻuloti rejasi	1.Oʻzbekiston-Rosiya oʻrtasida qachondan boshlab teng huquqli aloqalarning oʻrnatilishi. 2.Oʻzbekiston Respublikasi tashqi siyosati tizimida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorliging oʻrni. 3.Davlatlarimizning demokratik taraqqiyot sharoitida savdo – iqtisodiy hamkorlikning yoʻlga qoʻyilishi. 4.Davlatlararo ijtimoiy, madaniy va harbiy – texnikaviy hamkorlikning yangi tizimi.	
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Oʻzbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi oʻrni boʻyicha bilimlarni rivojlantirish.		
Pedagogik vazifalar: 1.Oʻzbekiston-Rosiya oʻrtasida qachondan boshlab teng huquqli aloqalarning oʻrnatilishini oʻrgatish. 2.Oʻzbekiston Respublikasi tashqi siyosati tizimida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorliging oʻrnini oʻquvchilarga tushintirish. 3.Davlatlarimizning demokratik taraqqiyot sharoitida savdo– iqtisodiy hamkorlikning yoʻlga qoʻyilishini tushuntirish. 4.Davlatlararo ijtimoiy, madaniy va harbiy – texnikaviy hamkorlikning yangi tizimini oʻrganilishi.	Oʻquv faoliyati natijalari: 1.Oʻzbekiston-Rosiya oʻrtasida qachondan boshlab teng huquqli aloqalarning oʻrnatilishi. 2.Oʻzbekiston Respublikasi tashqi siyosati tizimida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorliging oʻrni. 3.Davlatlarimizning demokratik taraqqiyot sharoitida savdo – iqtisodiy hamkorlikning yoʻlga qoʻyilishi. 4.Davlatlararo ijtimoiy, madaniy va harbiy – texnikaviy hamkorlikning yangi tizimi.	
Taʼlim berish usullari		Munozara, suhbat, «Tushunchalar tahlili»,

	“Loyiha” ped.texnologiyalari
<i>Ta’lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruhlarda, yakka tartibda
<i>Ta’lim berish vositalari</i>	O‘quv qo‘llanma, proyektor, qo‘shimcha adabiyotlar, tarqatma materiallar
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Texnik ta’minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: savol-javob, tezkor so‘rov

1.2. “O‘zbekiston-Rossiya o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar rivojlanishi” seminar mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Ta’lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	Mavzu, ta’lim maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos o‘quv topshiriqlari ishlab chiqadi.	
1.O‘quv mashg‘ulotiga kirish (20 daqiqa)	1.1. Mashg‘ulot mavzui, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi (1-ilova). 1.2. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarga ta’rif berishni taklif qiladi va shu asosda «Tushunchalar tahlili» ped.texnologiyasini qo‘llab, talabalar bilimini faollashtiradi (2-ilova)	Tinglaydilar Tinglaydilar, jadvalni to‘ldiradilar
2. Asosiy bosqich (50 daqiqa)	2.1. Mavzu yuzasidan talabalarni faollashtirish va bilimini baholash uchun «Loyiha» ped.texnologiyasini qo‘llash tartibi bilan tanishtiradi (3-ilova). 2.2. Kichik guruhlariga vazifa va uni bajarish uchun vaqt beradi. (4-ilova). 2.3. Mashg‘ulotning muhokama qilinmagan qismlarini mavzuning rejasiga asosan talabalar bilimi og‘zaki tahliliy savol-javob qilinadi (5-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar, mustaqil ishlaydilar Savollarga javob beradilar

3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi. 3.2.O'quv faoliyati yuzasidan xulosa chiqaradi. 3.3. Talabalarning mavzu maqsadiga erishish borasidagi faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Savollar beradilar Tinglaydilar Vazifani yozib oladilar
---------------------------------------	--	---

1-ilova

Mavzu: O'zbekiston-Rossiya o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar rivojlanishi

- 1.O'zbekiston-Rosiya o'rtasida qachondan boshlab teng huquqli aloqalarning o'rnatilishi.
- 2.O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tizimida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorliging o'rni.
- 3.Davlatlarimizning demokratik taraqqiyot sharoitida savdo – iqtisodiy hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.
- 4.Davlatlararo ijtimoiy, madaniy va harbiy – texnikaviy hamkorlikning yangi tizimi.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni ga doir bilimlarni chuqurlashtirish.

O'quv mashg'ulotining natijasi: O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

2-ilova

«Tushunchalar tahlili» ped. texnologiyasi

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- talabalar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab-qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar talabalarga beriladi;
- talabalar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchani to'g'ri izohini belgilaydi yoki (imkoni bo'lsa) ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali tanishtiriladi;

- har bir talaba (yoki o'quvchi) to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydi, kerakli tushunchaga ega bo'ladi, o'z-o'zini tekshiradi, baholaydi, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydi.

Tushunchalar	Mazmuni
O'zbekiston	
Rossiya	
Ijtimoiy	
Iqtisodiy	
Siyosiy	
Xamkorlik	
Madaniy	
Davlatlararo	
Federatsiyasi	
Madaniy va harbiy	
Mustaqillikka	
Toshkent	
Moskva	
Tashqi siyosati	
Teng huquqli	
Demokratik taraqqiyot	

3-ilova

«Loyiha» pedagogik texnologiyasi

Ushbu texnologiyaning sharti – guruhni alohida masalalar bo'yicha guruhlariga ajratish, bunda tanlab olingan voqea va hodisalarning izchilligi va ketma-ketligiga amal qilish, guruh vakillari ham o'z namoyish etayotganlarida shu ketma-ketlikka amal qilishi lozim. Ularga material bilan ishlash uchun beriladigan vaqt material hajmi va ta'lim muassasining turiga qarab belgilanadi. Shuningdek, beriladigan vazifalar soni ham materialning bndlari bilan bog'liq.

1-bosqichda guruhlariga vazifa beriladi, guruh vakillari materialni olib, u bilan tanishadilar, to'ldiradilar (10 min.).

2-bosqichda guruh vakillari voqea va hodisalar ketma-ketligiga qarab o'z qarashlarini himoya etadilar (40 min.), o'qituvchi esa har bir guruh namoyishini izohlab borishi zarur.

Guruhlarga beriladigan topshiriq
O‘zbekiston – Rossiya munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning faoliyati tahlili

1-rypyx

O‘zbyekiston – Rossiya davlatlari o‘rtasidagi olokalardagi: yutuk va kamchiliklari

2-rypyx

Sovdo-sotiq hajmining yillar kesimida tahlilini keltiring

3-rypyx

O‘zbyekiston va Rossiya o‘rtasidagi aloqalarning “Stratyegik” shyeriklik masalalari qanday

4-rypyx

Ikki davlat o‘rtasida madaniy xarbiy aloqalariga izox bering

Mavzu yuzasidan taxminiy savollar

1. O‘zbekiston-Rosiya o‘rtasida qachondan boshlab teng huquqli aloqalar shakllandi?
2. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati tizimida Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorliging o‘rni qanday?
3. Davlatlarimizning demokratik taraqqiyot sharoitida savdo – iqtisodiy hamkorlikning yo‘lga qo‘yilishi bosqichlarini bilasiz?
4. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi “Strategik sheriklik to‘g‘risida”gi bitimdan keyingi savdo – iqtisodiy hamkorlik aloqalariqanday?
5. Davlatlararo ijtimoiy, madaniy va harbiy – texnikaviy hamkorlikning yangi tizimi nimadlan iborat?

Tajriba–sinov ishlarini natijalarini yako‘nlab ko‘yidagi xulosalar qilish mumkin:

- Tajriba–sinov sinfida shakllanish tajribasini o‘tkazilganidan so‘ng bilishlar sifati yaxshi o‘zgardi, bilish qiziqishi ko‘chaydi; 78-guruxning talabalari “o‘yinli jarayonlarga javob berishga yordam beradi”, “slaydlarning qo‘llanilishi ko‘p narsalarni eslab qolish va yoki esga olishga yordam beradi” degan fikrlarga kelishdi ;

- Talabalarni bilimini nazorat qilish natijasida olingan ma‘lumotlar ko‘yidagilarni ko‘rsatdiki, turli metodlarni, shakllar kartografik harakterga ega nostandart (o‘yinli) topshiriqlarni qo‘llagan maqsadli, tizimli ish, tarixni o‘rganish jarayonida talabalarni bilim samaradorligini oshirishga olib kelishini aniqlandi.

Tajriba–sinov sinfida o‘tkazilgan nazorat ishlari natijalari tajriba xususidagi (43,5 %) bilim sifatini ancha oshganligini ko‘rsatdi . Nazorat guruxidagi bilim sifati unchalik o‘zgarmadi(75 %).

- Tajriba ma‘lumotlari shuni ko‘rsatdiki, ya‘ni turli pedagogik texnologiyalarni qo‘llab yo‘naltirilgan ish talabalarning bilim olish faolligiga ijobiy ta’sir etadi;

- Tarix fanini o‘qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni yanada faol tadbiq qilishni taqozo etadi; talabalarning intellektual salohiyatiga va aqliy faoliyatini rivojiga o‘yin holatlar, xayoliy sayohatlar ta’sir sifatida qo‘llanilishi talab etiladi

Xulosa

XX asr oxirlarida SSSRning inqirozga yuz tutishi, dunyodagi siyosiy jarayonlarga katta ta'sir o'tkazdi.

Possovet makonida MDH tashkil topdi. O'zaro bir - biriga turli jixatdan bog'langan sobiq sovet respublikalari bevosita hamkorlikni mustaqil suveren davlat sifatida davom ettirib kelmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi ham MDH davlatlari bilan o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'ygan va hamkorlik qilmoqda. Mustaqillik yillarida bunday aloqalarning yo'lga qo'yilishi yosh suveren davlat uchun oson bo'lmadi albatta.

Mustaqil tashqi siyosat yurgizish O'zbekiston uchun yangi yo'nalish edi. ma'lumki, sobiq totalitar tuzum sistemasida to'g'ridan - to'g'ri tashqi faoliyat olib borish huquqi bo'lmagan.

Respublikada ham bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilot yo'q edi. mana shunday sharoitda, O'zbekiston mustaqillikka erishgan, xalqaro munosabatlar tizimining teng huquqli subyekti bo'lishga harakat qila boshladi. Bu boradagi ishlarga prezident I.Karimovning olib borgan ichki va tashqi siyosatining yo'nalishlari asos bo'ldi.

Ma'lumki, O'zbekiston va boshqa davlatlarning xalqaro munosabatlar tizimidagi ishtirokida mamlakatdagi olib borilayotgan islohatlar va barqarorlik muhim o'rin tutadi. O'zbekistondagi ana shunday holat tashqi siyosiy, iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yishda muhim omil bo'ldi.

- "Bir narsa ravshanki, barqarorlik va jug'rofiy - siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina bu mintaqa jo'shqin va sobitqadam rivojlanadi, jahon hamjamiyati uchun munosib sherik bo'la oladi" – deb ta'kidlagan edi I.Karimov¹⁸³.

Tarixdan bizga ma'lumki, O'zbekiston va Rossiya 100 yildan ortiq davr mobaynida turli jabhalarda o'zaro bog'liq holda bo'ldi. Ikki o'rtada iqtisodiy, ilmiy, madaniy, harbiy aloqalar yo'lga qo'yilib, rivojlanib bordi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng esa munosabatlarimiz yuqori darajaga ko'tarildi. Munosabatlarimizning yo'lga qo'yilishi va mustahkamlanishi yo'lida ikki tomon o'z tashabbuslari bilan chiqdilar. Hamkorlikning rivojlanishini uch bosqichda ko'rish mumkin bo'ladi:

1. 1991 – 1994 yillar; Bunda davlatlarimiz diplomatik munosabatlar o'rnatdilar. O'zaro hamkorlik olib borish yo'lidagi ilk huquqiy asoslarga qadamlar qo'yildi. To'g'ri savdo – iqtisodiy munosabatlar ko'rsatkichlari hali yuqori bo'lmasada, kelgusi istqbol uchun zamin yaratildi.

¹⁸³ И.Каримов “Ўзбекистон XXI аср бўсағасида...” Т.Ўзбекистон 1997 й 9 бет

2. 1995 – 2010 yillar; Tomonlarning savdo – iqtisodiy aloqalari, harbiy – texnikaviy, terrorizmga qarshi kurashda hamkorligida yagona fikrga kelindi. Bu borada bir nechta shartnomalar imzolandi.
3. 2013 yildan keyin; Bu bosqichda Rossiyada hokimiyat tepasiga V.Putinning kelishi va O‘zbekiston – Rossiya munosabatlarning mustahkam asosga qurilgan aloqalarini yangi bosqichga ko‘tarilishini ko‘ramiz. Har ikki davlat o‘zlarining manfaatlaridan kelib chiqqan holda, turli sohalardagi aloqalarni kukchaytirdilar. O‘rtada ittifoqchilik munosabatlari o‘rnatildi. Bu esa yurtimizning gullab - yashnashi, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashi uchun muhim omil bo‘ldi.

Mintaqada, shu jumladan O‘zbekistonda tinchlik, barqarorlikni ta‘minlash, iqtisodiy – ijtimoiy islohatlarni izchil, samarali amalga oshirishda tashqi aloqalar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan yo‘lga qo‘ygan hamkorlik aloqalari shunga qaratilgan. Munosabatlarimizning rivojlanib borishi jarayonini kuzatsak, bunda biz tomonlar manfaatlari, o‘zaro tenglik va huquqiy asoslarda bir – birini uyg‘unlashtirayotganini ko‘ramiz. Davlatlarimiz rahbarlarining bir qator uchrashuvlarda ko‘pgina shartnoma, bitimlar imzolandi. Ular asosida talay ishlar amalga oshirildi.

“Strategik sheriklik” to‘g‘risida imzolanishi mamlakatlarimizni yanada yaqinlashtirdi. Yoqilg‘i – energetika, sanoat, metallurgiya, transport, agrar sohalarda tomonlar savdo munosabatlarini rivojlantirdilar. Ijtimoiy - madaniy munosabatlar kuchaya boshladi. Ittifoqchilik munosabatlariga o‘tish esa munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Uning natijasida vujudga keladigan voqealikni biz faqat ijobiy deb baholashimiz mumkin bo‘ladi. Bunday yaqinlik O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotni ko‘tarish, barqarorlashtirish, xavfsizlikni ta‘minlash, chegaralar daxlsizligi, suverenitetni himoya qilishda mustahkam asos yaratdi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. И.Каримов. “Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли” Т.Ўзбекистон. 1992.
2. И.Каримов. “Буюк мақсад йўлидан оғишмайлик” Т.Ўзбекистон. 1993.
3. И.Каримов. “Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида” Т.Ўзбекистон. 1995.
4. И.Каримов. “Биздан озод ва обод ватан қолсин” Т.Ўзбекистон. 1994.
5. И.Каримов. “Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида ...” Т.Ўзбекистон. 1997.
6. Н.Жўраев. “Агар огоҳ сен...” Т.Ёзувчи. 1996.
7. У.Мавлонов. “Маданий алоқалар ва савдо йўллари” Т. “Академия”. 2004.
8. “Ўзбек дипломатияси тарихидан”. Т. “ЖИДУ” 2004.
9. “Ўзбекистонда жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилиш йўлида”. Т.Академия. 2005.
10. В.Тюриков, Р.Шоғуломов. “Мустақил Ўзбекистон Республикаси”. Т.Шарқ. 1998.
11. А.Касимов, И.Васькин. “Основные направления внешней политики Республики Узбекистан”. Т.Ўзбекистон. 1994.
12. Э.Нуриддинов. “Международное сотрудничество республики Узбекистан со странами Европы”. Т. “Чўлпон”. 2002.
13. Фомышин С.В. “Международные экономические отношения”. М.Юркнига. 2004.
14. Международные отношения в ХХІ века. М. МГУ 2001.
15. Р.Мукимджанова. “Россия и Узбекистан: некоторые аспекты и перспективы взаимоотношений”. «Россия и мусульманский мир». 1999. №7
16. Г.В.Мачин, Г.Н.Назаралиева: “Равноправное сотрудничество Узбекистана с Россией”. О.Н.Ц. 1993. №2
17. С.Бирюков: “Политика России в отношении Узбекистана”. М. «Восток». 2001. №1
18. А.Куртов. “Россия - Узбекистан: тернистый путь к согласию”. «Россия и мусульманский мир». 1999. №9
19. Р.Азимов: “Исходя из интересов страны”. ЭВУ 2004. №3-4
20. Ф.Мухаметшин: “Россия-Узбекистан. Экономическое сотрудничество в действии”. ЭВУ 2004. №7-8

21. Ф.Рушков, П.Ратаник. “Ўзбекистон – Россия; йўлларимиз бўлак, аммо мақсадимиз бир”. «Иқтисодиёт ва ҳисобот». 1994. №1-2
22. В.Сапранин. “Российский «Газпром» в странах Центральной Азии”. «Центральная Азия и Кавказ». 2004. №5
23. Ўзбекистон овози. 1992. 21 июнь
24. Правда Востока. 1991. 21 октябрь
25. Правда Востока. 1991. 9 октябрь
26. Правда Востока. 1992. 25 июль
27. Правда Востока. 1993. 20 март
28. Халқ сўзи. 1992. 29 сентябрь
29. Ўзбекистон овози. 1994. 3 март
30. Ўзбекистон овози. 1994. 5 март
31. Халқ сўзи. 1995. 3 июль
32. Халқ сўзи. 2004. 17 апрель
33. Халқ сўзи. 2004. 17 июнь
34. Ўзбекистон Республикаси ОМ Ахборотномаси. 2004. №9
35. Халқ сўзи. 2004. 22 июнь
36. Правда Востока. 2004. 7 сентябрь
37. Правда Востока. 2004. 17 декабрь
38. Вечерний Ташкент. 2004. 8 ноябрь
39. Правда Востока. 2005. 27 январь
40. Голос Узбекистана. 2005. 21 октябрь
41. Правда Востока. 2005. 13 август
42. Народное слово. 2005. 7 декабрь
43. БВВ. 2005. 10 февраль
44. БВВ. 2005. 10 апрель
45. БВВ. 2005. 2 июнь
46. БВВ. 2005. 20 июнь
47. Независимая газета. 2005. 15 ноябрь
48. Труд. 2006. 1 февраль
49. Халқ сўзи. 2004. 28 февраль
50. Народное слово. 2005. 30 июнь
51. Халқ сўзи. 2005. 12 октябрь
52. Россия – Узбекистан; Пресс Релиз посольства РФ.
<http://www.russia.uz//01.II.2006>
53. Договор о союзнических отношениях между Российской Федерацией и Республики Узбекистан. Пресс Релиз №35
<http://www.russia.uz>

54. О гуманитарном сотрудничестве 2005 году. Пресс Релиз ПРФ №36
55. Ўзбекистон - Россия; <http://www.uzbekistan.mid.ru/rusuzb/html>
56. Ўзбекистон – Россия муносабатлари; <http://www.lmta.uz/8003/ccng>
57. Ратифицирован договор о партнёрстве между РФ и РУз. <http://uzreport.com>
58. О торгово – экономическом сотрудничестве России и Узбекистана. <http://www.uzbekistan.mid.ru>
59. О деятельности Межправительственной комиссии по экономическому сотрудничеству между РФ и РУз. <http://www.c-azia.org>
60. Ташкент, вести – уз. Об открытии Российского центра науки и культуры. <http://www.rciscc.ru>
61. Росзарубежцентр. <http://www.rciscc.ru>
62. Ўзбекистон – Россия муносабатлари. <http://www.presidents-office@press-service.uz>
63. Россия – Узбекистан будут рассматривать двухстороннее военно – техническое сотрудничество. <http://vpk-news.ru>
64. Новости. <http://dni.ru/news/polit/>
65. Ф.Мухаметшин: Россия - Узбекистан экономическое сотрудничество в действии. Статья ПРФ в газете БВВ. <http://www.russia.uz>
66. Ф.Мухаметшин: Под знаком стратегического партнерство Статья ПРФ в газете Труд. <http://www.russia.uz>
67. Ўзаро ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш йўлида. <http://www.presidents-office@press-service.uz>
68. Ўзбекистон – Россия: иттифоқчи давлатлар. <http://www.presidents-office@press-service.uz>